



IVAN BUNIN



# SARMOYA

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

**IVAN BUNIN**

# **SARMOYA**

*Qissa va hikoyalar*

32875

ALISFER HAYOT NOMIDAGI  
**ToshDOSTAU**  
AXBOROT-RESURS MARKAZI



**ZIYO NASHR**

Toshkent  
2020

UO'K: 821.161.1-3  
KBK 84(2Ros)  
B 95

Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy  
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev

Tarjimonlar:

Qodir MIRMUHAMEDOV va b.

Qo'lingizdagи to'plamda Nobel mukofoti sohibi Ivan Buninning hikoyalari o'rин olgan. Bu hikoyalar ravon tili, jamiyatdagi kamchiliklarni ochib berishi bilan o'quvchilar e'tiborini tortadi.

Shuningdek, to'plamdan iste'dodli rus adibi Mixail Bulgakovning „Kasofat tuxumlar“ nomli qissasi ham o'rин olgan.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarcandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqta-yi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasiniz izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jiddligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O.de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimi, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinni olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

## STYOPA

Qosh qoraya boshlaganda Chern yo‘lidan ketayotgan yosh savdogar Krasilshikov jalada qolib ketdi.

U movut chakmoni yoqasini ko‘tarib, tomchilar duvduv tomayotgan kartuzini bostirib kiygan holda qo‘nji uzun etiklarini aravachaning o‘qiga qattiq tirab, to‘siq orqasida-gi o‘rindiqda o‘tirar, uvishib qolgan ho‘l barmoqlari bilan ivib ketgan tizginni siltab tortib, yugurik otni yanada tez chopishga undar, suyuq balchiq sachratib ketayotgan chap tomondagi g‘ildirak yonida yirik qo‘ng‘ir ovchi it tilini osiltirib, bir maromda g‘izillab borardi.

Oldiniga Krasilshikov aravachani tosh yo‘l bo‘ylab cho‘zilgan qora tuproq so‘qmoqdan haydadi, so‘qmoq ko‘-piklanib oqayotgan kulrang bo‘tana bilan to‘lgandan keyin katta yo‘lga burilib, mayda shag‘alni g‘ijirlatib keta bosh-ladi. Yon-atrofdagi daraxtlar ham, osmon ham yangi uzil-gan bodring va fosfor hidi ufurib turgan quyuq yomg‘ir pardasi ostida ko‘rinmay qolgan, ko‘z o‘ngida yorug‘ shu’la qora bulutlarni teshib, ko‘zni olgudek yaraqlab chaqnar va bo‘shliqqa tomir otgan yashin bosh ustidan qaldirab o‘tib, bir lahzadan keyin xuddi qiyomat-qoyimdan darak berayot-gandek, dahshat bilan gumburlab portlar edi. Ot dam-ba-dam cho‘chib tushsa-da, kuch bilan olg‘a intilar, it esa qu-loqlarini qisib, jonholatda sakrab-sakrab chopib borardi...

Krasilshikov Moskvada o‘sdi, shu yerda o‘qib, universitetni bitirdi, ammo yozda Tuladagi badavlat xonardonlar-

ni eslatadigan chorborg‘iga kelgach, mujiklar orasidan chiqqan pomeshchik-savdogarga o‘xshab yurishni yoqtirib qoldi va tilla qutichaga solingen sigareta chekadigan, yiltillatib moylangan etik, yonyoqa ko‘ylak, burma kamzul kiyadigan, rus kishisi ekanidan nihoyatda g‘ururlanadigan bo‘lib qoldi. Hozir esa, jala va qaldiroqlar ichida, bosh kiyimi va burnidan tomayotgan sovuq tomchilar g‘ashini keltirayotganiga qaramay, qishloq hayotiga xos qaynoq lazzat og‘ushida sarmast edi. Yoz bo‘yi o‘tgan yilgi saratonda mashhur artist jononga jazmanlik qilib, iyul oyida uni Kislovodskka jo‘natguncha Moskvada daydib yurganini, bekorchilik, jazirama, kesilgan temir bochkalardan burqsib chiqayotgan ko‘kimtir qoramoy tutuni va issiq ko‘lamsiq hidga to‘la o‘nqir-cho‘nqir Moskva ko‘chalarini, Kavkazga otlangan Maliy teatr artistlari bilan Troitskiy nishabligida qilingan nonushtalarni, Tramble qahvaxonasi-dagi rohatijon o‘tirishlarni, so‘ng g‘ilofi olinmagan mebel-lar, qandillar, naftalin hidli dokalarga o‘ralgan suratlarga to‘la xonasida intizorlikda o‘tkazgan tunlarni tez-tez eslay boshlagandi. ... Yozda Moskva oqshomlarining adog‘i bo‘lmaydi, o‘n birlarga borganda qorong‘i tushadi, kutib o‘tiraverasan, o‘tiraverasan, undan esa darak yo‘q. Nihoyat, qo‘ng‘iroq, u ko‘rkam yozgi libosda, nafasi tiqilib zo‘rg‘a gapiradi: „Meni kechir, jonim, kuni bilan boshim og‘rib yotib qoldim, sovg‘a qilgan choygulingniyam chay-nab tashladim, shoshilganidан olifta bir izvoshtchini yollabman degin, o‘lgudek ochman...“

Nihoyat, jala va momaqaldiroq na’rasi pasayib, atrof sal yorishgandan keyin, oldinda, tosh yo‘lning chap tomonida yaqinda xotini o‘lgan keksa meshchan Proninning tanish karvonsaroyi ko‘rindi. Shaharga hali yigirma chadirimcha bor, nafas rostlamasak bo‘lmaydi, o‘yladi Krasil-shikov, ot ko‘pikka botib ketgan, tag‘in nima bo‘lishini

kim bilsin, u tomonlar qop-qorayib yotibdi, chaqmoq chaqshini qarang-a... U yo'lni karvonsaroyga qarab soldi va yog'och darvoza qanotigacha otni yo'rttirib keldi.

– Bobo! – Qattiq qichqirdi u. – Mehmonni qabul qil!

Ammo tunukasi zanglagan yog'och uyning derazalari qop-qorong'i, sas-sado yo'q. Krasilshikov tizginni qoziqqa bog'lab, pillapoyadan soyabonli yo'lakka ko'tarildi, orqasidan loyga belangan, jiqla ho'l iti sakrab chiqdi, uning ko'rinishi vahimali, ko'zлari chaqnab ma'nosiz yaltirardi, – ter bosgan peshanasidagi kartuzni ko'tarib qo'ydi, yomg'irda og'irlashgan chakmonini yechib panjaraga tashladi va kumush to'qali kamar bog'langan yonyoqa ko'ylakda qolib, qora loy sachrab, ola-chipor bo'lib ketgan yuzini artdi, so'ng qamchisi bilan pochasiga yopishgan loylarni urib-urib tushira boshladi. Og'il eshigi ochiq bo'lsa-da, uy ichida hech kim yo'qqa o'xshardi. Mollarga qarashyapti, shekilli, o'yladi u va engashib, yon-atrofga tikildi: jo'nab ketavergan ma'qulmikin? Kechki havo og'ir va namchil edi. Yomg'irda egilib qolgan bug'doyzor tomondan behisob bedanalarning xushxon xonishi eshitilib turardi, jala tingan, ammo tun bostirib kelar, yer-u osmon xo'mraygan zulmat qo'ynida, tosh yo'ldan narida, pastak qoramtilr o'rmon orqasida sovuq bulutlar yanada quyuqlashgan, dam-badam qizg'ish shu'la yoyilib, atrofga yovuz tillarini cho'zardi – Krasilshikov dahlizga o'tdi, qorong'ida paypaslab mehmonxona eshigini topdi. Mehmonxona ham qop-qorong'i va kimsasiz edi, faqat qayerdadir osma soatning chiqillashi eshitilardi. U eshikni taraqlatib yopdi, oyog'ini sudrab borib, xonadagi boshqa eshikni ochdi: hech kim yo'q, faqat issiq, qora shiftga yopishgan mudroq pashshalar norozi bo'lgandek g'uvullashdi.

– O'lib qolishganmi? – ovoz chiqardi u va shu zahoti qorong'ida so'ridan sirg'alib tushayotgan xo'jayinning

qizi – Styopaning bolalarga xos biyron, yoqimli ovozini eshitdi.

– Sizmisiz, Vasil Likseich? Men bir o‘zimman, oqsochimiz dadam bilan urishib, uyiga ketib qoldi, dadam bo‘lsa xizmatkorni olib, ish bilan shaharga ketundi, bugun qaytishi gumon... Momaqaldiroqdan o‘lgudek qo‘rqedim, bir mahal bu yoqqa kimdir kelganini eshitib, o‘takam yorilayozdi... Salom, meni kechirasiz, marhamat qiling...

Krasilshikov gugurt chaqib, uning qora ko‘zlari va qoramag‘iz yuzini yoritdi:

– Salom, tentakkinam. Men ham shaharga ketyapman, mana ko‘rmaysanmi nimalar bo‘layotganini, kutib turay deb kirdim... Sen bo‘lsang, qaroqchilar bosdi deb o‘ylagansanda-a?

Gugurt yonib bitdi; ammo qizning xijolatomuz kulimsirayotgan yuzi, bo‘ynidagi ko‘zmunchoqlari yaqqol ko‘rinib turardi... Bo‘yi Krasilshikovdan ikki baravar kichik, xuddi yosh qizaloqqa o‘xshaydi.

– Hozir chiroqni yoqaman, – dedi qiz shosha-pisha va Krasilshikovning o‘tkir nigohidan battar xijolat bo‘lgancha stol ustidagi chiroqqa qo‘l cho‘zdi. – Sizni Xudo yetkazdi, yolg‘iz o‘zim vahima qilib yotgandim, – u mayin tovushda gapirar ekan, oyoq uchida turib, ehtiyyotkorlik bilan chiroqning kampiragini burab, shishasini chiqardi.

Krasilshikov uning egilib turgan qomatiga tikilgancha boshqa gugurt cho‘pini yondirdi.

– To‘xta, keragi yo‘q, – birdan u gugurtni yerga tashlab, qizning belidan quchoqladi. – To‘xtab tur, qani, menga bir qaragin-chi.

Qiz xavotirlanib, yelkasi osha qaradi, qo‘llarini pastga tushirib, unga o‘girildi. Yigit uni bag‘riga tortdi, qiz qar-

shilik ko'rsatmadi, faqat hayrat va qo'rquv ichida boshini orqaga tashladi. U g'ira-shirada qizning ko'zlariga yuqoridan nazar solar ekan, kulib qo'ydi:

—Yana qo'rqyapsanmi?

— Vasil Likseich... — qiz yalinchoq ohangda zo'rg'a gapirdi va yigitning quchog'idan sekin sirg'alib chiqishga urindi.

— To'xta. Nahotki meni yoqtirmasang? Har kelganimda sevinib ketishingni bilaman-ku...

— Sizdan yaxshi odam dunyoda yo'q, — deb pichirladi qiz haroratlari tovushda. — Vasil Likseich... Xudo haqi, qo'-ying... Otingiz darvoza oldida qolib ketdi-ku! Esingizdan chiqarib qo'ydingizmi?.. Otam kelib qoladi... Qo'ying, kerak emas!

Yarim soatdan keyin u uydan chiqdi, otni hovliga olib kirib, bostirmaga bog'ladi, yuganini chiqardi, hovli o'rtasi-dagi aravadan yangi o'rilgan o't keltirib soldi va charaqlab ochilib ketgan osmondag'i sokin yulduzlarga tikila-tikila ichkariga kirdi. Issiq qorong'ilik og'ushidagi jimjit xonaga hamon olisdan zaif shulalar tushib turardi. Qiz so'ri ustida boshini ko'ksiga solintirib, g'ujanak bo'lib yotar, beixti-yor issiq ko'zyoshi to'kardi. U qizning sho'rtang ko'z-yoshlardan ho'l bo'lgan yuzidan o'pdi, o'ng qo'lida papirosh ushlagancha chalqancha yotib, uning boshini yelkasiga qo'ydi. Qiz indamay, tinch yotardi. U chekib, chap qo'li bilan yuziga tegib turgan parishon sochlarni erkabal siladi... Qiz tezda uxlab qoldi. U qorong'ilikka tikilib yotar ekan, mamnun kulimsirab qo'ydi: „Dadam shaharga ketdi...“ Ketish bunaqa bo'ladi! Yaramas chol darrov bilib ola-di – qotmadan kelgan, jahli tez, qalin qoshi bo'lsa qop-qora, ko'zlar niroyatda o'tkir, o'lgudek ichganda ham aqlini yo'qotmaydi deyishadi...

U uy ichi yorishib, shift bilan pol o'rtasidagi bo'shliq bemalol ko'rinarigan bo'lguncha uxlamay yotdi. Boshini burib, oynaga qarab, ufq yashil tusga kirayotganini ko'rdi, g'ira-shirada stol burchagiga qo'yilgan Iso Masihning bir qo'lini ko'tarib, odamlarga o'tkir nigoh tashlab turgan ulkan suratiga ko'zi tushdi. U qizga qaradi: yonboshlagan ko'yi oyoqlarini yig'ib, sokin uxbab yotibdi. Bechora qizaloq naqadar dilga yaqin...

Osmon batamom yorishib, devor orqasidagi xo'roz birikki qichqirgandan keyin u turishga shaylandi. Sochlari yoyilib ketgan qiz ham sakrab turib, yarim yonboshlab o'tirdi va hech narsani anglamay unga tikilib qoldi.

– Styopa, – dedi u ehtiyyotkorlik bilan. – Vaqt bo'ldi.

– Ketib qolasizmi? – shivirladi u garangsib.

So'ng birdan hushi joyiga keldi, qo'llarini ustma-ust qo'yib, ko'kragiga ura boshladni:

– Qayoqqa ketasiz? Endi sizsiz qanday yashayman?  
Men nima qilaman endi?

– Styopa, men tezda qaytib kelaman...

– Dadam uyda bo'ladi-ku, sizni qanday qilib ko'raman?! Yo'ldan nariga o'tib, jon deb o'rmonda poylab turardim-u, meni uydan tashqariga kim chiqaradi deysiz?

Birozdan keyin u ko'ylagini, kartuzini kiygan, qo'lida qamchi, chiqib kelayotgan quyoshga orqa o'girgan holda so'ri oldida turar, qiz esa so'rida tiz cho'kkani ko'yi bolalarcha ho'ngrab yig'lar, labini xunuk qiyshaytirib, tez-tez gapirar edi:

– Vasil Likseich... Xudo haqi... aziz avliyolar haqi, meni xotin qilib oling! O'lguncha cho'ringiz bo'laman! Ostonangizni supuraman! Oling meni! Jon deb izingizdan ketar edim, meni kim qo'yib yuboradi deysiz?! Vasil Likseich...

– Bas qil! – dedi Krasilshikov keskin. – Tez kunda ke-

lib otangga uchrashaman. Qizingizga uylanaman deyman. Eshitdingmi?

U cho'kkalab o'tirdi, darrov yig'idan to'xtadi, namangan ko'zları yaraqlab ochildi:

– Aldamaysizmi?

– Chin so'zim.

– Poklanish bayramida o'n oltiga to'laman, – dedi u shosha-pisha.

– Ana, demak, yarim yildan keyin nikohdan o'tishimiz mumkin ekan...

Uyga kelishi bilan u narsalarini yig'ishtirishga tushdi, kechqurun uch otli aravada temiryo'lga jo'nadi. Ikki kundan keyin u Kislovodskda edi.

---

yog‘da tuxum qovurish mumkin, ammo kechki ovqatga faqat ozgina sovib qolgan loviya bilan qovurilgan karam qovurdoq bor. Yarim soatdan keyin hamisha mast yuradi-gan xizmatkor qariya bilan otni saranjom qilgan marokashlik oshxonada stolda o‘tirib ochko‘zlik bilan ovqat yeb, oq musallasni yutoqib ichishga tushdi.

Karvonsaroy binosi ilvirab qolgan edi. Pastki qavati pi-chanaxona bo‘lib, oxirida yuqori qavatning ikki tomoniga olib chiqadigan zinapoya bor edi; chapdagi so‘ri qo‘yilgan keng, pastak xona oddiy odamga mo‘ljallangan, o‘ngdagisi ham aynan shunday bo‘lib, bir paytning o‘zida oshxona va yemakxona vazifasini bajarardi, butun shifti va yon tomonlarini dud va qurum bosgan, devorlari qalin, ammo oynalari kichkina edi, bir burchagiga o‘choq qurilib, qo‘pol yog‘och stillar va so‘rilar qo‘yilgan, g‘adir-budur tosh to‘shamasi yillar o‘tib silliqlanib ketgan edi. Shiftga osig‘liq zanjiri qoraygan kerosin lampa tutab yonar, moy va qizdirilayotgan yog‘ hidi anqib turardi – kampir o‘choqqa olov yoqib sovib qolgan qovurdoqni isitar va quymoq pishirardi; mehmon esa sırka bilan yashil zaytun yog‘iga aralashtirilgan yaxna loviyani tushirardi. U kiyimlarini yechmagan, mursagi ham yelkasida turar, yo‘g‘on charm boshmoq ichidagi oyoqlarini bor bo‘yicha uzatib yuborgan, to‘pig‘iga o‘ralgan oq jun cholvorini qo‘njiga tiqib qo‘ygandi. Qizaloq kampirga qarashib imirsilanib yurar va erkakning o‘ziga tez-tez qadalayotgan o‘tkir nigohi, quruqshagan cho‘tir yuzidagi ko‘kimir tomirlari va ingichka labiga ko‘zi tushganda, qo‘rqanidan g‘alati bo‘lib ketardi. Chindan ham erkakning vajohati qo‘rqinchli edi. Nihoyatda baland bo‘yi keng mursakda yanada haybatli ko‘rinar, popukli do‘ppi ostidagi kallasi esa kichrayib qolganga o‘xshardi. Yuqori labining chekkalarida qattiq qora tuklar dikkaygan, ana shunday bir-ikki tuk iyagidan ham chiqqan edi. Boshini xiyol orqa-

ga tashlaganida, kekirdagi oldinga do‘ppayib chiqib, uni yanada xunuk ko‘rsatardi. Uzun, qoramitir barmoqlaridagi kumush uzuklari oqish tus olgan edi. U yer, ichar, ammo negadir indamay o‘tirardi.

Kampir qovurdoqni isitib, quymoqni pishirib bo‘lgach, cho‘g‘i o‘chgan o‘choq yonidagi so‘riga horg‘in cho‘kdi va undan qayerlik bo‘lasan, qayerga ketyapsan, deb qichqirib so‘radi, erkak xirildoq ovozda qisqa javob berdi:

— Uzoqqa.

U qovurdoq va quymoqni yeb bo‘lgach, bo‘shagan may ko‘zachasini silkitib ko‘rdi, — qovurdoqqa qalampir ko‘p solingandi, — kampir qizchaga boshi bilan imo qildi. Qiz ko‘zachani oldi va pichanxona eshigini ochib, tilla qo‘ng‘izlar ohista suzib, g‘alati yog‘du sochayotgan tun qa‘rida g‘oyib bo‘lgach, u ko‘krak cho‘ntagidagi qutidan papiros olib tutatdi va yana boyagidek qisqa gap qotdi:

— Nevarangmi?

— Jiyanim, yetimcha, — kampir qichqirib, marhum aka-si — qizchaning otasini qanchalik yaxshi ko‘rganini va uni deb qizligicha o‘tib ketayotganini, bu karvonsaroy uniki bo‘lganini, o‘n ikki yil oldin kelini, sakkiz yil oldin aka-si vafot etganini va butun mol-u mulki o‘ziga qolganini, odamlar kamayib borayotgan bu shaharchada ishlari yurishmayotganini gapirib berdi...

Marokashlik papiros chekib, xayolga cho‘mgan holda parishon tingladi. Qizcha ko‘zachani to‘ldirib yugurib kel-di, u qizni ko‘rgach, papiros qoldig‘ini qattiq so‘rib, uzun qora barmog‘i uchini kuydirib oldi, shosha-pisha yangi papiros tutatdi va kampirga baland ovozda, — qulog‘i og‘irligini sezgan edi, — ma’nodor qilib:

— Agar jiyaning mayni o‘z qo‘li bilan quyib bersa, juda mamnun bo‘lardim, — dedi.

– U bunday qilmaydi, – shartta kesdi kampir, so‘ng ezmalikni bas qilib, lo‘ndasiga o‘tdi va jahl aralash qichqirdi:

– Kech bo‘lib qoldi, musallasingni ichgin-u, borib yot, u hozir boloxonada senga o‘rin solib beradi.

Qizning ko‘zlar charaqlab ketdi, buyruqni kutib o‘tirmasdan sakrab turib, zinapoyadan chopqillab yuqoriga chiqib ketdi.

– Ikkalangiz qayerda uxlaysizlar? – so‘radi marokashlik va ter bosgan peshonasidan do‘ppini sal nari surib qo‘ydi.

Kampir yozda, u yer juda issiq bo‘ladi, mijozlar yo‘q paytlarda – hozir ular butunlay yo‘q! – pastki qavatda, mana shu yerda yotamiz, deb qichqirib, qo‘li bilan pichanxona ro‘parasidagi hujrani ko‘rsatdi va tag‘in ishlari yurishmayotganidan shikoyat qilishga tushdi: hamma narsa qimmatlashib ketyapti, shuning uchun qo‘noqlardan ko‘proq haq olishdan boshqa ilojimiz yo‘q...

– Erta tongda yo‘lga tushaman, – dedi marokashlik kampirning gaplariga deyarli qulq solmasdan. – Ertalab faqat qahva bersang bo‘ldi, hisob-kitob qilamiz. – Qaraylik-chi, mayda pullarim qayerda ekan, – qo‘shib qo‘ydi u va mursagi ichidan yumshoq qizil charm hamyonini chiqarib, bo‘g‘zidagi bog‘ichini yechdi, oltin tangalarni stol ustiga sochib, o‘zini go‘yo ularni diqqat bilan sanayotgandek ko‘rsatdi, kampir esa tangalarni ko‘rganda ko‘zi o‘ynab, o‘choq yonidagi so‘ridan turib ketdi.

Boloxona qorong‘i va juda issiq edi. Qizcha tirqishlaridan yorug‘ nur tushib turgan dim, qaynoq xonaga kirib, dumaloq stol yonidan tez yurib o‘tdi va pastdagi kichik oynalarni eslatadigan deraza tabaqalarini to‘lin oy nur sochib, yulduzlar siyrak ko‘rinayotgan tarafga qarab ochib yubordi. Mayin havo kirib, nafas olishi yengillashdi, vodiydan jilg‘a ovozi eshitildi. Qizcha osmondagи eng baland nuqtaga ko‘tarilgan to‘lin oyni ko‘rish uchun gavda-

sini derazadan chiqardi; so‘ng pastga nazar tashladi, hovlida iti tumshug‘ini ko‘tarib unga qarab turardi, besh yil oldin, kimdir adashtirib karvonsaroyga tashlab ketgan bu kuchuk uning ko‘z o‘ngida o‘sib-ulg‘aygan va faqat itlardagina bo‘ladigan ulkan sadoqat tuyg‘usi bilan unga qattiq bog‘lanib qolgan edi.

– Negra, – shivirlab xitob qildi qizcha, – nega uxlama-yapsan.

It asta ingillab, tumshug‘ini ko‘tardi va pichanxona-ning ochiq eshigiga qarab intildi. – Qayt! Qayt! – jonholatda shivirlab buyruq berdi qizcha. – Joyingga bor!

It to‘xtab tumshug‘ini ko‘tardi, ko‘zlarida qizg‘ish uch-qun yarqiradi.

– Senga nima kerak? – erkalab xitob qildi qizcha, u har doim it bilan xuddi odamdek gaplashardi. – Nega uxlama-yapsan, tentak? Oy bezovta qilyaptimi?

It xuddi javob qaytarmoqchi bo‘lgandek, tumshug‘ini tag‘in yuqori ko‘tardi va yana sekin ingilladi. Qizcha yelkassini qisdi. It qizning ham jon-u diligiga aylangan, dunyoda eng yaqin, yagona do‘sti bo‘lib qolgan edi. Hatto u nimani xohlayotganini sira adashmay anglab olaverardi. Ammo hozir it nimani istayotganini, nimadan bezovta bo‘layotganini bila olmadi, shu tufayli barmog‘ini o‘qtalib qattiq ogohlantirdi va shivirlab jahł aralash keskin buyruq berdi:

– Joyingga bor, Negra! Uxla!

It yotdi, qizcha yana bir necha daqiqa deraza oldida turib qoldi... balki, anavi qo‘rquinchli marokashlik g‘ashiga tegayotganmikan? Odatda, it karvonsaroyga keluvchilarni indamay qarshilar, hatto qaroqchi-yu, ta’qibdan qochib yurganlarga ham e’tibor bermas edi. Shunga qaramay, negadir ba’zi-ba’zida ayrim odamlarni ko‘rganda momaqal-diroqdek na’ra tortib tashlanib qolar, shunday paytlarda uni faqat qizchagini tuxtata olardi. Kim bilsin, issiқ havo,

qilt etgan shabada yo‘qligi va ko‘zni qamashtiradigan oydin tun uni junbishga solib, darg‘azab qilayotgandir? Favqulodda sokin kechayotgan tunda vodiydagi jilg‘a-ning shovqini baralla eshitilar, og‘ildagi taka besaranjom bo‘lib, tuyog‘ini dukurlatar, karvonsaroyning qari xachiri yo marokashlikning oti uni bexosdan bosib oldimi, kim bilsin, u bor ovozi bilan ayanchli hangrab faryod solar va bu shaytoniy nola sukunat olamini buzib, atrofga taralar edi. Qizcha shod-xurram kayfiyatda oynadan uzoqlashdi va boshqa deraza tabaqalarini ham oolib qo‘ydi. Qorong‘i xona yorishgandek bo‘ldi. Bu yerda stoldan tashqari devor bo‘ylab qo‘yilgan keng uchta karavot ham bo‘lib, ularning ustiga dag‘al choyshablar yopilgan edi. Qizcha kiraverishdagi birinchi karavot choyshabini surib, bosh tarafini to‘g‘rilayotganda, xona xuddi ertaklardagidek tiniq, ko‘kimdir mayin shu’la bilan yorishib ketdi: tillaqo‘ng‘iz peshana gajagiga kelib qo‘ngan edi. Unga sekin qo‘lini tegizdi. Tillaqo‘ng‘iz bir miltillab ko‘rinib, bir ko‘rinmay yana xona bo‘ylab uchib ketdi. Qizcha ohista xirgoysi qilib pastga tushdi.

Oshxonada marokashlik tik turib, kampirga past ovozda, ammo qat’iyat va jahl bilan nimanidir uqtirar, kampir rad etib, boshini chayqar edi. Marokashlik yelkasini qisdi va tund qiyofada ichkariga kirib kelgan qizchaga o‘girildi, qiz beixtiyor o‘zini chekkaga oldi.

- Joy tayyormi? – xirillab qichqirdi marokashlik.
- Hammasi tayyor, – shosha-pisha javob berdi qizcha.
- Men qayerga borishni bilmayman. Kuzatib qo‘y.
- O‘zim ko‘rsatib qo‘yaman, – dedi kampir jahl bilan, – Men bilan yur.

Qizcha kampir tik zinadan turtinib ohista ko‘tarilayotganini ko‘rib, izidan borayotgan marokashlikning boshmog‘i qanday to‘qillayotganini eshitib turdi, so‘ng tash-

qariga chiqdi. Ostonada cho‘zilib yotgan it shu zahotiyoy sakrab turdi va quvonchdan silkinib, uning yuziga suykalди.

– Tek tur, tek tur, – qizcha shivirlab uni erkalagan ko‘yi nari itardi va ostonaga o‘tirdi, it ham qarshisiga kelib cho‘qqaydi, qizcha uni bo‘ynidan quchoqlab, peshanasi dan o‘pdi va u bilan birga tebranib, marokashlikning boloxonadan eshitilayotgan xirildoq ovoziga quloq tutdi. U endi kampirga nimalarnidir xotirjam uqtirmoqda edi, ammo gapini anglab bo‘lmasdi. Nihoyat, uning qattiq ovozi yetib keldi:

– Mayli, yaxshi, yaxshi! Faqat kechasi ichishimga suv keltirib bersin.

Zinadan ohista tushib kelayotgan kampirning qadam tovushlari eshitildi.

– U nima deganini eshitdim. Yo‘q, men uning oldiga bormayman. Undan qo‘rqaman.

– Bekorlarni aytibsан! – baqirdi kampir. – Bundan chiqdi, sen mana shu to‘mtoq oyoqlarim bilan qorong‘ida sirg‘anchiq zinadan yana chiqishimni xohlaysanmi? Uning qo‘rqadigan hech narsasi yo‘q. Faqat u juda ahmoq va tajang, ammo ko‘ngilchan yigit. Senga achinishini aytди, kambag‘al qiz ekan, sepsiz qizni hech kim xotinlikka olmaydi, dedi. To‘g‘ri aytади, sepni qayerdan olarding? Axir butunlay xarob bo‘ldik. Qashshоq odamlardan boshqa kim ham keladi bu yerga?

– Meni ko‘rib, nega birdan achchig‘lanib ketdi? – so‘radi qizcha. Kampir chimirildi.

– Nimalar deyapsan? – po‘ng‘illadi u. – Men unga birovning ishiga burningni tiqma, dedim... Shunga xafa bo‘ldi. – So‘ng jahl bilan baqirdi:

– Qani, bor endi, unga suv berib kel. Buning uchun senga bir nima beraman deb va’da qildi. Bor deyapman!

Qizcha suv to‘la ko‘zachani ko‘tarib, ochiq eshikdan kirib borganda, marokashlik yechinib, karavotda cho‘zilib yotar, oyning g‘ira-shira yorug‘ida qirg‘iy ko‘zlar, silliq qirilgan kichkina boshi yaqqol ko‘zga tashlanardi. Xona o‘rtasidagi stolda tig‘i uzun, o‘qdoni katta revolver yaltirar, narigi karavotda ustki kiyimlari oppoq tepa bo‘lib uyulib yotar edi. Bularning hammasi vahimali ko‘rinardi... Qizcha yugurib kirib, ko‘zachani stolga qo‘ydi va zing‘illab iziga qaytdi, ammo marokashlik sakrab turib, uning qo‘lidan ushlab oldi.

– To‘xta, to‘xta, – u tez gapirib, qizni karavotga tortdi, o‘zi turib o‘tirdi va qizning qo‘lini qo‘yib yubormasdan shivirladi: – Yonimda bir daqiqa o‘tir, o‘tir, quloq sol... faqat quloq sol...

Dovdirab qolgan qiz noiloj o‘tirdi. Erkak bir ko‘rishdayoq uni sevib qolganini aytib, shosha-pisha qasam ichishga tushdi, bir bo‘sса uchun o‘nta tilla tanga... yigirma-taga berishga tayyorman, ulardan menda bir xalta bor, deb yostiq ostidan qizil charm xaltachani oldi va titragan qo‘llari bilan bog‘ichni yechdi; choyshab ustiga oltinlarni sochib, g‘o‘ldiradi:

– Mana, ko‘rdingmi ular menda qancha?.. Ko‘rdingmi?

Qizcha keskin bosh silkitib, karavotdan turdi. Marokashlik qizni yana tutib oldi va qattiq changali bilan og‘-zidan ushlab, karavotga uloqtirdi. Qizcha jon achchig‘ida qo‘lini tortib oldi va kuchi boricha:

– Negra! – deb qichqirdi.

Erkak yana qizning og‘zi-burnidan siqib ushlab, qo‘li bilan qizning sochini silamoqchi bo‘ldi, qiz yulqinib bir tepdi, u beixtiyor qornini changalladi va shu daqiqada zi-napoyadan bo‘ron shiddati bilan uchib chiqayotgan itning sharpasini eshitdi.

U sakrab turib, stoldan revolverni oldi. Lekin tepkini ushslashga ham ulgurmadi, kuchli zarbadan polga ag‘darilib tushdi. Og‘zini katta ochib ustiga tashlangan itning olov nafasi dimog‘iga urildi, qo‘li bilan yuzini berkitib ag‘anar ekan, engagi xiyol ko‘tarilib ketdi va it bir hamladayoq uning kekirdagini uzib oldi.

## BAHORDA – IUDEYADA

Meni bir umrga mayib, oqsoq qilib qo‘ygan bu voqeа аynи navqiron yigitlik chog‘imda, olis Iudeyada yuz bergen edi, – deb hikoyasini boshladi baland bo‘yli, qomati kelishgan, yuzlari sarg‘imtir, qo‘y ko‘zлari yaltirab turadigan, jingalak kalta sochlari oqargan kishi. Chap tizzasi bukilmaganidan, u doim qo‘ltiqtayoqda yurar edi.

– U paytda o‘lik dengizning chap qирg‘og‘ida – afsonaviy Sodom va Gomorrada ish olib borayotgan tadqiqot guruhiga a’zo edim, Istanbulda ushlanib qolgan sheriklarimni kutib Quddusda yotardim va vaqtı-vaqti bilan Iyerixon yo‘lidagi badaviylar qo‘nalг‘asida yashovchi shayx Aidning oldiga borib turardim; safarga kerakli hamma narsani topib berish va yo‘lboshlovchilik qilishni zimmasiga olgan bu kishini menga qudduslik arxeologlar tavsiya qilishgandi. Birinchi kun bir kishi yo‘l ko‘rsatib bordi, maslahatlashib, gapni pishtib qaytdim, ertasi kuni uning o‘zi Quddusga keldi; shundan so‘ng manzilini yolg‘iz topib boradigan bo‘ldim, minishga chiroyli baytalini sotib oldim, keyin u tomonga kunda, kun ora qatnay boshladim... Ko‘klam fasli edi. Iudeya saxiy quyosh nurlariga g‘arq bo‘lgan, „Qo‘shiqlar qo‘shig‘i“da aytigelanidek: „Qish o‘tib ketdi, zamin gulga to‘ldi, qo‘shiq kuylash davri keldi, mayna soz chaladi, gul-lagan uzum novdalari muattar bo‘y taratadi“. Toshloq Iudeya sahrosidan o‘tadigan ko‘hna Iyerixon yo‘li har galgidek kimsasiz, tashlandiq bo‘lib, garmsel va qum ko‘z ochir-

masdi. Ammo bu charog‘on bahor kunlarida men o‘zimni nihoyatda baxtiyor, shod-xurram his qilardim; Sharqqa birinchi marta kelishim, misliyo‘q yangi bir dunyoni o‘z ko‘zlarim bilan ko‘rmoqda edim, bu dunyoda yana bir mo‘jiza – Aidning jiyani ham bor edi.

Urdun vodiysigacha cho‘zilib ketgan Iudeya sahrosining o‘zi bir olam, unda-bunda tikanak butalar o‘sib, ilonlar va kakliklar makon qurgan chag‘ir toshli qumloq tepaliklar, yaydoq qirlar abadiy sukutga cho‘mib yotadi. Iudeyada butun qish bo‘yi yomg‘ir yog‘ib, muzdek shamollar esadi; bahor, yoz, kuzda yana bir xil manzara va qabriston jimligi hukmron, ammo hamma yerda jazirama issiq, mudroq sukunat.

Quduqlari bor kichik daralarda badaviylar manziliga xos izlar: gulkandan qolgan kul, chodirlarni tikish uchun doirasimon yoki to‘rtburchak qilib taxlangan qator toshlar ko‘zga tashlanadi... Men boradigan shayx Aidning manzili ham tepaliklar orasidagi keng qumli o‘tloqqa joylashgan, sariq qumlar qo‘ynida nihoyatda xunuk ko‘rinadigan qora namatdan yapaloq yoki to‘rtburchak shaklda qurilgan bir necha o‘tovdan iborat edi. Bu yerga kelganimda har gal chodirlar oldida tutab yotgan tezak uyumini ko‘rar edim, chodirlar orasi tor: hamma yerda itlar, otlar, xachirlar, echkilar – ularni qayerda va qanday boqishadi – haligacha buni bilmayman, bir to‘da yalang‘och, qora-qura, jingalaksoch bolalar, ba’zilari lo‘lini, boshqlari zanjini eslatadigan, ammo lablari yupqa xotinlar va erkaklar uymalashib yurishardi...

Ularning kiyimlari ham juda g‘alati: jazirama issiq bo‘lishiga qaramay, erkaklar tizzagacha tushadigan qalin ko‘ylak, paxtali kamzul, uning ustidan esa ola-bula jundan – oq va qora rangda yo‘l-yo‘l qilib tikilgan, yelkalari keng, uzun va og‘ir qabo kiyishadi: boshlariga bir uchi

yag‘riniga tashlangan, chekkalariga yana ola-bula enli jun ipak ip ikki marta aylantirib bog‘lab qo‘yilgan qizil hoshiyali yo‘l-yo‘l sariq ro‘mol – kefiyya o‘rab olishadi. Ayollarning kiyimi ularnikiga tamomila qarama-qarshi: boshlariga kubsimon ro‘mollar tashlab yurishadi, yuzi ochiq, egnida kubsimon uzun ko‘ylak, o‘tkir uchli yengi oz bo‘lmasa yerga tegay deydi, erkaklarning oyog‘ida nag‘al qoqilgan qo‘pol boshmoqlar; ayollar yalangoyoq yuri-shadi, boldirlari biram ajoyib. Erkaklar chilim chekishadi, ayollar ham...

Qo‘nalg‘aga ikkinchi marta yo‘lboshlovchisiz yolg‘iz o‘zim kelganimda meni yaqin do‘sstaridek kutib olishdi. Aidning chodiri hammanikidan katta edi, men bu yerda – ichkariga kirish uchun etagi ko‘tarib qo‘yilgan qora namat chodir yonida qator o‘tirgan bir to‘da keksa badaviylarga duch keldim. Aid istiqbolimga chiqdi, o‘ng qo‘lini labi va peshbandiga tegizib, ta’zim qildi. Chodirga meni o‘zidan avval o‘tkazdi. Ichkari kirgach, chodir o‘rtasiga solingan gilamga o‘tirishini kutib turdim, so‘ng men ham unga o‘xshab o‘ng qo‘limni labim va peshonamga tegizib o‘tir-gan odamlarning hammasiga ta’zim qilib chiqdim, keyin Aidning yoniga o‘tirib yana shu harakatlarni takrorladim, albatta, menga ham shunday javob qaytarishdi. Faqat xo‘ja-yin ikkimiz qisqa va ohista gaplashib o‘tirdik, odat shuni taqozo etardi, bundan tashqari, hali men jonli arab tilini yaxshi bilmasdim, boshqalar chekar va sukut saqlashar-di. Chodirdan tashqarida menga va mehmonlarga ziyofat tayyorlashmoqda edi. Odatda, badaviylar xibiz – zog‘ora non va echki sutida pishirilgan bug‘doy yormasi iste‘mol qilishadi... Mehmonni esa xaruf – qumda qazilgan va tezak yoqiladigan o‘choqda pishirilgan qo‘y go‘shti bilan siyla-shadi. Taomdan keyin har doim qand solinmagan qahva tortishadi. Hamma bemalol yeb-ichib o‘tirar, namat cho-

dirdan tashqarida esa xuddi do‘zax alangasidek garmsel ufurib turar, Chodirning keng ochib qo‘yilgan tirqishidan sahroga qarashning o‘zi meni dahshatga solardi: olisdagi yaltiroq qumlar odamning ko‘ziga xuddi suzib ketayotgan-ga o‘xshab ko‘rinardi. Shayx har bir so‘zidan keyin menga xoja – janob deb murojaat qilar, men ham uni muhtaram badaviy shayx, ya’ni sahro o‘g‘li, deb atar edim. Darvoqe, Urdun arabchasiga qanday atalishini bilasizlarmi? Juda oddiy: Shariat – bor-yo‘g‘i suvloq joy degani.

Aid ellik yoshlarga borgan, past bo‘yli, suyagi ingicha, ozg‘in bo‘lsa-da, chayir; yuzi – pishirilgan g‘ishtning o‘zi, kulrang tiniq ko‘zлari o‘tkir, oqara boshlagan qattiq kumush cho‘qqi soqoli va mo‘ylovi yaxshilab kuzalgan, – badaviylar soqol-mo‘ylovga alohida e’tibor berishadi, – boshqalar singari nag‘al qoqilgan katta boshmoq kiygan edi. Quddusda oldimga kelganida belbog‘iga xanjar taqib, uzun miltiq ko‘tarib olgandi.

Jiyanini o‘sha „do‘st“ bo‘lib borganimda ko‘rdim, u boshidagi katta mis ko‘zani o‘ng qo‘li bilan ushlagancha, chodir yonidan qaddini tik tutib o‘tib ketgan edi. Necha yoshdaligini bilolmadim, chamasi, o‘n sakkizdan oshmagandi, bundan to‘rt yil oldin erga tekkani va shu yildayoq beva qolgani, bolasi yo‘qligini, tog‘asining chodiriga g‘irt yetim va qashshoq holda qaytib kelganini keyinchalik bilib oldim. „Ko‘zingga qara, Sulamif!“ – deb o‘yladim men. (Axir Sulamif ham aynan shunga o‘xshagan edi. „Quddusning qizlari, men qora va chiroyliman“.) U chodir yonidan o‘tayotib, boshini salgina burib, menga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi: bu ko‘zlar favqulodda qop-qora, sirli edi. Qoracha yuzlari, qalin binafsharang lablarini ko‘rishim bilanoq maftun-u lol bo‘lib qoldim... Faqt shular deysizmi! Butun qiyofasi meni mahliyo qilib qo‘ydi: mis ko‘zani qattiq ushlagan qo‘llari yelkasigacha yalang‘och, uzun kub-

simon ko‘ylak ostida ohista to‘lg‘anib ketayotgan xipcha qomati... Bu ham yetmagandek, ikki-uch kundan keyin uni Quddusda – shundoqqina Yaff darvozasi yonida uchratib qolsam bo‘ladimi! U olomon orasida men tomonga yurib kelar, boshida qandaydir tugun ko‘tarib olgan edi. Meni ko‘rib, to‘xtadi. Darhol oldiga bordim.

– Meni taniyapsanmi?

U bo‘sh turgan chap qo‘li bilan yelkamga salgina turtib quyib, jilmaydi:

– Tanidim, xojam.

– Nima olib ketyapsan?

– Echki pishlog‘i...

– Kimga?

– Hammaga.

– Demak, sotar ekansan-da? Unda menikiga olib bora qol.

– Qayerga?

– Mana bu yoqqa, mehmonxonaga...

Men Yaff darvozasining shundoq yonidagi baland ensiz binoga joylashgan edim, u kichkina maydonning chap tomonidagi boshqa uylar bilan tutashib, zinapoyalarga to‘la qorong‘i, ba’zi joylari tim yoki ko‘hna gumbazlar bilan yopilgan, qadimiy ustaxonalar va do‘konlar qalashib ketgan „Shoh David ko‘chasi“ga ulanib ketgan edi. U hech qanday qarshilik ko‘rsatmasdan oldinga o‘tdi va egri-bugri, tor tosh zinapoyalardan xiyol oldinga engashgan ko‘yi xipcha qomatini erkin tutib yurib ketdi, ro‘molchadagi pishloqni naridan beri nomigagina ushlab olgan o‘ng qo‘li yalang‘och bo‘lib, yelkasiga tushib turgan qora sochlari ko‘zni o‘ynatar edi. Burilishdagi zinapoyalardan birida to‘xtadi: u tomonda, qo‘shti uylarning tutash to‘rtburchak devorlari ostida xuddi quduqdagi kabi ko‘kimtir suv – ayni o‘sha suv – shoh Davidni asir-u lol etgan Uriyaning xoti-

ni Virsafiya cho'milgan ko'hna „Avliyo Yezikil shalolasi“ yarqirab ko'riniib turar edi. U to'xtar ekan, oynaga qaradi, so'ng o'girilib, maftunkor ko'zlar bilan menga shodon nazar tashladi. Biz bir-birimizga uzoq termilib qoldik. Qiz yuragimdan urgandi. Biz uzoq vaqt sayr qildik, suhbatlashdik, ketar chog'ida:

- Yana qachon pishloq olib kelasan? – deb so'radim.
- U boshini ohista liqillatdi:
- Yaqin kunlarda kelolmayman.

Shunday deb besh barmog'ini ko'rsatdi: besh kundan keyin. Ikki hafta o'tgach, Aidning oldidan qaytayotib, manzildan ancha uzoqlashganimda, orqamdan miltiq ovozi eshitildi va yonimdag'i toshga o'q kelib urildi, zarb shunday kuchli ediki, hatto toshdan tutun chiqib ketdi. Men egarga engashib, otga qamchi bosdim, ikkinchi marta miltiq qarsilladi, chap tizzamga nimadir qattiq tekkanini sezdim. Quddusga yetguncha otni to'xtatmadim, bir vaqt engashib qarasam, etigimdan qon ko'piklanib oqmoqda edi... Aid qanday qilib ikki martada ham mo'ljalga urolmaganiga hali-hali hayron qolaman. Yana jiyani menga pishloq sotayotganini qayerdan bilib olganiga hamon aqlim yetmaydi...

## ILTIFOTLI ISHTIROK

Moskvada, deylik, Molchanovkada „imperatorlar teatrining sobiq artisti“ istiqomat qiladi. So‘qqabosh, yoshi o‘tgan, yuzi yapasqi, qotmadan kelgan. Ashuladan saboq beradi. Hech bir yil yo‘qliki, ayni dekabr oyida bu ayolning boshiga bitta ish tushib turmagan bo‘lsin.

Bir kuni yakshanbada, ya’niki, juda sovuq, quyoshli tongda, dahliz tomondagi qo‘ng‘iroq jiringladi.

— Anna! Eshikka qara! — hadiksirabgina qichqirdi u oshpaz ayolga, yotoqxonadan turib.

Oshpaz ayol eshikka shoshildi, borib ochdi va o‘zini biroz orqaga oldi — ro‘parasida bashang kiyangan, yasan-tusanni o‘rniga qo‘ygan mehmonlar — mo‘ynaga burkangan, oq qo‘lqopli ikkita oyimtila, egniga yalangqavat shinel il-gan, oyog‘ida ich-ichigacha muz o‘tib ketgan yupqa poyab-zal — po‘rim talaba turardi. Talaba mehmonlarga shunchaki hamrohlik qilgani o‘z-o‘zidan ayon edi.

Oynadagi muz naqshlar orasidan o‘tib, ichkariga g‘irashira yog‘du taralib turgan qahraborang sovuq mehmonxonada mehmonlar uzoq kutib qolishdi, so‘ng uy bekasining ildam qadam tovushlari eshitildi va ular peshvoz chiqish uchun shosha-pisha o‘rinlaridan qo‘zg‘alishdi. Nima gapligidan xabardor ayol juda hayajonda — yuziga quyuq qilib upa surtib, yirik, qoqsuyak qo‘llariga atir purkab olgandi...

— Sizlarni kuttirib qo‘yganim uchun, Xudo haqi, meni

afv etinglar, – dedi u, shoshib chiqqanidan yurak urishiga zo‘rg‘a bardosh bergancha jozibali tabassum va oqsuyak-larga xos xotirjamlik bilan.

– Tashvishga qo‘yganimiz uchun bizni afu eting, – dedi talaba uning so‘zini bo‘lib va o‘zgacha izzat-ikrom ila yal-toqlangancha uning qo‘lini o‘pa turib, – huzuringizga biz-dan muruvvatingizni darig‘ tutmassiz degan umidda tashrif buyurgandik. An’anaviy adabiy-vokal-musiqa oqshomi-ni uyuştiruvchi qo‘mita bizga iltifot ko‘rsatib, beshinchi Moskva gimnaziysi tarbiyalanuvchilarining foydasiga, rojdestvo bayramining uchinchi kuni o‘z iltifotli ishtiroki-ningiz bilan ushbu oqshomda qatnashishingizni sizdan ilti-mos qilishni topshirdi

– Janoblar, mümkin bo‘lsa, meni shundan xálos et-sangiz! – maftunkorlik bilan gap boshladi ayol. – Gap shun-daki...

Biroq oyimtillalar ayolni shunaqangi muloyimlik va odob bilan, shunaqangi hamjihatlik ila o‘rtaga olishdiki, shugina bir үринishdayoq u hatto bosh tortishni qo‘yave-ring, bir og‘iz yo‘q deyishga ham botinolmayotgandi...

Shu voqeadan so‘ng oradan rappa-raso uch hafta o‘tdi.

Shu uch hafta ichi Moskva ishlaydi, savdo-sotiq bi-lan shug‘ullanadi, vaqtichog‘lik qiladi, biroq o‘zining eng rang-barang barcha yumushlari-yu qiziqishlari va o‘yinkulgilari orasida u faqat birgina muhim 27-dekabr kechasi ni pinhona kutib yashardi. Shaharning har bir chorrahasida barcha rang va o‘lchamdagи son-sanoqsiz afishalar ko‘zga tashlanardi: „Tubanlikda“, „Ko‘k qush“, „Uch opa-singil-lar“, „Suv parisi“dagi Shalyapin, „Qorqiz“dagi Slobodov, Shor, Kreyn va Erlix, Zimin operasi, Igor Severyanin ke-chasi... Biroq endi beshinchi Moskva gimnaziyasining tarbiyasi qoniqarsiz o‘quvchilari foydasiga o‘tkaziladigan adabiy-vokal-musiqa oqshomining iltifotli ishtirokchi-

si ismi sharifi katta-katta harflar bilan yozilgan mo‘jazgina afishadan ko‘z uzib bo‘lmasdi. Bu vaqt ichida ishtirok-chining o‘zi unga ko‘z tutib turgan Moskvaning ishonchini oqlash uchun tinmay, astoydil ishlardi – goh uni, goh buni, yana boshqasini yodga solar, kuylaydigan qo‘shig‘ini saralardi, ovozini sinovdan o‘tkazardi... Endi kunlar favqu-lodda tez o‘tib borar va bu tezlik uni vahimaga solardi: bu dahshatli kecha ko‘z ochib-yumguncha kelib qoladi!

Ayol dars berishni to‘xtatdi va hech kimni qabul qilmadi, ko‘ksuv yoki, tumov yuqtirib olmaslik uchun o‘zi ham uydan tashqariga chiqmadi. Tomoshabinlarga niman ni taqdim etsa ekan? Bu savolga javob topish hatto o‘z ishining ustasi bo‘lgan artist uchun ham qanday mushkul ekanini odamlar qaydan bilsin! Bu yerda nechog‘lik sez-girlig-u nechog‘lik did, tajriba va uddaburonlikni ko‘rsata bilish kerak. Uzoq va mashaqqatli shubha-gumonlardan, ikkilanishlardan so‘ng ayol eski, o‘zining ajralmas reper-tuarida to‘xtadi va muammo, har holda, o‘z yechimini top-gandek bo‘ldi – tasdiqdan yana o‘sha uchta narsa o‘tdi: biri – haddan ziyod baxtga tashna va baxtdan taqvodorlar-cha yuz o‘girgan mehribon ayol qalbining kuchi va dardi, undagi pinhona ehtiros, alladek yoqimli, ma’yus fransuz-cha maftunkor qo‘shiq; boshqasi – tovushdag‘i ohangdor-likning bor go‘zalligini va rusning jasoratini namoyon etuvchi qo‘shiq; va nihoyat – har doimgidek alohida hayrat-ga solishi mumkin bo‘lgan va „shavq bilan“, yoshlardek, sho‘x-o‘ynoqi ijro etilib, yana xuddi shunday shiddat bi-lan qarsaklar zarbidan butun tanobiyni larzaga keltirgudek eng yuqori, ingichka ovozda keskin tugallanuvchi uning: „Men sendan bo‘sа olgan bo‘lardim, biroq oyni ko‘rib qo-lishdan qo‘rqaman“ shoh qo‘shig‘i! Bundan tashqari ayol, tomoshabinlar talabiga binoan, o‘n ikkita narsaga tayyor-garlikni boshlab yuborgandi... Kunlar ko‘z o‘ngida bir-

birini quvlab lip-lip o‘tib borar va uning qalbida o‘zining vaqt soati yaqinlashib qolganini sezdiruvchi tuyg‘u yetilib kelayotgandi. Biroq u tinim bilmay ishlardi. Mana, oxiri o‘sha so‘nggi, hal qiluvchi kun ham yetib keldi.

27-dekabr kuni erta tongdan u jonini jabborga berib ishladi. Ertalab yana bitta, eng so‘nggi tayyorgarlik ko‘riladi. U endi estradada kuylagandek ovozni baralla qo‘yib, bor san’atkorona ta’sirchanlik bilan kuylar, dasturning boshidan oxirigacha cholg‘uvchi unga hamrohlik qilardi – va u mehnatlari zoye ketmaganini his etdi! Biroq oqshom uni nima kutyapti – Xudo biladi. G‘alabami yoxud halokat? Uning yuzi o‘tday yonar, qo‘llari esa muz edi... Mashqlardan so‘ng u o‘z yotoqxonasiga yo‘l oldi, yechindi va o‘ringa yotdi. Annushka unga odatdan tashqari qandaydir baliqning donador ikrasini, sovuq jo‘ja va o‘tkir sharob olib keldi: barcha katta artistlar sahnaga chiqish oldidan mana shu tarzda nonushta qilishardi. Tamaddi qilib bo‘lgach, u pardalarni berkitib chiqib ketishni va uyda mutlaqo tinchlik saqlashni tayinladi-da, ko‘zini yumdi, qorong‘ida, biron-bir harakatsiz kechqurungi oltigacha bir, ikki, uch soat hech nimani o‘ylamay, hech nimadan hayajonlanmay yotdi. Oltida sapchib turdi; dahliz qo‘ng‘irog‘ining yoqimsiz ovozi eshitildi – ro‘parada sartarosh turardi!

Ayol gup-gup urayotgan yuragi-yu lovullab yonayotgan quloqlari, yonoqlari va muzdek qo‘llari bilan o‘ziga rosa qirq tomchi tinchlantiruvchi iforli valeriana suyuqligidan tomizdi-da, yasan-tusan qilib, qurban bo‘lish uchun hozirlanishga kelgan qariqizdek xalatda, sochlari yoyiq holicha oyna oldiga kelib o‘tirdi. Oshxonadagi plita ustida qo‘lini oldindan ilitib olgan sartarosh kirib keldi-da, dalda bergandek:

– Bugun havo bo‘lakcha! Sovuq yaxshigina bo‘lsa-da, baribir kishiga yoqyapti! – dedi.

U ham artistlardek fe'l-atvorga ega bo 'lgani bois uni yetarli darajada tushunib, ayoldagi artistlarga xos hayajonga hamdard bo'lgan ko'yi o'zini oldinda turgan voqealarning ishtirokchisi deya his etib, nafislik bilan shoshilmay ishlardi. U o'zining yengil-yelpi, beparvo gaplari, hazil-huzuli va umuman, bunday ishlarda bor pishiq-puxtaligi, shuningdek, ayolning bo'lajak muvaffaqiyatiga qat'iy ishongan holda uni asta-sekin yupatib, unga bor kuch-quvvatini, jur'atini, umidini qaytarib berayotgandi... U o'z ishini yakunlab, unga har tomondan turib nazar tashlar ekan, bir jingalaksoch va bir turmak bundan ortiq bo'lmasligiga ishonch hosil qilgach, ketdi, oshxonadagi soat esa jimgina yettini ko'rsatib turardi, uning yuragi yana taka-puka bo'la boshladi: sakkiz yarimda ayolni olib ketishga kelishadi!

Soat sakkiz bo'ldi, biroq u hali ham tayyor emasdi. U yana tomchili doridan ichdi, bu safar gofmannikidan, ayol o'zining eng yaxshi ko'ylagini kiydi, yonog'ini qizilga bo'yab, yuziga upa surtdi... O'zining gumburlagan ovozi bilan uni hayratda qoldirib, soat sakkiz-u o'ttizda yana qo'ng'iroq yangradi: kelishdi! Anna alpon-talpon dahliz tomonga yugurdi, hayajon bosgandan, u ham o'zini yo'qtogandi – eshikni darrov ochishga qurbi yetmayotgandi...

Ular – bu safar ikki talaba – ijaraga olingan, juda ba-quvvat qirchang'i ot qo'shilgan, almisoqdan qolgan ulkan yengil aravada kelishgandi. Ular sarpoychan bo'lib, oyoqlari ham sovuqdan tosh qotgandi. Mehmonxona har doimgidek sovuq va kerosin hidi anqib turgan chiroq yonib turardi. Ular mehmonxonada xuddi kuyovjo'ra kabi yal-tiragan silliq boshlaridan moyning xushbo'y isini taratib, ko'krakka katta-katta oq selondan kapalaknusxa bandni qo'ndirib olgancha, bitta mundirning o'zida sabr-toqat bilan kutib o'tirishardi. Ular muloyimlik va chidam bilan, indamay, har tomondan berkitib tashlangan eshik, ko'k

va qizil chiroqlar shu'lalari miltillagan muzli oynalarga, royalga, devordagi mashhur qo'shiqchilarining suratlariga qarab o'tirishar, deraza ortidan tramvayning bosiq jiring-lagan, g'ildiraklarining gumburlagan ovozi, eshik ortida-gi Annushkaning va artistning xavotirli qadam tovushlari qulqoqqa chalinardi... Shu zaylda o'n besh, o'ttiz, qirq daqiqa vaqt o'tdi... Nihoyat, qo'qqisdan eshiklardan biri lang ochildi. Ular bab-baravar irg'ib o'milaridan turishdi, artistka esa maftunkor va beparvo tabassum bilan ularga peshvoz chiqib keldi:

— Xudo haqi, janoblar, meni kechiringlar, sizlarni kut-tirib qo'ydim... Nima, vaqt bo'ldimi? Unday bo'lsa men tayyorman, qani, ketdik bo'lmasa...

Hatto yonoqlaridagi qizil bo'yoq va upaning orasidan ham to'q qizil dog' lovullab turardi, og'zidan esa marvarid-gul tomchi dorisining, qo'lidan yog'upaning, havorang harir ko'ylagidan xushbo'y atir hidi dimoqqa urardi. Ayol raqs kechasiga otlangan Azroilga o'xshardi. Ayolning hamma tomoni jingalaklanib, shishirilgan kulrang, murakkab va baland qilib turmaklangan sochlariiga qandaydir ispan-chami-yey, qora to'r tashlangan, ko'kraklari oldinga turtib chiqqan, yalang'och yelkalariga oq qo'ng'iroq yungli kalta echki po'stini solig'liq edi... Talabalar ham shosha-pisha ayolning orqasidan dahlizga otlishdi. Ulardan baland bo'ysi, oriqqinasi ayolning kalish-etigini qo'liga oldi-da, chaqqonlik bilan cho'kkalab, uning olmos to'qa qadalgan atlas qora poyabzalini kiydira boshlagandi, ayol yordam-lashish uchun kiyimining jimjimali to'ridan ushlab etagini tortmoqchi bo'lib engashganida, qo'ltig'idan achchiq bad-bo'y hid anqib ketganini sezdi...

Ayol yashin chaqnab turgan bulut va allaqanday musofirxona to'g'risida kuylardi – „Bizni bu musofirxonaga Par-vardigorning o'zi yubordi“ – va yana o'zgacha bir dabdaba

bilan „Men sendan bo’sa olgan bo‘lardim-u..“ Birinchi qatorda o‘tirgan tanqidchi mo‘ysafid kinoya bilan qiqirlab kula boshladi-da, boshini burdi – nihoyatda ochiq-oshkorra: har narsa qilsang qil-u, faqat o‘pmagil... Baribir ahmoq bo‘lgani qoldi: artistka ulkan muvaffaqiyat qozondi, uni tinmay sahnaga taklif qilishardi va tomoshabinlarning talabiga binoan takrorlashni so‘rashardi – bular ayniqsa oyoq ostida turib olib, vahima bilan qichqirayotgan va cho‘mich kabi bukilgan kaftlarini bir-biriga urib qarsak chalayotgan hushyor yoshlari edi.

## QOTIL

Zamoskvorechydagi boloxonali oddiy yog‘och uy. Oynalari top-toza, romlar a’lo sifatli ko‘kishtob rangga bo‘yalgan. Atrofi olomonga to‘la, ro‘parada yengil davlat avtomobili turardi. Kiraverishdagi lang ochiq eshikdan te-padagi qizil hoshiyali ko‘kimtir gilamcha ko‘rinib turibdi. Ichi qizigan olomon o‘sha tomondan ko‘zini uzmasdi, shu tob yoqimli ovoz eshitildi:

– Ha, azizlarim, o‘ldiribdi! Beva yosh, badavlat savdogarlar avlodidan... Aytishlaricha, yigitni o‘lgudek yaxshi ko‘rgan. Yigit bo‘lsa faqat uning pullariga yashab, to‘g‘ri kelgan bilan ko‘nglini xushlab yuravergan. Oxiri jonidan to‘yan qiz vidolashish niyatida uni huzuriga chaqirgan, yedirib-ichirib rosa mehmon qilgan, so‘ng: „Kel, senga to‘yib qarab olay“, degan-da, kayfi taraq erkakning yuragiga pichoq sanchgan...

Boloxonaning derazasi ochilib, qandaydir oq qo‘lqopli qo‘l avtomobilga ishora qildi. Mashina o‘t oldi, olomon tisarilib unga yo‘l berdi. Mana, dastlab uning kelishgan oyoqlari, so‘ng suvsar yopinchig‘ining etagi ko‘rindi, so‘ng butun kiyim-boshi bilan cherkovga, xuddi nikohdan o‘tishga otlangandek, o‘zi shoshmasdan, ohista zinapoya-dan tushib kela boshladи. Badani sutday oq, qosh-ko‘zları qora, boshida hech nimasi yo‘q, o‘rtasidan to‘g‘ri farq ochilgan sochlari silliq taralgan, qulqolarida esa uzun zirak silkinib turardi. Yuzi xotirjam, tiniq, lablari esa barchaga

muloyim tabassum ulashardi... Ayol mashinaga o‘tirdi, orqasidan qolgan ma’murlar ham o‘tirishdi va shineli gavdasiga yarashib turgan kishi tekintomoshachilarga jiddiy va norozi kayfiyatda qarab qo‘ydi; eshik qarsillab yopildi va mashina joyidan qo‘zg‘aldi...

Orqadan qarab qolganlarning bari zavqlanib:

– Eh, hech nima bo‘lmaganday jo‘nab qolishdi-ya! – deyishdi bir ovozdan.

## ODAMXO'R

Qashshoq, yetimcha qiz, o'zi o'ta yoqimtoy va juda yuvosh, deyarli esipast. Boy xonadon uni ishga oldi va zimmasiga eng iflos va eng ko'p kuch talab etadigan yu-mushlarni yukladi – u qancha qiynalsa ham miq etmay, jimgina ishlar, nima bo'lsa ham ularga yoqishga urinardi. Oqsoqol, ya'ni qo'rg'onning kattasi, iste'fodagi harbiy fursatni qo'ldan bermay, qizning nomusini bulg'ab qo'ydi. Qizgina bolalarcha qaysarlik bilan qattiq qarshilik ko'rsatdi-yu, baribir taslim bo'lishdan o'zga chorasi qolmagandi. Bir oydan so'ng uning homilador ekani ma'lum bo'ldi va bundan barcha xabar topdi. Oqsoqolning xotini qildi qiyomat, qildi qiyomat... va boy xotin qizni zudlik bilan ishdan haydash payiga tushdi. Noiloj qolgan qiz zor-zor yig'lagancha lash-lushlarini naridan beri xaltaga joyladi-da, bu xonadondan bosh olib chiqib ketdi. Oqsoqolning xotini qarolxona ostonasida turib, quvonchini ichiga sig'dirolmay telbalarcha raqs tushar, hushtak chalib, itni qizga „olkish“lar, mis tog'orani suyak bilan urib, har xil ovozda:

– Qanjiq! Tilanchi! Qashshoq! Yalmog'iz! Jodugar!  
Odamxo'r! – deb qichqirar edi.

## KO'ZYOSHLAR

Tilanchi kampir boy xonodon darvozasi yonida paydo bo'ldi. Egnida kampirlarga xos juldur kiyim, qoqsuyak oyoqlarida kampirlarga xos osilib-solinib yotgan paypoq, mungli ko'zlar...

Unga ellik tiyin tutqazdim-da, gapga soldim:

– Mana, buvijon, sizning bormagan yeringiz, kirmagan eshicingiz yo'q, – hayotda ancha-muncha narsalarni ko'rib qo'ydingiz-ov?

Kampir ko'zlaridan achchiq ko'zyoshi to'kib dedi:

– Boshqa nima ham qillardim, otaxon, qo'limdan boshqa nima ham kelardi!

Chala, pala-partish olingan sochi oppoq oqarib bitgan, egnida xotinlarning yalangqavat ko'ylagi, yelkasiga xalta osib olgan Vanya ovsar o'tloqdan oqsab-to'qsab arang qadam bosib boradi:

– Omonmisan, Vanya! Ahvollar qalay?

Vanya so'lagini oqizgancha xursand ohangda:

– Tuproqdan tashqari – shunga ham shukr... – deb javob berdi duv to'kilgan ko'zyoshlарini artib.

## SARMOYA

Taqirbosh, yuzi qip-qizil, meshqorin, uchar kvasfurush butun yarmarkani boshiga ko‘tarib:

– Kep qol, mana kvas, burning achishmasa hisobmas!  
Kep qol, ko‘pirib-toshgan kvasdan op qol! – deya baqirardi.

Issiq telpagini boshi orqasiga surib, qo‘ltig‘iga katta nonni qistirib olgan sariqmashak rus dehqoni burun kataklarini shishirgancha, har zamon-har zamonda nondan uzib og‘ziga solar va uni chaynagancha olomon ichidan o‘tib borardi.

– Kvas qanchadan? – so‘radi u boshini baland ko‘tarib.  
– Burgutligidan cho‘zsang bir shisha, bo‘lmasa ikki tiyinga bir piyola.

– Yarim tiyinga-chi, quysasanmi?  
– O‘sha yarim tiyiningga chumchuqning tezagini ham olib bo‘psan.

Erkak chaynalgancha o‘ylanib qoldi. So‘ng xo‘rsindi-da, jiddiy ohangda dedi:

– He-yo‘q, ikki tiyinga qurbim yetmaydi. Bunaqa sarmoya hozircha menda topilmaydi.

## DUMLI YULDUZ

Boylarning uyidagilar ham, qishloqdagilar ham dumli yulduzga o‘xshash nimadir kelayotganiga ancha vaqtgacha ishonishmadi: „Ular faqat qadim zamonlardagina bo‘lgan!“ Va nihoyat bir kuni tunda, shimoliy ufq tomonda, kareta turadigan saroyning orqasida birdan dumli yulduz ko‘rinib qoldi – uning yaltiroq dumi bir tomonaga xiyol qiyshayib turardi. Xo‘jayinlar uni soyabonli pillapoyada turib kuzatishdi. Ular xizmatkorlar xonasining ostonasidan turib ham undan ko‘zlarini uzishmay, cho‘qinishdi. Ertasiga oqsoqol zodagonlar uyining tomiga chiqdi-da, chordoq oynasiga taxta qoqib berkitib tashladi. Taqir-tuqurni eshitgan uy egalari chiqib:

- Oqsoqol! Nima gap, u yerda nima qilyapsiz? – deb so‘rashdi.
- Nima qillardim, chordoq oynasini berkityapman.
- Nimaga?
- Nimaga bo‘lardi, dumli yulduzdan himoyalanish uchun-da.

## SHAQIRLAGAN QOVURG‘A

— Assalomu alaykum, muhtaram to‘ram. Ahvollar qalay deysizmi? Tuproqdan tashqarida yurganimga ham shukr. Pulning dardida bozorma-bozor, yarmarkama-yarmarka yelib-yugurib yuribman... Axir yosh ham qirqqa bordi, tilimni itday osiltirib, chopib yurganimga ishonmang. Birdan bir omadim boshpanamning borligi, garchi u kulba bo‘lsa ham – ba’zan och-nahor qolib qaytganingda, har holda o‘z uying – o‘lan to‘shaging bor, hozir bag‘rimni ezgudek huvullab yotgan bo‘lsa-da, Xudo ko‘rsatmasin bunday kunni. Qishloqdagi tirikchilik o‘zingizga ma’lum; issiq, chak etgan yomg‘irning o‘zi yo‘q, kunduz kunlarining-ku sira keti ko‘rinmaydi... Uying esa yutaman deydi: xotinni ko‘mdim, farzandlarimni ko‘mdim, baxtimga, hozircha onam tirik. Biroq oxirgi paytlar u ham meni xavotirga solyapti: uyda oyog‘ini zo‘rg‘a sudrab bosadi, ko‘z ham, quloq ham arang ishlayapti, biroq shunga ham ishonch yo‘q, idrok, diqqat-e’tibor ham haligiday, o‘zi ozib-to‘zib, bir siqim bo‘lib qolgan – jag‘ini bog‘lab qo‘ysang, tayyor o‘lik. Qanaqa ayol edi-ya! Bitta monastrning bekasi bo‘lishga arzigelik savlat ham, qaddi-qomat ham bor edi. Endi kuni bitib, shaqirlagan qovurg‘a qolgan, xolos.

## BUVA

Mo'ysafid, sochlari qalin, hurpaygan, kun bo'yi chek-kani-chekkan.

Tong saharda bir tortib, aqlini peshlab olmasa, gandi-raklab, o'ziga kelolmaydi.

Ovqat ham kerak emas, undaylar bu yorug‘ olamga, bola-chaqa va oilaga (garchi uni ota, buva deb chaqirishsada) begona va u ko‘z ochib-yumguncha dunyodan o‘tadi, bu manfaatparastlar uyasini-yu markazdan olis bu ovloqni toabadga tark etadi va ana o‘shanda sen so‘ra, surishtir, so‘zla, bu bangidevona bu yorug‘ olamda kim uchun yashadi-yu nima uchun yashadi.

Nima bo‘lganda ham uning bu dunyoda o‘z o‘rni bor.

– Buvajon, tushlikka keling! Ugra sho‘rva sovib qoladi!

– Sizlar menga qaramay boshlayveringlar... Men sal keyinroq... menga qolgani ham bo‘laveradi...

O‘zining esa tushlikni kutaverib qorni piyozning po‘sti bo‘lib ketgan.

– Ota, siz hech bo‘lmasa ishtonizingizni almashtirib oling, axir ich kiyimlaringiz taxlanib yotgan bo‘lsa!

– Bu gapingga besh ketsa arziydi! Taxlanib yotgan-mish! Bir parcha butun yeri qolmagani qachonlar edi! Shunday bo‘lganda, avaylab o‘tirmasdim! Endi menga, kelinjon, hech nimaning keragi yo‘q. Xudoga shukr, yashadim, endi izzatim bitdi, faqat Xudodan bitta o‘tinchim – tezroq jonimni olsa...

O'ziga qolsa o'Iguday ziqna, bor-yo'g'ining tashvishi-ni qilgani-qilgan, bu dunyodan ham hech umid uzgisi yo'q va umrning bir asrdan kamiga rozi ham emas.

Nimaga?

Buni o'zi ham bilmaydi.

Birovning ko'nglini birov bilib o'tiribdimi! O'zingni-kini bilmaysan-ku!

## ARAFĀ

Shaharda, vokzalga ketaverish. Izvosh daryo orqali tepalig-u ko‘prikdir shitob bilan yelib borardi. Ko‘pri tagida, sohilning sayoz yerida, ko‘pri soyaboni ostida yo‘lovchilarga orqa o‘girib, o‘zini himoya qilgandek yelkalarini ko‘targancha bir yalangoyoq isqirt latta ichidagi allaqanday nishxo‘rdni titib, ochko‘zlik bilan oshalar edi. Orqada, yon tomonida dehqonlarning vahimali etiklari osilib turgan shaloq arava silkingancha, gumburlab, shamoldek yelib borardi. Hamma yeri unga belangan tegirmونchilar, bari devqomat va bari sap-sariq, boshyalang, bog‘ichlari yechib tashlangan qizil ko‘ylakda...

So‘ng ikkinchi toifa vagoni. Va ro‘paramda davangiday, kirpisoch, kataklari yoqimsiz kerilgan yapasqi burni ustiaga tilla ko‘zoynak qo‘ndirib olgan qirqlar atrofidagi janob o‘tirardi. Bir payt mendan hazar qilgandek hamma birdan o‘rnidan turdi, hech biri menga qaramayotgandi, ular tokchadagi yukbop jomadonlari-yu jomadonchalarini tartibga sola ketishdi. O‘z hayotidan va mustahkam obro‘-e’tiboridan mamnun, pishiq-puxta, o‘ziga ishongan janob...

Lekin o‘n oltinchi yilning kuzi allaqachon yaqinlashib qolgandi.

## KASOFAT TUXUMLAR (*Qissa*)

I BOB

### PROFESSOR PERSIKOVNING QISQACHA TARJIMAYI HOLI

Moskvadagi IV davlat dorilfununing zoologiya profesori va zooinstitut direktori Persikov 1928-yil 16-aprel kuni kechqurun Gersen ko'chasida joylashgan zooinstitutdagি o'z xonasiga kirdi. U shiftdagи sirlangan sharsimon chiroqni yoqib, atrofga ko'z yogurtirdi.

Mazkur razolatkor oqshomni biz bayon qilmoqchi bo'lган mudhish falokatning ibtidosi deb hisoblash va yuqorida nomi zikr etilgan professor Vladimir Ipatievich Persikovni o'shal falokatning sababchisi deb ko'rsatish lozim bo'ladi.

U rappa-raso 58 yoshda edi. Uning peshonasi guvalasimon turtib chiqqan, tepakal boshining faqat gir aylanasi-dagina sarg'ish rang siyrak tuklar tikkayib o'sardi. Uning soqol-mo'ylovi silliq olingan, pastki labi turtib chiqib turardi. Mana shu holat Persikov chehrasini hamisha bir qadar tajang qilib ko'rsatardi. Uning qizil burniga kumush gardishli, kichkina ko'zli, eskicha andozadagi ko'zoynak qo'ndirilgan bo'lib, bit ko'zları porlab turar, daroz bo'yi xiyol bukchaygan edi. U gapirganda ingichka ovozi g'ijirlagandek, vaqirlagandek bo'lardi; uning bir qator alomat

xislatlari ichida ana shunday bir odati ham bor edi: biron narsa to‘g‘risida qat’iyat va ishonch bilan gapi rayotganida, o‘ng qo‘lining barmog‘ini ilgaksimon egar va ko‘zlarini suzardi. U o‘z ilmi sohasida mutlaqo barkamol zakovat sohibi edi, shunga ko‘ra, u hamisha komil ishonch bilan gapirar, binobarin, professor Persikovning ilgaksimon barmog‘i uning hamsuhbatlari ko‘zi oldida deyarli muttasil paydo bo‘lib turardi. Lekin professor Persikov o‘z sohasidan, ya’ni zoologiya, embriologiya, anatomiya, botanika va geografiyadan tashqari mavzularda deyarli hech bir so‘z aytmasdi. Professor Persikov gazeta o‘qimas, teatrqa bormasdi, uning xotini 1913-yildayoq eriga quyidagi mazmunda xat yozib, Zimin<sup>1</sup> operasining tenori bilan qochib ketgan edi:

*„Baqalaringni ko‘rsam a’zoyi badanimni titroq bosalidi, men ulardan irganaman. Shu maxluqlar tufayli bir umr baxtiqaro bo‘lib yashashni istamayman“.*

Professor boshqa uylanmadı, farzand ham ko‘rmadi. U jahlitez odam edi, ammo zumda hovuridan tushardi. Moshka solib damlangan choyni yaxshi ko‘rar, Prechistenka ko‘chasidagi besh xonali kvartirada turardi; xonalardan biri da ro‘zg‘or sohibasi – chuvakkina kampir Marya Stepanovna yashar, u professorni xuddi enagasidek parvarish qilardi.

1919-yilda professorning 5 xonasidan uchtasini tortib olishdi. Shunda u Marya Stepanovnaga bunday dedi:

– Agar ular bu bema’nigarchilikka barham berishmasa, Marya Stepanovna, chet elga jo‘nab ketaman.

Basharti professor shu niyatini amalga oshirsa bormi, hech shubha yo‘qli, yer yuzidagi istagan dorilfununning

<sup>1</sup> Zimin S.I. (1875–1942) – rus teatr arbobi. 1904- yilda Moskvada xususiy teatr ochib, unga „S.I. Ziminning opera teatri“ deb nom bergan. (Izohlar tarjimononkisi.).

zoologiya kafedrasiga osongina ishga joylashgan bo‘lardi, zero u barkamol olim edi, suvda va quruqda yashovchi jonivorlar yoki yalang‘och baqalarga ozmi-ko‘pmi taalluqli bo‘lgan sohada-ku, Kembrijdagi professor Uilyam Vekkl bilan Rimdagagi Jiakomo Bartolomeo Bekkarini mustasno qilinsa, unga teng keladigan biron ta ham olim yo‘q edi. Professor rus tilidan tashqari yana to‘rtta tilda leksiya o‘qirdi, fransuz va nemis tilida xuddi o‘z ona tilidek ravon gaplashardi. Persikov chet elga ketish niyatini amalga oshirmadi, bu yoqda esa 20-yil, 19-yildan ham beshbattar keldi. Ustma-ust yangidan yangi voqealar sodir bo‘la boshladi. Bolshaya Nikitskaya ko‘chasiga Gersen nomini berishdi. Keyin Gersen bilan Moxovaya ko‘chasi tuyulishi-da devorga o‘yib o‘rnatilgan soat millari 11-u chorakni ko‘rsatgan paytda taqqa to‘xtab qoldi, nihoyat, zoologiya institutidagi jonivorlar bu tarixiy yilda ro‘y berayotgan barcha o‘zgarishlarga dosh bera olmay, oldiniga sakkizta g‘oyat go‘zal baqaqurilloq yoki daraxt baqasi, keyin o‘n beshta oddiy cho‘lbaqa va nihoyat, eng noyob nusxa hisoblangan Surinam qurbaqasi nobud bo‘ldi.

Yalang‘och sudralib yuruvchilar turkumiga kiruvchi va, adolat yuzasidan, dumsiz sudralib yuruvchilar sinfi deb nomlangan cho‘lbaqalar o‘limidan sal vaqt o‘tmay, yalang‘och sudralib yuruvchilar sinfiga kirmagan bir zot – institutning doimiy qorovuli qariya Vlas ham boqiy dun-yoga rixlat qildi. Sho‘rlik sudralib yuruvchilarning qirilib ketishiga nima sabab bo‘lsa, qorovulning o‘limiga ham shu narsa sabab bo‘ldiki, Persikov bu holni shu zahotiyiq bir so‘z bilan ifodaladi:

– Qahatchilik.

Olim mutlaqo haq edi: Vlasni un bilan, cho‘lbaqalar-ni esa unga tushgan mita bilan boqish lozim edi, lekin un yo‘q, shu sababli mita ham qorasini o‘chirgan edi. Persikov

qolgan 20 nusxa daraxt baqalarini suvaraklar bilan boq-moqchi bo‘ldi, ammo suvaraklar ham harbiy kommunizmga bo‘lgan adovatli munosabatlarini namoyish qilib, alla-qaysi go‘rga g‘oyib bo‘lishgan edi. Natijada, baqalarning so‘nggi nusxalarini ham institut hovlisidagi axlat o‘raga tashlab yuborishga to‘g‘ri keldi.

Baqalarning, ayniqsa, Surinam baqasining o‘limi Persikovga qanchalik yomon ta’sir qilganini ta’riflashga til ojiz. Bu falokatda u negadir o‘sha paytdagi maorif xalq komissarini aybladi.

Persikov muzxonaga aylana boshlagan institut yo‘lagida boshida qalpoq, oyog‘ida kalish bilan turarkan, assistenti – cho‘qqi soqoli oq-sariqdan kelgan nazokatli jentlmen Ivanovga derdi:

– Bu qilmishi uchun uni o‘ldirsang ham oz, Pyotr Stepanovich. Axir nima qilishyapti o‘zi ular? Bunaqada butun institutni xonavayron qilishadi-ku! A? Eng nodir nusxa, qiyosi yo‘q, uzunligi 13 santimetr keladigan erkak baqa – Pipa amerikana<sup>1</sup>ga nima bo‘ladi?

\* \* \*

Kundan kunga badtar bo‘laverdi. Vlasning o‘limidan keyin institut derazalari qalin muz qatlami bilan qoplanib, oynalarning ichki tomonida jimjimador gullar paydo bo‘ldi. Quyonlar ham, tulkilar ham, bo‘rilar-u baliqlar ham ha-rom qotdi; sariq ilonlar-ku butunlay qirilib bitdi. Persikov kun bo‘yi churq etib og‘iz ochmasdi, keyin zotiljam bo‘lib qoldi, ammo o‘lmadi. Kasaldan turgach, institutga haftada ikki marta borib, tashqaridagi haroratning qanday bo‘lishiga qaramay, hamisha birday – 5 daraja sovuq bo‘ladigan

---

<sup>1</sup> Amerika pipi. Pip – Janubiy Amerikada yashovchi qurbaqalarning bir turi: ularning orqa oyoqlarida tirnoqlari bo‘ladi.

doira zalda oyog‘ida kalish, boshida qulochchin, bo‘ynda sharf bilan turgancha, og‘zidan oppoq bug‘ chiqarib, sakkizta talabaga „Issiq mintaqada yashovchi sudralib yuruvchilar“ degan mavzuda qator leksiyalar o‘qirdi. Boshqa vaqt Persikov hamisha o‘zining Prechistenkadagi uyida, shiftigacha kitob qalashib ketgan xonada divan ustida qalin jun ro‘mol yopinib yotarkan, tinmay yo‘talar va Surinam cho‘lbaqasi haqida xayol surgancha, Marya Stepanovna ning zarhal yuritilgan stillarini sindirib, pechkaga tiqayotganini kuzatar va olov ufurayotgan pechka og‘zidan ko‘z uzmasdi.

Lekin har narsaning ham nihoyasi bo‘ladi. Shunga ko‘ra, 20-yil, undan keyin 21-yil ham tugadi, 22-yilga kelganda, hayotda qandaydir zid harakat boshlandi. Birinchidan, marhum Vlasning o‘rniga Pankrat ismli hali yosh, ammo kelajagi porloq yigit zoologiya institutiga qorovul qilib olindi, keyin, institutni oz-ozdan o‘t yoqib isita boshlashdi. Yozda esa Persikov Pankrat yordamida Klyazma daryosidan 14 dona jaydari baqalarni tutib keldi. Terrariylarda<sup>1</sup> yana hayot qaynay boshladı... 1923-yilga kelib, Persikov haftasiga sakkiz marta – uch marta institutda, besh marta dorilfununda, 24-yilda esa haftasiga 13 marta, undan tashqari, yana rabfaklarda ham ma’ruza o‘qiy boshlashdi; 25-yilning bahoriga kelib, bir yo‘la 76 ta studentni imtihondan yalang‘och baqalar mavzusi bo‘yicha yiqitib, dovrug‘ qozondi.

– Iye, hali siz yalang‘och baqalarning sudraluvchilaridan nimasi bilan farq qilishini bilmaysizmi? – deb so‘rardi Persikov. – Bu kulgili hol-ku, yigitcha. Yalang‘och baqalarda ikkilamchi buyrak bo‘lmaydi. Mutlaqo bo‘l-

<sup>1</sup> Terrariy – sudraluvchilar hamda suvda va quruqda yashovchi jonzotlar yashaydigan xona.

maydi. Ana shunaqa. Uyaling. Siz marksist bo‘lsangiz kerag-a?

— Marksistman, — so‘niq ovoz bilan javob berardi imti-hondan yiqilgan talaba.

— Xullas, kuzda marhamat qilasiz, — derdi muloyim ohangda Persikov, so‘ng yangroq ovoz bilan Pankratga qich-qirardi. — Qani, kirit navbatdagasini.

Uzoq davom etgan qurg‘oqchilikdan keyin yomg‘ir sharros yog‘ib bergenida amfibiyalarga darrov jon kirgani singari, professor Persikov ham 1926-yilda, birlashgan amerika-rus shirkati tomonidan Moskvaning qoq markazi-da, Gazetnaya torko‘chasi bilan Tverskaya ko‘chasi mu-yulishida 15 ta o‘n besh qavatlari uy, shahar chekkasida esa ishchilar uchun har biri sakkizta oilaga mo‘ljallangan 300 ta kottej qurilganini va bu bilan 1919–1925-yillar mo-baynida moskvaliklarni qattiq azobga solgan ham dahshatli, ham kulgili uy-joy yetishmovchiligi masalasiga barham berilganini ko‘rib, ancha jonlandi.

Umuman, bu yilgi yoz Persikov hayotida juda ajoyib bo‘ldi, ahyon-ahyonda u Marya Stepanovna bilan ikkita xonaga tiqilib o‘tirgan paytlarini eslarkan, mammuniyat bilan ohista hirinqlar va kaftlarini bir-biriga ishqab qo‘yardi. Hozir professor 5 ta xonaning hammasini qaytarib olgan, endi uning hamma narsalariga joy topildi, ikki yarim mingta kitobini tokchalarga terib chiqdi, tulumlar, diagrammalar, preparat<sup>1</sup>larni o‘mi-o‘rniga qo‘ydi, xonasidaga yo-zuv stoli ustida yashil chiroq yondi.

Institut ham tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgargan edi: uni och sariq rangga bo‘yashdi, maxsus suv quvurlari o‘tkazilib, sudraluvchilar xonasiga suv keltirildi, hamma oynalarni ko‘zgular bilan almashtirishdi, institutga besh-

---

<sup>1</sup> Preparat – bu o‘rinda jonzotlarning spirtga solingen ayrim a’zolari.

ta yangi zarrabin, preparatlar uchun oyna stollar, yorug‘lik qaytargichi bo‘lgan 2000 shamli sharsimon chiroqlar, nur-qaytargich, muzey uchun javonlar olib kelindi.

1926-yilning dekabrida Persikovning „Yana qashqatumshuqlar yoki zirhli baqalarni urchitish haqidagi masalaga doir“ degan kitobchasi bosilib chiqdi-yu, uning yana o‘ziga kelganiga butun dunyo shohid bo‘ldi. 1927-yilning kuzida esa uning 350 sahifali yirik asari bosildi, u oltita tilga, shu jumladan, yapon tiliga ham tarjima qilindi. Bu „Piplar: cho‘lbaqalar va qurbaqalarning embriologiyasi“ nomli kitob bo‘lib, uni Davlat nashriyoti chop etgan, bahosi 3 so‘m edi. 1928-yilning yoziga kelganda esa ko‘z ko‘rib qulq qulq eshitmagan shunday dahshatli voqealar sodir bo‘ldiki...

## II BOB

### RANGLI JINGALA

Shunday qilib, professor sharsimon elektr chiroqni yoqib atrofiga nazar tashladi. Uzunchoq tajriba stoli ustidagi nurqaytargichni yoqdi, egniga oq xalat kiyib, stol ustida yotgan qandaydir asboblarni sharaqlatib joydan joyga sura boshladi...

O‘scha 1928-yilda Moskvada qatnovchi 30 mingta mexanik izvoshlardan ko‘pchiligi silliq g‘o‘lalar yotqizilgan Gersen ko‘chasidan shipillab o‘tib turar, har daqiqada 16, 22, 48 yoki 53-yo‘nalish bo‘yicha yuruvchi tramvay gursullab, g‘ijirlab o‘tib, Moxovaya ko‘chasiga tushib ketarkan, rang-barang chiroqlar kabinetdagi toshoynalarda yalt-yalt etib aks etar, juda olisda va yuksakda turgan rangi so‘niq o‘roq oy esa, qop-qora va salobatli Iso jomesining yon tomonidan xiragina yog‘du sochib turardi.

Lekin professor Persikovni na oy, na bahorgi Moskva qiziqtirardi. U aylanuvchi uch oyoqli kursida o'tirarkan, tamakidan qo'ng'ir rangga kirgan barmoqlari bilan Seys<sup>1</sup> kashf etgan ajoyib zarrabin<sup>2</sup>ning tishli qulog'ini burab, unga qo'yilgan yangi amyobalarning anatomik tahlil uchun hozirlangan rangsiz, odmi bir bo'lagini ko'zdan kechirardi. Persikov zarrabin qulog'ini burab, kattalashtirishni endigina 5 mingdan 10 mingga oshirgan edi, eshik ochilib, ostonada charm ko'krakpech taqqan cho'qqi soqol assistent paydo bo'ldi:

— Vladimir Ipatich, qatqorinni tayyorladim, — dedi u. — Ko'rasizmi?

Persikov boshlagan kuzatuvini chala qoldirib, baland kursidan tushdi va qo'lidagi papiros donasini asta ezg'ilab o'ynagancha assistentning xonasiga kirib bordi. U yerda, oyna stol ustida qorni yorilgan chalajon qurbaqa yoli bor taglik ustida behush yotar, uning shaffof ichki a'zolari qonga g'arq bo'lgan qornidan tortib olinib, zarrabin ostiga qo'yilgan edi.

— Juda soz, — dedi Persikov va ko'zini zarrabin ko'ziga qadadi.

Chamasi, qurbaqaning qatqorinida qandaydir juda ham qiziqrarli bir vaziyat sodir bo'lganga o'xshaydi: bu baqaning tomirlaridan oqayotgan jonli qon tanachalaridan yaqqol ko'rinish turar edi. Persikov o'zi kuzatayotgan amyobalarni ham unutib yuborib, bir yarim soat davomida assistenti Ivanov bilan galma-gal zarrabinga tikilib o'tirdi. Bu asnoda ikkala olim xom sut emgan bandalar tushunmaydigan tilda tinmay jonli suhbat olib borishdi.

Axiyri Persikov boshini zarrabindan ko'tarib dedi:

<sup>1</sup>Seys Karl Fridrix (1816–1888) – optika asboblari kashf etgan nemis mexanigi.

<sup>2</sup>Zarrabin – mikroskop.

— Qon quyulib qolyapti, hech nima qilib bo‘lmaydi...

Qurbaqa boshini bazo‘r qimirlatdi, uning so‘nib bora-yotgan ko‘zlaridan: „Ablah ekansanlar, men senlarga ayt-sam...“ demoqchi bo‘lgani ko‘rinib turardi.

Persikov uvishgan oyoqlarini uqalagancha kursidan turib, o‘z xonasiga qaytdi, esnadi, mudom toliqqan qovoqlarini barmoqlari bilan ishqaladi, kursiga o‘tirib zarrabinga ko‘zini qadadi-da, qo‘lini uning kattalashtiruvchi tutqichiga qo‘yib, endi aylantirmoqchi bo‘lgan edi... lekin ko‘zi xiralashgan oq to‘garakka va to‘garak ichidagi betinch rang-par amyobalarga tushdi-yu, tosh qotib qoldi: to‘garakning qoq o‘rtasida ayol kishining gajak soch tolasini eslatuvchi bir jingala narsa ko‘rinardi. Bu jingalani Persikovning o‘zi ham, yuzlab talabalari ham ko‘p marotaba ko‘rishgan, lekin hech kim unga parvo qilmagan, parvo qilishning hojati ham bo‘lmanan edi. Chiroqning shu jingalaga yo‘naltirilgan bir taram qizil nuri uni kuzatishga xalal berib, zarrabin ostidagi preparatni xira ko‘rsatardi. Shuning uchun, zarrabin murvatini sal burashdayoq kuzatilayotgan maydon sidirg‘a oq shu’la bilan yoritilib, nuqul preparat shafqatsiz ravishda o‘chirib yuborildi. Zoolog olim uzun barmoqlarini murvatning tishli g‘altagiga joylashtirdi, lekin shu zahoti qo‘li qaltirab ketib, uni tortib oldi. Bunday bo‘lishiga Persikovning o‘ng ko‘zi sabab bo‘ldi: ko‘zi sergaklangan, taajjublangan, hattoki bezovta bo‘la boshlagan edi. Turgan gapki, zarrabin oldida o‘tirgan bul zot jumhuriyat boshiga bitgan iste’dodsiz bir noshud emas edi. Yo‘q, bu odam kimsan – professor Persikov edi. Uning butun fikr-u niyatları umrbod shu o‘ng ko‘zida mujassam bo‘lgan edi. Hozir ana shu oliv jonzot besh daqiqa surunkasiga misoli o‘lik toshdek sukutga tolib, zarrabin shishasi ostida xiragina ko‘rinayotgan eng past, ya’ni bir hujayrali jonzotni jidd-u jahd bilan kuzatdi. Hamma yoq jimjit. Pankrat

dahlizdag'i hujrasiga kirib allaqachon pinakka ketgan, faqat bir martagina uzoqdan javon oynasining musiqali va nafis zirillagani eshitildi. – Ivanov uyiga keta turib kabinet eshigini qulflagan edi. Keyin ko'cha eshik ingrab ochilib-yopildi. Shundan keyingina professorning ovozi eshitildi:

– Nima bo'lyapti o'zi? Hech nimaga tushunmayaman...

Savol kimga qaratilgani ma'lum emasdi.

Gersen ko'chasidan kechikkan yuk mashinasи gumburlab o'tib, institutning ko'hna devorlarini larzaga keltirdi. Stol ustidagi pinsetlar solingan oxirgi shisha idish jarangladi. Professor qattiq cho'chib ketdi, xuddi falokat tahdid solayotgan murg'ak bolasini himoya qilmoqchi bo'lgan onadek qo'llarini zarrabin ustiga olib bordi. Endi zarrabin murvatini burash haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi, o yo'q, endi Persikov o'zi zarrabin ostida ko'rgan narsani biron tasodifiy kuch turtib o'chirib yuborishidan qo'rqardi.

Professor nihoyat zarrabinni tark etdi va oyoqlari uvishganligidan oqsoqlanib deraza oldiga bordi, bu payt oppoq tong otgan, institutning och sariq bo'sag'asini oltin shafaq kesib o'tgan edi. U titroq barmoqlari bilan tugmani bosgan edi, qora qalin parda derazani zich yopib, tong shu'lasi ni to'sdi va kabinetda yana olimning donishmandona tuni davom etdi. Rangi za'faron, ammo ruhi tetik Persikov oyoqlarini kerib, yoshlangan ko'zini parket polga qadagancha gapira boshladи:

– Lekin bu qanday yuz berdi? Axir bu dahshat... Dahshat-ku, janoblar, – deb takrorlardi u terrariydagи cho'lbaqalarga yuzlanib, ammo cho'lbaqalar professorga javob qilishmadi: pinakka ketishgandi.

Olim sukutga toldi, so'ng deraza oldiga borib, tugmani bosib, pardalarni ko'tardi, hamma chiroqlarni o'chirib,

yana zarrabinga ko‘zini qadadi. Chehrasi jiddiyashdi, tuklari tarvaqaylab ketgan sarg‘ish qoshini chimirdi.

– Ihi, ihi, – deb g‘o‘ldiradi u, – g‘oyib bo‘lipti. Tushunyapman. Tushu-u-un-yapma-an, – dedi xuddi telba odam singari cho‘zib va shiftdagи o‘chirilgan sharsimon chiroqqa zavq bilan qarab qo‘ydi, – bu oddiy narsa.

Keyin u yana deraza pardalarini shirillatib tushirdi, yana sharsimon chiroqni yoqdi, zarrabinga tikildi-da, suyunib ketib, tishlarini yirtqichona irshaytirdi.

– Men uni tutaman, – dedi u viqor bilan va barmog‘ini tantanavor ko‘tardi, – albatta, tutaman. Balki, quyosh shu’lasidan ham paydo bo‘lar.

Deraza pardalari yana ko‘tarildi. Tashqarida endi quyosh porlardi. Mana, u institut devorlarini o‘z yog‘dusiga g‘arq qilib, Gersen ko‘chasi sahnini qiyalab yoritmoqda. Professor derazaga qarab, oftobning kunduzi qayerda bo‘lishini chamalay boshladи. U goh derazadan uzoqlashar, goh yana go‘yo raqsga tushayotgandek yengil odimlab unga yaqinlashardi, keyin u deraza rafiga qorni bilan yotib oldi.

Persikov juda muhim va sirli bir ishni boshlayotgan edi. U zarrabinning ustiga shisha qalpoq yopdi, gaz isitkichning ko‘kimtir alangasida bir bo‘lak surg‘uchni eritib, qalpoq labini gir aylantirib, stolga yopishtirib chiqdi-da, mana shu surg‘uch dog‘lariga o‘zining bosh barmog‘ini bosib muhrladi. Keyin gazni o‘chirdi, kabinetdan chiqib, eshikni qulfladi.

Institut yo‘laklari g‘ira-shira yoritilgan edi. Professor Pankratning hujrasi oldiga borib, uni uzoq vaqt rosa taqillatdi. Nihoyat, ichkaridan xuddi zanjirband qilingan itning irillashiga o‘xshagan g‘o‘ldirash, keyin kimningdir tomoq qirib balg‘am tupurgani va to‘ng‘illagan ovozi eshitildi-yu, eshik ochilib, ostonada yo‘l-yo‘l lozim kiyib, pochalarini to‘pig‘idan boylab olgan Pankrat paydo

bo'ldi. U professorga o'qrayib qararkan, hanuz uyqusirab g'o'ldirardi.

— Pankrat, — dedi professor unga ko'zoynagi osha qararkan, — uyg'otib yuborganim uchun uzr. Gap bunday, azizim, ertalab xonamga hech kim kirmasin. Men u yerda bir tajriba boshlaganman, uni o'rnidan qo'zg'atish mumkin emas. Tushundingmi?

— I-i-i, tu-tu-tushundim, — deb javob qildi Pankrat, lekin hech nimaga tushunmadi. U oyog'ida zo'rg'a turar va bir nimalar deb xirillardi.

— Yo'q, menga qara, ko'zingni ochsang-chi, Pankrat, — dedi zoolog va qorovulning biqiniga ohista niqtagan edi, uning yuzida qo'rquv, ko'zlarida fahm-farosatdan ayrim nishonalar paydo bo'ldi. — Men xonamni qulfladim, — deb gapida davom etdi Persikov, — aytmoqchimanki, to o'zim kelmagunimcha, u yerni yig'ishtirish kerak emas. Tushundingmi?

— Xo'p bo'ladi, — dedi Pankrat xirillab.

— Ha balli, endi yotib uxlavver.

Pankrat orqasiga o'grilib, ichkariga kirdi-yu, darhol o'zini to'shakka otdi, professor dahlizda kiyina boshladи. U egniga kulrang avra palto, boshiga mayin shlapa kiydi, keyin zarrabinda ko'rgan tasvirini eslab, kalishlariga tikildi, tikildi-yu, xuddi umrida birinchi marta ko'rayotgandek, bir necha soniyagacha ulardan ko'z uzmay turib qoldi. So'ng bir poy kalishni chap oyog'iga kiyib, o'ng poyini ham shu oyog'iga kiymoqchi bo'ldi, lekin turgan gapki, u oyog'iga sig'madi.

— Qanday antiqa tasodif: assistent meni ayni paytida chaqirib olib ketgan ekan, — dedi olim, — aks holda, u narsani payqamagan bo'lardim. Xo'sh, bundan nima kutish mumkin? Bundan juda qiyomat narsalar kutish mumkin, azbaroyi shifo...

Professor miyig‘ida kulib qo‘ydi, kalishga ko‘zini suzib qaradi va chap oyog‘idagi kalishni yechib, o‘ng oyog‘iga kiydi. – Voy Xudoyim-ey. Buning oqibatini hatto tasavvur ham qilish qiyin... – Professor o‘ng oyog‘iga sig‘may g‘ashini keltirayotgan chap poy kalishini nafrat bilan tepdi-da, tashqariga bir poy kalishda chiqa boshladi. Ayni shu payt u dastro‘molini tushirib qoldirdi, vazmin eshikni „qars“ etib yopib ko‘chaga chiqdi. Eshik oldida turgancha yonlariga tap-tap urib, uzoq vaqt gugurt qidirdi, axiyri topdi va og‘zida tutatilmagan papiros bilan yo‘lakdan yurib ketdi.

Olim to Jomega borguncha ko‘chada biron ta ham odamni uchratmadi. Jomega yetganda boshini ko‘tarib, oltin gumbazga tikilib qoldi. Gumbazning bir tomonini quyosh huzur qilib yalardi.

– Nega buni ilgari ko‘rmagan ekanman-a, qanday tasodif... – dedi professor va engashib, ko‘chaga bir poy kalishda chiqqanini payqab qoldi. – Voy, men ovsar-ey... Hm... endi nima qilaman? Pankratning oldiga qaytib borsam-mikin? Yo‘q, uni zambarak otib ham uyg‘otib bo‘lmaydi. La’natini tashlab yuboray desang, ko‘zing qiymasa. Qo‘limga olib olaman-da endi. – U kalishini yechib olib qo‘lida ko‘tarib ketdi.

Shu payt Prechistenka ko‘chasidan shaldiryoq avtomobil chiqdi. Unda ikkita mast erkak va ularning tizzalarida aftini haddan tashqari yaraqlatib pardozlagan, egniga 28-yil modasi bo‘yicha tikilgan cholvor kiygan bir ayol o‘tirardi.

– Hoy boboy! – deb qichqirdi ayol do‘rillagan va xirillagan ovoz bilan, – bir poyini sotib ichibsan-da.

– Alqasrda otib olganga o‘xshaydi, – deb chiyilladi chap yondagi g‘irt mast erkak, o‘ng tomonda o‘tirgani esa boshini chiqarib chinqirdi:

– Otaxon, Volxonkadagi gazakxona ochiqmi? O‘sha yoqqa ketayotuvdik.

Professor ularga ko‘zoynagi osha o‘qrayib qaradi, og‘zidan papiroso tushib ketdi va shu onning o‘zida ularni butunlay xotirasidan faromush qildi. Bu payt Prechistenka xiyobonida quyosh mo‘ralay boshlagan, Jomening oltin qubbasi yal-yal yonardi. Oftob chiqqan edi.

### III BOB

## PERSIKOV ILINTIRDI

Voqeа bunday bo‘lgan edi. Professor o‘zining dono nigohini zarrabin ko‘ziga qadaganida umrida birinchi marta bu rang-barang nurlar gajagi ichida bitta yo‘g‘onrog‘i alohida ajralib turganini ko‘rib qoldi. Bu nur yorqin qizil rangda bo‘lib, uning nina singari ingichka uchi gajak ichidan chiqib turar edi.

Afsus va nadomatlar bo‘lsinki, bu nur olimning omilkor ko‘zini bir necha soniyaga rom qilib qo‘ygan edi.

Professor bu nur ichida nurning o‘zidan ming karra ahamiyatliroq va muhimroq bir narsani – zarrabin ko‘zgu si bilan obyektivini harakatlantirish oqibatida tasodifan dunyoga kelgan murg‘ak chaqaloqni ko‘rib qolgan edi. Olimni assistenti chaqirib olib ketganligi sharofati bilan zarrabinga qo‘yilgan amyoba bir yarim soat mobaynida mazkur nur ta’sirida bo‘lgan va oqibat mana bunday hol yuz bergen: to‘garakdagи donavor amyobalarning nur ta’siridan chetda bo‘lganlari shalvirab, chalajon yotgan bir paytda, shamshir tig‘idek o‘tkir nur tushgan yerda mudhish hodisalar ro‘y berayotgan edi. Qizil nur chizig‘i tushgan yerda hayot qaynardi... Rangpar amyobalar yolg‘on-oyoqlar chiqarishar va astoydil harakat qilib, o‘sha nur yo‘li tomon intilardilar, yetib olgach esa misoli mo‘jiza yuz bergandek, darhol jonlanib ketardilar. Qandaydir bir mavhum quvvat ularga hayot ruhini ufurayotgan edi.

Ular gala-gala bo‘lib yoprilib kelishar, nur ostidan joy olish uchun bir-birlari bilan jang qilishar edi. Nur tushgan yerda shiddatli urchish (ha, bu holni faqat shu so‘z bilan ifodalash mumkin edi) borardi. Ular Persikov besh qo‘ldek bilgan tabiatning barcha qortunlarini bosib-yanchib, uloqtirib tashlab, olimning shundoqqina ko‘z o‘ngida yashin tezligida urchishar, ko‘payishardi. Ular nur ostida bo‘lak-bo‘laklarga bo‘linishar va oradan ikki soniyagina vaqt o‘tmay, har qaysi bo‘lak yangi, sog‘lom organizmga (mavjudotga) aylanardi. Bu organizmlar ham bir lahzada ulg‘ayib kamolga yetishar va o‘z navbatida, ular ham yangi avlodni vujudga keltirishar edi. Qizil nur tushgan maydoncha keyinroq, butun to‘garak ham patirlab tug‘ilayotgan organizmlar uchun torlik qila boshladi, shunda muqarrar kurash boshlandi. Yangi tug‘ilganlar g‘azabga kelib, o‘zaro jang boshlashdi va ayovsiz ravishda bir-birlarini tilka-tilka qilishib, yamlamay yuta boshlashdi. Yangi dunyoga kelganlar orasida bu hayot-mamot jangida halok bo‘lgan jasadlar yotardi. Jangda, turgan gapki, saralar va zo‘ravonlar g‘olib chiqar edi. Mana shu sara organizmlar nihoyatda dahshatli edilar. Birinchidan, ularning jussasi oddiy amyobalardan taxminan ikki hissa katta edi, ikkinchidan esa o‘zlarining qandaydir johiltabiat va serg‘ayratligi bilan boshqa organizmlardan farq qillardilar. Ularning harakati shiddatli, yolg‘onoyoqlari, hech mubolag‘asiz, dengiz ro‘daposining paypaslagich oyoqlari kabi chaqqon ishlardi.

Ko‘zlari kirtayib, rangida qoni qolmagan, ovqat o‘rniga ham paydar-pay papiro tutatib asabiy kun kechirayotgan professor o‘sha voqeа sodir bo‘lgan kunning ertasi kechqurun ham zarrabindan boshini ko‘tarmay, amyobalarning yangi avlodini o‘rgandi, uchinchi kun esa u dastlabki manbani, ya’ni qizil nurni tadqiq qilishga o‘tdi.

Gorelkada gaz ohista pishillab yonar, ko‘chadan yana mashinalarning g‘uvullab o‘tgani, odamlarning oyoq tovushlari eshitilardi, shunda oshi ham, noni ham papiroslar bo‘lgan professor ko‘zlarini yarim yumib aylanuvchi kur-sining orqasiga suyandi.

– Ha, endi hammasi ravshan. Ularni nur tiriltirdi. Bu hali hech kim tadqiq ham, kashf ham qilmagan yangi nur. Qiziq, bu nur faqat elektr tokidan paydo bo‘lyaptimi, yo uni quyosh shulasidan ham olish mumkinmikin – hozir birinchi navbatda shuni aniqlash kerak, – deb g‘o‘ldirardi Persikov o‘zicha. Bu masalani tamomila aniqlash uchun yana bir kecha kerak bo‘ldi. Persikov uchta zarrabin orqali uchta nur tutdi, ammo quyoshdan hech nima ola bilmadi; keyin u bu holni shunday ifodaladi:

– Demak, bunday nur quyosh spektrida yo‘q bo‘lishi kerak... hm... xullas, bir so‘z bilan aytganda, uni faqat elektr nuridangina olish mumkinga o‘xshaydi. – U o‘z te-pasidagi sirlangan sharsimon chiroqqa mehr bilan qaradi, shirin xayolga toldi va Ivanovni qoshiga taklif qildi-da, unga bo‘lgan voqeani bat afsil gapirib berib, amyobalarni ko‘rsatdi.

Privat-dotsent<sup>1</sup> Ivanov bu manzarani ko‘rib dong qotib qoldi, u juda qattiq o‘kindi: shu oddiygina bir narsani, shu ingichkagina nurni, kim bo‘lmasin, chunonchi, Ivanovning o‘zi, nega avvalroq payqamagan ekan, azbaroyi shifo. Axir, bu dahshat-ku. Buni qarang-a!..

– Buni qarang, Vladimir Ipatich! – derdi ko‘zini zarrabin ko‘ziga qadagan Ivanov hayratga kelib. – Yo toyba, nimalar bo‘lyapti?!.. Ular zum o‘tmay katta bo‘lishyapti... Qarang, qarang!..

<sup>1</sup> Privat-dotsent – Inqilobdan oldingi Rossiyada oliy maktabda dars beruvchi muallimning unvoni va lavozimi bo‘lib, lotin tilida xususiy tarzda ilm beruvchi degan manoni bildiradi.

— Men ularni uch kundan beri kuzatyapman, — dedi Persikov ko‘ngli ko‘tarilib.

Keyin bu ikki alloma o‘rtasida quyidagi mazmunda musohaba bo‘lib o‘tdi: privat-dotsent Ivanov mazkur nurni zarrabindan tashqarida kattalashtirilgan hajmda olish uchun linza va ko‘zgular yordamida kamera yasamoqchi bo‘ldi. Ivanov, bu ish xamirdan qil sug‘irgandek oson ko‘chadi, deb umid qildi va hattoki, bunga qat’iy ishonch bildirdi. U, albatta, o‘sha nurni oladi, Vladimir Ipatich aslo shubha qilmasa ham bo‘ladi. Shunday deya turib, birdan sal duduqlanib qoldi.

Bu duduqlanishga darhol barham berish lozimligini sezgan Persikov luqma tashladi:

— Petr Stepanovich, — dedi u, — bu mavzudagi ishimni nashr qildirganimda, kameralarni siz ixtiro qilganingiz haqida, albatta, yozaman.

— O, buning ahamiyati yo‘q... Lekin, sirasini olganda...

Shu bilan ora ochiq bo‘ldi-qoldi. Shu ondan boshlab, nur Ivanovni ham o‘z domiga tortib ketdi. Persikov tobora ozib, sillasi qurib, kunlarni va har tunning yarmini zarra-bin tepasida o‘tirib o‘tkazayotgan bir paytda, Ivanov chiroqlar shulasidan yaraqlagan fizika kabinetida linzalar va ko‘zgularni birlashtirib bir butun moslama yassash bilan mashg‘ul bo‘ldi. Unga mexanik yordamlashdi.

Persikovning maorif xalq komissarligi orqali qilingan rasmiy iltimosidan so‘ng, Germaniyadan unga uchta posilka keldi: bular har xil ko‘zgular, shuningdek, ikki tomoni bo‘rtiq, ikki tomoni botiq va hattoki, tomonlari ham bo‘rtiq, ham botiq sayqallangan shishalardan iborat edi. Tinimsiz ter to‘kib ishlash natijasida, Ivanov axiri kamerani qurdi ham, unga qizil nurni ilintirdi ham. Agar o‘g‘ilbola gap qiladigan bo‘lsak, nurni dotsent zo‘r omilkorlik bilan ilintirdi: bu to‘rt santimetr qalinlikdagi o‘tkir va kuchli nur edi.

1-iyun kuni kamerani Persikovning xonasiga o'rnatishdi, shunda u darhol ishga jidd-u jahd bilan kirishib, qurbaqalarning shu nur bilan yoritilgan uvildirig'i ustiда tajriba o'tkaza boshladi. Bu tajribalar samarali natiјa berdi. Ikki kecha-kunduz mobaynida uvildiriqlardan minglab itbaliqlar chiqdi. Bu ham yetmagandek, oradan yana bir kun o'tishi bilan itbaliqlar dabdurustdan qurbaqalarga aylanishdi: ular shu qadar battol va ochofat edilarki, yarmisi shu asnodayoq qolgan yarmini yamlaymay yutib yubordi. Lekin mana shu tirik qolgan qurbaqalar hech qanday muddatni kutmay darhol uvildiriq qo'ya boshladi va ikki kun deganda yangi avlodni hech qanday nur-pursiz dunyoga keltirishdi – bular endi behisob darajada ko'p edi. Olimning xonasida qiyomat-qoyim boshlandi: itbaliqlar xonadan tashqariga chiqib, butun institutga tarqaldi, nafaqat terrariylarda, shuningdek, yerda, xonalarning burchak-burchaklarida xuddi botqoqdagidek quloqni qomatga keltiruvchi qurullahlar eshitilardi. Persikovning vajohatidan shundoq ham qo'rqib, jon hovuchlab yuradigan Pankrat endi uning ovozini eshitsa dahshatdan serrayib qoladigan bo'ldi. Bir haftadan keyin olimning o'zi ham es-hushidan ayrila boshlaganini his qildi. Butun institutni efir va kaliy sianidining hidi tutib ketdi, yuzidagi niqobni bemavrid yechib qo'ygan Pankrat sal bo'lmasa bu hiddan zaharlanib o'layozdi. Nihoyat, tez urchib hamma yoqni bosib ketayotgan botqoq ahlini zaharlab o'ldirishga muyassar bo'ldilar, xonalar shamollatildi.

– Bilasizmi, Pyotr Stepanovich, – dedi Persikov Ivanovga yuzlanib, – nur deyteroplazmaga<sup>1</sup>, umuman, tuxum-hujayraga hayratomuz ta'sir ko'rsatyapti.

---

<sup>1</sup> Deyteroplazma – uvildiriq sarig'i.

Sovuqqon, vazmin tabiat jentlmen Ivanov professorning gapini sal qo‘polroq ohangda bo‘ldi:

– Vladimir Ipatich, nima qilasiz deyteroplazmaga o‘x-shash ikir-chikir narsalar ustida bosh qotirib. Dangal gapi-raveraylik-da: siz ko‘z ko‘rib qulqoq eshitmagan yangilik kashf qildingiz, – Ivanov o‘zini zo‘rlab bo‘lsa ham, quyi-dagi gapni bazo‘r aytdi: – professor Persikov, siz hayot nurini kashf qildingiz. Persikovning soqoli o‘sgan rangpar chakaklariga xiyolgina qon yugurdi.

– Be, qo‘ysang-chi, – deb g‘o‘ldiradi u.

– Siz, – deb gapida davom etdi Ivanov, – siz katta dovrug qozonasiz... Mening boshim aylanyapti. Bilasizmi, – deb ehtiros bilan gapirardi u, – Vladimir Ipatich, sizning oldingizda Uels<sup>1</sup>ning qahramonlari quruq safsata, xolos... Men bo‘lsam, ularni ertak deb o‘ylagan edim... Esingizdam, uning „Xudolar taomi“ asari?

– Ha, roman edi, shekilli, – dedi Persikov.

– Ha-da, tavba, u mashhur asar-ku...

– Esimdan chiqqan, – deb javob qildi Persikov, – o‘qiganim esimda, lekin mazmuni yodimda yo‘q.

– Nega yodingizda bo‘lmas ekan, mana, o‘zingiz ko‘ring, – Ivanov oyna stol ustida yotgan meshqorin, aql bovar qilmaydigan kattalikdagi o‘lik qurbaqanining oyog‘idan ko‘tardi. Bu maxluqning basharasi o‘lganida ham bad-qahriligicha qolipti, axir bu dahshat-ku!

## IV BOB

### POP BEVASI DROZDOVA

Sababini Xudo biladi-yu, lekin Ivanovning aybi bilanmi yoki hayratomuz xabarlar, aslida, o‘z-o‘zidan shunaqa tez yoyiladigan xususiyatga ega bo‘ladimi, har holda, odam-

<sup>1</sup> Herbert Uels – ingliz fantast yozuvchisi.

lar bilan gavjum bu ulkan Moskvada birdan nur haqida va uning ixtirochisi professor Persikov to‘g‘risida duv-duv gaplar tarqaldi. To‘g‘ri, bu gaplar andak yuzaki va mubham edi. Mo‘jizakor kashfiyot to‘g‘risidagi mish-mishlar to iyul oyining o‘rtalarida „Izvestiya“ gazetasining 20-sahifasida „Fan va texnika yangiliklari“ sarlavhasi ostida yangi nurni sharhlovchi qisqagina bir xabar bosilib chiqmaguncha charog‘on poytaxt uzra xuddi o‘q tekkan parranda singari goh yo‘qolib, goh yana paydo bo‘lib turdi. U xabarda, IV dorilfu-nunning mashhur professori bir hujayrali organizmlarning yashash faoliyatini benihoya oshirish qobiliyatiga ega bo‘lgan nur kashf etgani, ammo hali uni tekshirib ko‘rish lozimligi haqida naridan beri gapirilgan edi. Qarangki, professorning ismi-sharifi „Pevsikov“ deb bosib yuborilgan edi.

Ivanov gazetani olib kelib, Persikovga maqolani ko‘r-satdi.

– „Pevsikov“mish, – deb to‘ng‘illadi Persikov o‘z xo-nasida kamera bilan mashg‘ul bo‘larkan, – qayoqdan dar-rov eshita qolishdiykin-a, bu takasaltanglar?

Taassufki, familiyaning buzib yozilishi professorni avj olib kelayotgan mash‘um voqealardan qutqara olmadi, bu voqealar maqola bosilib chiqqan kunning ertasigayoq bosh-lanib, Persikovning butun umrini barbod qildi.

Pankrat oldin eshikni taqillatib, so‘ng xonaga kirdi-da, Persikovning qo‘liga oliy nav silliq qog‘ozga bosilgan tashrifnomaga tutqazdi.

– U shatta, – dedi Pankrat qo‘rqa-pisa.

Tashrifnomaga chiroyli harflar bilan shunday deb yo-zilgan edi:

„Alfred Arkadyevich Bronskiy.

Moskvada chiqadigan „Qizil alanga“, „Qizil qa-lampir“, „Qizil jurnal“, „Qizil projektor“ jurnallarining hamda „Qizil Moskva oqshomi“ gazetasining xodimi“.

– Dumini tug u kasofatning, – dedi Persikov mijg‘ov ohangda va tashrifnomani bir urib stol tagiga tushirib yubordi.

Pankrat orqasiga o‘girilib, xonadan chiqdi, lekin besh daqiqadan keyin qo‘liga o‘sha tashrifnomaning ikkinchi nusxasini ushlab, iztirobli qiyofada yana kirib keldi.

– Nima, meni mayna qilmoqchimisan? – deb dag‘dag‘a qildi Persikov ko‘zlarini o‘qraytirib.

– GPU danman deyaptilar, – deb javob qildi rangi quv o‘chib ketgan Pankrat.

Persikov bir qo‘liga tashrifnomani oldi va uni ikki bo‘lak qilib yirtib yuborish maqsadida ikkinchi qo‘lidagi pinseltni stolga otdi. Lekin yirtmadi: tashrifnomada jimmador dastxat bilan shunday so‘zlar yozilgan edi.

*„Meni afv etishingizni, e’zozli professor, o’tinib so‘rayman, hamda jamoat ishi yuzasidan kaminani uch daqiqagagina qabul qilishingizni iltimos qilaman. GPU nashri bo‘lmish „Qizil Qarg‘a“ satirik jurnalining xodimi“.*

– Qani, chaqir-chi uni bu yoqqa, – dedi Persikov va bir entikib qo‘ydi.

Shu zahotiyoy Pankratning orqasidan sip-silliq yuzi xuddi moy surtilgandek yaltirovchi bir yigit paydo bo‘ldi. Uning xuddi xitoylarnikiga o‘xshab doim chimirilgan qoshlari, bir zum ham jim turmaydigan va hamsuhbatiga zinhor qaramaydigan ko‘zları odamni hayron qoldirardi. Bu yigit modaga amal qilib, mutlaqo benuqson kiyangan edi. Uning egnida tizzasigacha tushadigan uzun kamzul, pochalari nihoyatda keng shim, oyog‘ida tumshug‘i ot tuyog‘i singari yalpoq loklangan botinka bor edi. Yigit qo‘liga hassa, cho‘qqi shlapa va yondaftar ushlab olgan edi.

– Sizga nima kerak? – deb Persikov shunday dag‘dag‘a bilan so‘radiki, Pankrat shu zahotiyoy tashqariga qochib chiqib ketdi, – axir sizga meni band deb aytishdi-ku.

Yigit javob qaytarish o‘rniga professorga ikki marta: bir chapga, bir o‘ngga ta’zim qildi, keyin ko‘zlarini gir-gir aylantirib, butun xonani kuzatib chiqdi-da, nihoyat yondaftariga nimanidir yozib qo‘ydi.

– Men bandman, – dedi professor mehmonning ko‘ziga nafrat bilan qarashga urinarkan, ammo buning nafi bo‘lma-di, chunki uning ko‘zlarini hech tutqich bermasdi.

– O muhtaram professor, – deb gap boshladi yigitcha chiyildoq ovoz bilan, – huzuringizga bostirib kirib qimatbaho vaqtingizni olayotganim uchun sizdan ming bor uzr so‘rayman, ammo butun dunyoga ovoza bo‘lgan olamshumul kashfiyotingiz haqidagi xabarlardan voqif bo‘lgan jurnalimiz sizdan bu haqda biron izoh so‘rashga jur‘at etadi.

– Yana qanaqa olamshumul izoh? – deb chinqirdi Persikov va g‘azabdan ko‘karib ketdi, – men sizga hech qanday izoh-pizoh bermayman – majbur qila olmaysiz... Men bandman... juda-juda bandman.

– Nima ustida ishlayapsiz? – shirinsuxanlik bilan so‘radi yigit va yondaftariga ikkinchi marta nimanidir qayd qilib qo‘ydi.

– Ochig‘i, men... iye, nima? Men haqimda biron nima yozmoqchimisiz deyman?

– Ha, – deb javob qildi yigitcha va birdan yondaftariga nimalarnidir tirillatib yoza ketdi.

– Birinchidan, men olib borayotgan ishimni nihoyasiga yetkazmagunimcha hech nimani matbuotda e’lon qilmoqchi emasman... sizning gazetalariningizda-ku mutlaqo... Ikkinchidan, bu gaplarni siz qayoqdan bildingiz o‘zi?... – Shunda birdan Persikov o‘zini yo‘qota boshlaganini his qildi.

— Siz yangi hayot nurini kashf etganmishtsiz — shu ma'lumot to'g'rimi?

— Yana qanaqa yangi hayot? — professorning g'azabi qaynay boshladi, — Qayoqdan oldingiz bu quruq safsatani? Men shug'ullanayotgan nur hali mutlaqo tadqiq etilmagan, umuman, hech nima ma'lum emas hali. Ehtimol, u protoplazmaning yashash faoliyatini biroz oshirar...

— Necha marta? — deb shosha-pisha luqma tashladi yigitcha.

Bu savol Persikovni tamoman dovdiratib qo'ydi... „Obbo sulloh-ey. Bu nima degan gap o'zi?“

— Savolningizning tuturug'i yo'q... Xo'p, aytaylik, taxminan, ming marta...

Yigitchaning ko'zida vahshiyona quvonch uchqunlari porladi.

— Demak, mahobatli organizmlar (mavjudotlar) paydo bo'lar ekan-da?

— Qayoqda, deysiz. Rost, men olgan organizmlar odadagidan xiyol kattaroq... Undan keyin, ayrim yangi xususiyatlarga ham ega... Lekin bu ishda eng muhimi katta hajm emas, balki urchish va ko'payishning aql bovar qilmaydigan darajada jadallahsganidir, — Persikovning og'zidan bexosdan chiqib ketgan bu gaplar o'z boshiga balo bo'ldi, buni payqab qolgan professor dahshatga tushdi. Yigitcha bir sahifani to'ldirib, ikkinchi sahifani ochdi-da, yana tiril latib yozishda davom etdi.

— Lekin siz yozmang axir! — deb xirilladi yigitchaning tuzog'iga ilinib, endi unga beixtiyor yon bosayotganidan ruhi tushib ketgan Persikov. — Nimalarni yozapsiz o'zi?

— Qurbaqa uvildirig'idan ikki kecha-kunduzda ikki millionta itbaliq olish mumkinmish — shu to'g'rimi?

– Qancha uvildiriqdan? – deb baqirdi badtar jahli chiqa boshlagan Persikov. – Siz o‘zi hech qachon o‘sha uvildiriqni, aytaylik, baqa uvildirig‘ini ko‘rganmisiz?

– Yarim qadoq uvildiriqdan! – deb javob qildi yigitcha pinagini ham buzmay.

Persikovning qoni qaynab ketdi.

– Axir kim uvildiriqni qadoqlab o‘lchaydi? Tuf-ey. Nimalar deb vaysayapsiz o‘zi? To‘g‘ri, agar yarim qadoq qurbaqa uvildirig‘ini oladigan bo‘lsak... unda, ehtimol... jin ursin... o‘sha, siz aytgancha, balki, undan ham ancha ko‘proq olish mumkindir.

Yigitchaning ko‘zlarini porlab ketdi, shunda u bir yozishda yana bir sahifani to‘ldirib tashladi.

– Bu kashfiyotingizning chorvachilikda olamshumul burilish yasashi haqidagi gaplar to‘g‘rimi?

– Axir bu gazetachilar savoli-ku, – dedi g‘ijinib Persikov, – keyin, umuman, men sizning bunaqa tuturuqsiz gaplarni yozishingizga ruxsat bermayman. Basharangizdan ko‘rib turibman – siz razil bir narsa yozyapsiz.

– O‘tinib so‘rayman, professor, fotosuratingizni ber-sangiz, – deb iltimos qildi yigitcha yondaftarini yoparkan.

– Nima? Mening suratimni-ya? O‘sha qasang‘i jurnal-changizga suratimni beraymi? Manavi kurakda turmaydigan maqolangiz bilan birga suratimni ham bosib chiqarmoqchimisiz hali? Yo‘q, yo‘q, yo‘q... Umuman, men bandman... Marhamat qilib chiqib keting...

– Eski surat bo‘lsa ham mayli. Keyin darhol qaytarib beramiz.

– Pankrat! – deb baqirdi darg‘azab professor.

– Salomat bo‘lsinlar! – dedi yigatcha va zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Pankrat kirmadi, balki uning o‘rniga eshik orqasidan allaqanday mashinaning bir me'yorda antiqa g‘ijirlashi,

taqaga o‘xshagan narsaning polga gurs-gurs urilishi eshitildi-yu, xonaga choyshabbop movutdan tikilgan etagi uzun avra kamzul bilan shim kiygan haddan tashqari semiz bir odam kirib keldi. Uning chap oyog‘i yasama bo‘lib, shaqillab, gursullayotgan narsa shu oyoq edi, u portfel ko‘tarib olgan edi. Uning za’faron dum-dumaloq, silliq yuzida navozishli tabassum aks etdi. U professorga harbiychasiga ta’zim qilib, so‘ng qaddini rostlagan edi, yasama oyog‘i „shiq“ etdi. Persikov uni ko‘rib lol bo‘lib qoldi.

— Janobi professor, — deb gap boshladni notanish odam xirqiroq, ammo yoqimli ovoz bilan, — tinchingizni buzgan men bandayi kamtarinning gunohimdan o‘tsangiz.

— Siz muxbirmisiz? — deb so‘radi Persikov. — Pankrat...

— Yo‘q, unday emas, janobi professor, — deb javob qildi baqaloq. — Ijozatingiz bilan o‘zimni tanishtiray — uzoqqa qatnaydigan kema kapitani hamda Xalq Komissarlarasi Soveti organi bo‘lmish, „Sanoat axborotnomasi“ gazetasi ning xodimiman.

— Pankrat! — deb baqirdi jazavasi tutgan Persikov, ayni shu payt burchakda qizil chiroq yonib, telefon mayin jiring-ladi. — Pankrat! — deb takrorladi professor, — eshitaman...

— Fersayen zi bitte, hyerr professor, — nemis tilida xirilay boshladni telefon, — das ix shtyors. Ix bin mitarbayer des Berliner Tageblats...<sup>1</sup>

— Pankrat, — deb baqirdi professor telefon trubkasiga: — bin momental zer besheftigt und kayn zi desxalb yetst nixt yempfangen<sup>2</sup>. Pankrat..

Bu mahal institutga kiraverishdagi dahlizda telefon ust-ma-ust jiringlardi.

<sup>1</sup> Bezovalta qilganim uchun meni kechiring, janob professor. Kamina „Berliner Tageblat“ning xodimiman (*nem.*).

<sup>2</sup> Men hozir nihoyatda bandman, shu bois sizni qabul qila olmayman (*nem.*).

– Bronnaya ko‘chasida yuz bergen mudhish qotillik... – gazeta sotuvchi bolalar saraton quyoshi taftida cho‘g‘dek qizigan, odamlar bilan gavjum ko‘chada, chiroqlar bilan yoritilgan joylarda, goh g‘uv-g‘uv o‘tayotgan avtomobillar orasida, goh fonus tagida ko‘rinib qolishardi: – Pop bevasi Drozdovaning tovuqlariga kelgan dahshatli o‘lat; bevaning surati ham bosilgan. Professor Persikov ajabtovur hayot nurini kashf qilgan.

Moxovaya ko‘chasida ketayotgan Persikov gandirak-lab ketib, sal bo‘lmasa avtomobil tagiga kirib ketayozdi va jon achchig‘ida gazeta sotayotgan bolaning qo‘lidagi gaze-taga tashlandi.

– Uch tiyin, grajdanin! – deb chiyilladi bola va yo‘lkadan o‘tib borayotgan olomonga turtinib yana chinqirdi: „Qizil oqshom“ gazetasi... kashf etilgan g‘aroyib mo‘jiza...

Esankirab qolgan Persikov tepasiga fonus o‘rnatilgan simyog‘ochga suyanib gazetani ochdi. Ikkinchisi sahifaning chap burchagida bo‘yog‘i surkalib ketgan ramka ichida boshi kal, bejo ko‘zлari so‘qir, pastki jag‘i osilib tushgan bir odamning surati bosilgan bo‘lib, bu – Alfred Bronskiyning musavvirlilik ijodi mevasi edi. Surat tagida „Mavhum qizil nurni kashf etgan V. I. Persikov“, degan so‘zlar bor edi. Undan pastda „Olamshumul jumboq“ degan sarlavha ostidagi maqola shunday so‘zlar bilan boshlanardi:

„*O‘tiringlar, – dedi bizga takalluf bilan hurmatli olimimiz Persikov...*“ Maqola tagiga: „Alfred Bronskiy (Alonso)“ deb imzo qo‘yilgan edi. Universitet tomi ustida och-yashil nur porladi, u yerda ming-minglab elektr chiroqlaridan „Gapiruvchi Gazeta“ degan porloq so‘zlar paydo bo‘ldi, shu zahotiyoy bir zumda Moxovaya ko‘chasi odamlarga to‘lib ketdi.

„*O‘tiringlar... – degan yoqimsiz chiyildoq ovoz eshitildi radio karnayidan, bu Alfred Bronskiyning ming karra*

*kuchaytirilgan ovoziga judayam o'xshab ketardi, – dedi bizga takalluf bilan hurmatli olimimiz Persikov! – Men ko'pdan beri Moskva proletarlarini o'z kashfiyotim nati-jalari bilan tanishtirish ishtiyoqida edim...“*

Persikovning orqasida yasama oyoqning ohista g'ijir-lagani eshitildi va kimdir uning yengidan tortdi. Olim orqasiga o'girilib, yasama oyoq sohibining za'faron, dumaloq yuzini ko'rди. Uning ko'zлari nam, labi pir-pir uchardi.

– Siz, janob professor, meni g'aroyib kashfiyotingiz natijasi bilan tanishtirishni xohlamadingiz, – dedi u g'am-gin ohangda va chuqur xo'rsinib qo'ydi. – Esiz, bir yarim chervon qulog'ini ushlab ketdi. U ma'yus kayfiyatda universitet tomiga boqdi, u yerda radio karnayining tim qora komida ko'rinas Alfreдnинг jini qo'zirdi. Persikovning bu baqaloq odamga negadir rahmi keldi.

– Men, – deb g'o'ldiradi u osmondan kelayotgan har bitta so'zni g'ijinib tinglarkan, „O'tiring“ demagan edim unga. U uchchiga chiqqan sulloh ekan, yaramas. Uzr, siz meni kechiring, ish bilan band bo'lib turganingda birov tepangda xirapashshadek g'ing'illab tursa, ko'zingga b... day ko'rinar ekan... Bu gapim aslo sizga taalluqli emas, albatta...

– Siz menga, janob professor, hech bo'lmasa o'sha kamерangizning shakl-shamoyilini ta'riflab berarsiz? – dedi yog'ochoyoq odam mungli ovozda yaltoqlanib. – Endi, baribir, kashfiyotingiz sir bo'lmay qoldi-ku...

– Yarim qadoq uvuldiriqdan uch kun mobaynida shu qadar ko'p itbaliqlar paydo bo'ladiki, ularni aslo sanab adog'iga yetib bo'lmaydi, – deb bo'kirardi karnay ichidagi ko'rinas odam.

– Du-du, – deb xirilliardи Moxovaya ko'chasidan g'i-zillab o'tayotgan avtomobillar.

– O‘ho‘-ho‘... Voy bo‘-o‘... Yo tavba-a... – deb hayratmuz baqir-chaqir qilardi olomon boshini tom tarafga cho‘zgancha.

– Ablahni qarang! A? – deb pichirlardi Persikov yоg‘ochoyoqqa g‘azabdan dag‘-dag‘ titragancha. – Siz nima deysiz kasofatning bu ishiga? Yo‘q, men uning ustidan shikoyat qilaman.

– Ha, ablahlik bu, – dedi baqaloq odam.

Shu payt birdan binafsharang o‘tkir shu’la professorning ko‘zini qamashtirdi va hamma yoq – fonus o‘rnatilgan simyog‘och ham, to‘sinlar yotqizilgan ko‘chaning bir qismi ham, sariq rangdagi devor ham, – tomoshatalab olomonning chehralari ham yorishib ketdi.

– Sizni suratga olishyapti, janob professor, – faxrlanib pichirladi baqaloq va professorning yengiga xuddi qadoq toshdek osilib oldi. Havoda allaqanday narsa tirillay boshladi.

Persikov yonidagi qadoq tosh bo‘lib osilgan odamni sudragancha olomon orasini yorib chiqishga urinarkan:

– E, jin ursin hammasini! – dedi hasrat bilan. – Hey, taksomotor, Perechistenkaga hayda.

24-yilda chiqarilgan, siri ko‘chib, eskirib ketgan mashina yo‘l yoqasida to‘xtab potillay boshladi, professor kanadek yopishib olgan baqaloq odamdan qutulishga harakat qilib, tez mashinaga chiqdi.

– Siz menga xalaqit qilyapsiz, – deb pichirlardi u binafsharang shu’ladan ko‘zlarini mushtlari bilan berkitishga urinarkan.

– Malaya Bronnayada professor Persikovni bola-chaqlari bilan birga chavaqlab ketishi... – degan baqiriqlar eshitilardi tevarak-atrofdan.

– Menda hech qanaqa bola-chaqa yo‘q, yaramaslar, – deb baqirdi Persikov, shu payt kutilmaganda uni og‘zi

ochiq, ko‘zi chaqchaygan holda yon tomonidan fotoapparat „shiq“ etib suratga olib qo‘ydi.

Taksimotor guvullab, paqillab joyidan jildi va olomon orasini yorib o‘ta boshladi.

Baqaloq odam ham bu payt mashina o‘rindig‘ida professorning biqinini pechkadek qizdirib o‘tirardi.

## V BOB

### **TOVUQ VOQEASI**

Kostroma guberniyasining Steklovsk uyezdidagi sobiq Troitsk, hozir esa Steklovsk, deb yuritila boshlagan gadoy-topmas shaharchada, endilikda „Xususiy“ deb nom berilgan sobiq Jome ko‘chasidagi uy ostonasiga ro‘mol o‘rab, kulrang, gulli chit ko‘ylak kiygan ayol chiqib, ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Sobiq jomening sobiq hazrati buzrugni Drozdrovning bevasi bo‘lmish bu ayol jonholatda ayyuhannos solardi. Sal vaqt o‘tmay ko‘chaning narigi betidagi uy derazasida sholro‘mol o‘ragan bir xotinning boshi ko‘rindi.

– Nima gap, Stepanovna, – deb so‘radi xotin, – yo yanimi?..

– Voy, o‘n yettinchisi, – dedi Drozdrovning bevasi o‘krib-o‘kirib yig‘larkan.

– Voy, essizgina-yeys, – deb boshini sarak-sarak qildi sholro‘mol o‘ragan xotin, – axir bu qanday ko‘rgilik, aylanay? Xudoning qahri kelyaptimi deyman, chamamda. Nahotki bunisiyam harom o‘lgan bo‘lsa?

– Voy, sho‘rginam quridi-ku, Matryona, – derdi pop bevasi o‘pkasi to‘lib yum-yum yig‘larkan, – kelib o‘zing ko‘r sho‘rlik tovug‘imga nima bo‘lganini.

Qiyshayib ketgan odmigina panjara eshikcha ochilib, yalangoyoq Matryona o‘nqir-cho‘nqir va bilq-bilq tuproq

ko‘chani kesib o‘tdi, ko‘zyoshdan ikki yuzi jiqqa ho‘l bo‘lgan pop bevasi uni tovuqxonasiga boshlab kirdi.

Shuni aytib qo‘yish joizki, dinga qarshi tashviqot oqibatida dili vayron bo‘lgan padari buzruk Savvatiy Drozdov 26-yilda bandalikni bajo keltirganidan keyin, uning bevasi noumid shayton, dedi-yu zum o‘tmay quling o‘rgilsin tovuqchilik xo‘jaligini barpo qildi. Ammo bevaning ishi yurishib, ravnaq topa boshlashi hamono unga shunaqangi katta soliq solishdiki, oqibat, bu tovuqchilik xo‘jaligi sal bo‘lmasa tanazzulga yuz tutgan bo‘lardi. Yaxshiyam insofli odamlar bor ekan deng, shular mahalliy ma’muriyat nomiga, menkim, bir beva ayol tovuqchilik mehnat artelini tashkil qilmoqchiman, degan mazmunda ariza yozishni maslahat berishdi. Bu artelga Drozdovaning o‘zi, uning sadoqatli oqsochi Matryoshka hamda bevaning jiyani garang qiz a’zo bo‘lib kirishdi. Qarabsizki, bevani soliqdan ozod qilishdi, natijada, uning tovuqchilik xo‘jaligi shu qadar rivojlanib ketdiki, 28-yilga kelganda, bevaning gir aylanasiga tovuq kataklari qurib tashlangan sahni tuproq hovlisidagi tovuqlar 250 taga yetdi, ular orasida hatto ko‘xinxina zotidagi tovuqlar ham bor edi. Bevaning tuxumlari endi har yakshanba kuni Steklovsk bozorida va Tambovda sotila boshladi, ba’zan uning tuxumlarini hatto sobiq „Chechkining Moskvadagi pishloq va sariyog“ do‘konii peshtaxtalarida ham ko‘rish mumkin edi.

Ammo shu bugunning o‘zida ertalabdan beri bevaning o‘n yettinchi tovug‘i bramaputra zotli, sevikli kokildor tovuqning mazasi qochdi. U hovlida tentirab yurarkan, nuqlus qusardi. „Qurrr... rr... qa-a-a... qa-qa – derdi kokildor va go‘yo quyosh bilan vidolashayotgandek, boshini ko‘tarib, ma’yus ko‘zlarini osmonga tikardi. Artel a’zosi Matryoshka tovuqning tumshug‘i oldida cho‘qqayib olib dik-dik sakrarkan, qo‘lidagi suvni unga tutardi.

– O'rgilay sendan, kokildorim... ma, tu-tu-tu... suvdan ichvor, tasadduq – deb yolvordi Matryoshka qo'lidagi idishni tovuqning tumshug'iga tiqarkan, lekin kokildor suvdan yuz o'girdi va tumshug'ini katta ochib, boshini osmonga ko'tardi. Keyin u birdan qon quса boshladi.

– Voy o'lmasam! – deb chiyilladi Matryoshka ikki qo'-li bilan soniga shapatilar ekan. – Nimalar bo'lyapti o'zi, a? Nuqlul laxta-laxta qon qusyapti-ku sho'rlik. O'lay agar, tovuqni ham odamga o'xshab ichburuq bo'lganini umrim bino bo'lib endi ko'rishim.

Bu bechora kokildorga qarata aytilgan so'nggi xayrashuv so'zлari bo'ldi. Tovuq birdan umbaloq oshib, yonboshiga yiqildi-da, tumshug'ini tuproqqa tiqib, ko'zi olayib ketdi. Keyin chalqancha yotib, ikkala oyog'ini tikkaytir-di-yu, qilt etmay qoldi. Matryoshka idishdagi suvni chayqatib to'kkancha o'kirib yig'lab yubordi, pop xotini – artel raisasi unga qo'shilib yig'ladi, shunda qo'shni xotin raisaning qulog'iga engashib pichirladi:

– Stepanovna, tezaging bo'lay, tovuqlaringga ko'z tekkan. Axir o'zing o'ylab ko'r, hech zamonda tovuqlar ham shunaqa dardga chalinadimi? O'lay agar, tovuqlaringni kimdir sehrlab qo'ygan.

– Bu meni ko'rolmagan dushmanlarimning ishi, – deb ayyuhannos soldi pop bevasi ko'zini ko'kka tikib. – Bir kami endi meni qora go'rga tiqish qoluvdi.

Pop bevasining bu savoliga tovuqxonadagi xo'rozning baralla qichqirgani javob bo'ldi, keyin u yerdan patlari yulingan, cho'pdek oriq bir xo'roz xuddi pivoxonadan yuragi taka-puka bo'lib chiqqan mast odamga o'xshab, yonlama-siga pildirab chiqdi. So'ng ko'zlarini ola-kula qilib, xotin-larga vahshiyona tikildi-da, bir yerda sal depsinib turib, xuddi burgut yanglig' qanotlarini yoydi, lekin uchib ketmadi, balki uzun tizginga bog'lab, o'ynatilayotgan bedov

singari hovlini gir aylanib Yugura boshladi. U hovlini uch marta aylanib chiqib, birdan taqqa to'xtadi, ko'ngli aynib, tevarak-atrofiga qon tupira boshladi, keyin umbaloq oshib yiqildi-yu, oyoqlari xuddi kema ustunlaridek osmonga ko'tarilib, tarrakdek qotdi-qoldi. Ayollar uv solib yig'lab, butun hovlini boshlariga ko'tarishdi. Shunda tovuq kataklaridan eshitilgan bezovta qaqolashlar, qanot qoqishlar-u to's-to' polon ayollar yig'isiga jo'r bo'ldi.

— Ana, aytmadimmi ko'z tekkan deb, — donishmandona fikr yuritdi qo'shni ayol, — tezroq hazrat Sergiyni chaqir, duo o'qib qo'yisin.

Kechki soat olti edi. Quyosh ufqqa yonboshladi, u navnihol kungaboqarlarning yalpoq basharalari orasidan alangali barkash bo'lib mo'ralardi. Shu payt jome ibodatxonasining piri hazrat Sergiy tovuqchilik arteli joylashgan hovlida duo o'qib bo'lib, bo'ynidagi yepitraxilni<sup>1</sup> yechdi. Bu marosimni tomoshatalab odamlar eskirib ketgan panjara devor osha, ayrimlari esa shu devor tirqishidan mo'ralab kuzatishdi. Motamsaro beva xochni o'pdi-da, bir so'mlik sap-sariq, yirtiq qog'oz pulni ko'zyoshlari bilan shilta qilib, hazrat Sergiyga uzatdi, hazrat esa xo'rsinib qo'yib, bizlar parvardigorning qahrini keltirmoqdamiz, degan ma'nda bir nimalarni g'o'ldiradi. Hazrat Sergiy bu gapni aytar ekan, parvardigorning aynan nimadan qahrlanayotganini juda yaxshi biladiganday, ammo bilgani bilan, baribir, uni aytmoqchi emasday bo'lib ko'rinardi.

Shu marosimdan keyin, ko'chaga to'plangan olomon tarqaldi. Tovuqlar, odatda, barvaqt pinakka ketishadi, shu bois pop xotini Drozdovaning qo'shnisinikida birvaraka-yiga uchta tovuq bilan bitta xo'roz jon taslim qilganini hech

---

<sup>1</sup>Yepitraxil — xristian dinida ibodat paytida ruhoniy ota bo'yniga solib turadigan zar rishtali uzun mato.

kim payqamadi. Bular ham xuddi Drozdovaning tovuqlari kabi o‘limi oldidan qon quşishgan, faqat bu falokat eshi-gi berk tovuqxona ichida, hech qanday shovqin-suronsiz yuz bergen edi. Xo‘roz qo‘ndoqdan qulab, boshi bilan yerga tushgan-u, til tortmay o‘lgan. Endi bevaning qolgan tovuqlariga kelsak, ular ham duo o‘qilib bo‘lgandan so‘ng, to qosh qorayguncha harom qotib, tovuq kataklari mutlaqo huvullab qolgan edi, harom qotgan tovuqlar kataklarda to‘p-to‘p bo‘lib yotardi.

Ertalab butun shahar qattiq vahimaga tushib uyg‘ondi, chunki tovuq voqeasi dahshatli, g‘ayrita’rif tus olgan edi. Xususiy deb yangi nom qo‘yilgan ko‘chada choshgoh-gacha atigi uchta tovuq tirik qolgan edi; bu tovuqlar ham uyezd moliya inspektori ijaraga turgan eng chekka uyda edi, ammo ular ham soat birgacha nobud bo‘lishdi. Kechga borib Steklovsk shaharchasi xuddi ari uyasidek g‘uvuillab, g‘ujg‘on o‘ynay boshladi, butun shaharcha bo‘ylab hamma yerda „o‘lat“ degan dahshatli so‘z og‘izdan og‘izga o‘tib yurdi. Drozdovaning familiyasi „Qizil Jangchi“ nomli mahalliy gazetada „Nahotki bu tovuq o‘lati bo‘lsa?“ degan maqola tagida bosilib chiqdi. Keyin bu maqola Moskva gazetalarida ko‘chirib bosildi.

Professor Persikovning hayoti g‘ayritabiyy tarzda notinch va hayajonli o‘ta boshladi. Bir so‘z bilan aytganda, uning bunday vaziyatda ishlashi mutlaqo mumkin bo‘lmay qoldi. Alfred Bronskiydan qutilgan kunning ertasiga u institutda, o‘z xonasidagi telefonni uzib qo‘ydi, ya’ni go‘sakni joyidan olib qo‘ydi, shu kuni kechqurun esa professor Oxotniy ryad ko‘chasi bo‘ylab tramvayda uyiga keta turib, kattakon bir uyning tomida qora harflar bilan yozilgan „Ishchi gazetasi“ degan so‘zlar ostida minglab elektr lampochkalari yordamida vujudga kelayotgan o‘z qiyofasini ko‘rdi: u, ya’ni professor ko‘karib, lipillab,

bo‘lak-bo‘laklarga bo‘linib taksi kajavasiga chiqib o‘tirar, adyolga o‘rangan bahaybat bir shar professorning yengiga yopishib olib, uning orqasidan mashinaga chiqardi. Tom boshiga o‘rnatilgan oppoq ekrandagi professor binafsharang nurdan ko‘zlarini mushtlari bilan to‘sdi. Keyin chirroqlar yordamida shunday yozuv paydo bo‘ldi: „*Professor Persikov avtoda ketayotib, mashhur muxbirimiz kapitan Stepanovga izoh bermoqda*“. Darhaqiqat: Volxonkadagi Iso jomesi yonidan sharti ketib parti qolgan bir avtomobil g‘izillab o‘tdi, unda professor chayqalib borar, ko‘rinishidan xuddi qopqonga tushgan bo‘riga o‘xshardi.

— Bular odam emas, g‘irt iblis-ku, — deb to‘ng‘illadi tishini g‘ijiirlatib zoolog olim.

Shu kuni kechqurun professor Prechistenkadagi uyiga kelganida ro‘zg‘or sohibasi Marya Stepanovna, qonimga tashna qilib yuborishdi, deb uning qo‘liga o‘n yettita kichkina-kichkina qog‘ozcha tutqazdi: bu qog‘ozchalarga professor yo‘q paytida qo‘ng‘iroq qilgan odamlarning telefon raqamlari yozilgan edi. Professor u qog‘ozlarni endi yirrib tashlamoqchi bo‘lgan edi, birdan to‘xtab qoldi, chunki telefon raqamlaridan birining yoniga „*Sog‘liqni saqlash xalq komissari*“ degan so‘zlar ilova qilingan edi.

— Bu qanaqasi, deya azza-bazza ajablandi darveshtabiat olim. — Ularga bir balo bo‘lganmi o‘zi?

Shu kuni kechqurun soat o‘n-u chorakda eshik qo‘ng‘irog‘i jiringlab, ust-boshi nihoyatda serhasham va yaltiroq bir grajdanim kirib keldi-yu, professor u bilan musohaba qilishga majbur bo‘ldi. Professor uning: „*Sovetlar Respublikasidagi chet el vakolatxonalariga tegishli tijorat bo‘limlarining muxtor rahbari*“ degan so‘zlar yozilgan, ammo ism-sharifi ko‘rsatilmagan tashrifnomasini o‘qiganidan keyin bu odamni qabul qilgan edi.

— Ming la’nat! — deb xirilladi Persikov qo‘lidagi lupa bi-

lan allaqanday diagrammalarni yashil movut ustiga tashlar ekan, so‘ng Marya Stepanovnaga bunday dedi: – Qani, bu yoqqa, xonaga chaqiringchi o‘scha muxtor vakilni.

– Xo‘s, xizmat? – deb Persikov xonaga kirgan boshliqqa shunday dag‘al ohangda gapirdiki, u bir seskanib tushdi. Persikov ko‘zoynagini qansharidan peshonasiga, keyin yana qaytatdan qanshariga qo‘ndirdi-da, mehmonning yuziga qat-tiq tikildi. Qimmatbaho bezak buyumlar taqqan, ust-boshi jilolangan, loklangan bu odam boshdan oyoq yaraqlab turardi, uning o‘ng ko‘ziga monokl<sup>1</sup> qo‘ndirilgan edi. „Basharasi muncha sovuq“, deb ko‘nglidan o‘tkazdi Persikov.

Mehmon gapni uzoqdan boshladi, ya’ni sigarasini tutatib olishga ijozat so‘radi, buning oqibatida, Persikov istar-istamas zo‘rg‘a joy taklif qildi unga. Shundan so‘ng, mehmon o‘zining bemahalda tashrif buyurgani uchun uzundan uzun qilib uzr so‘radi: „Lekin... janobi professor ni kunduz kuni tutish... hi-hi... pardon... topish amri ma-hol“. (Mehmon xuddi sirtlon kabi qaqillab kulardi).

– Ha, men bandman, – deb qisqagina javob qildi Persikov.

Bu javobni eshitgan mehmon ikkinchi marta junjikib ketdi.

– Ha, bemahal bo‘lsa ham, sizdek ma’lum va mashhur olimni bezovta qilishga jur’at etdim, – dedi u, – vaqt g‘animat, deydilar... sigaram xalal bermayaptimi sizga, professor?

Persikov bir nima deb g‘o‘ldirab uning chekishiga ruxsat berdi.

– Bilishimcha, professor hayot nurini kashf etganmishlarmi?

– Be, qanaqa hayot nuri? Hammasi gazetachilarning uydirmasi, – dedi Persikov biroz jonlanib.

---

<sup>1</sup> Monoel – faqat bitta ko‘zga tutiladigan ko‘zoynak shishasi.

– E, yo‘-o‘q, he-he-he... haqiqiy olimlarning asl fazilati kamtarlik ekanligini kamina juda yaxshi tushunaman... bu narsa isbotga muhtoj emas... Bugun biz har yoqdan yog‘ilib kelayotgan telegrammalar haqida gaplashaylik... Jahonshumul shaharlar, chunonchi: Varshava va Riga professor kashf etgan nurdan voqifdir. Professor Persikovning nomi butun yer yuzida tilga olinmoqda... Butun dunyo teran sukut saqlab professor Persikovning ishini kuzatmoqda... Lekin Sovet Rossiyasida olimlarning ahvoli naqadar og‘ir ekanligi barchaga kundek ravshan. Antr nu sua di...<sup>1</sup> Bu yerda hech qanday begona odam yo‘qmi?.. Taassufki, bu yerda olimlar mehnatini qadrlamaydilar, mana shu sabablarga ko‘ra, kamina professor bilan muzokara olib borish maqsadida kelgan edim... Qisqasi, ajnabiy davlatlardan biri professor Persikovga, uning tajribalari ravnraqi uchun mutlaqo xolisalillo yordam taklif qilmoqchi. Quruq gap quloqqa yoqmas, deyilgan muqaddas kitobda. Xullas, 19- va 20-yillarda, ya’ni, haligi, hi-hi... inqilob davrida professorning nihoyatda mushkul ahvolga tushgani mazkur davlatga ma’lum. Turgan gapki, bu suhbat qat’iyan sir tutilmog‘i lozim... ya’ni professor o‘z qilayotgan ishining natijasi bilan o‘shal davlatni tanishtiradi, davlat esa buning evaziga professorni mablag‘ bilan ta’minlaydi. Axir siz kamera yasagansiz-u, o‘sha kameraning tarhi bilan tani shish bizni qiziqtiradi...

Mehmon shunday deb turib, kamzulining qo‘yin cho‘ntagidan bir dasta qordek oppoq qog‘oz chiqardi...

– Professor hozirning o‘zida, bo‘nak sifatida, masalan, qandaydir arzimagan 5 000 so‘m olishi mumkin... tilxatning ham hojati yo‘q... agar professor tilxat haqida gap ochadigan bo‘lsa, muxtor tijorat rahbarini xafa qilgan bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Gap shu yerda qolsin-u... (fr.)

— Yo‘qol... — deb Persikov shunday dahshatli ovoz bilan baqirdiki, hatto mehmonxonada turgan pianinoning ingichka ovoz beruvchi torlari ingrab yubordi.

Mehmon shu qadar tez g‘oyib bo‘ldiki, g‘azabdan vujudi dag‘-dag‘ qaltirayotgan Persikov bir daqiqadan keyin, haligi odam haqiqatan ham kelganmidi, yo menga shunday tuyuldimi, deb shubha qila boshladи.

— Uning kalishi-ku?! — deb baqirdi yo‘lakka chiqqan Persikov bir daqiqadan keyin.

— Unutib qoldiriptilar chog‘i, — deb javob qildi dag‘-dag‘ titrab turgan Marya Stepanovna.

— Qanday tashlab yuboraman? Birdan kalishini olgani qaytib kelsa-chi?

— Bo‘lmasa, uy qo‘mitasiga topshiring. Tilxat talab qiling. Qorasini ham ko‘rmay bu kalishning. Qo‘mitaga olib boring. Qabul qilib olishsin josusning kalishini...

Marya Stepanovna cho‘qingancha bir juft ajoyib kalishni qo‘liga oldi-da, uni orqa eshikdan olib chiqib ketdi. O‘sha yerda, eshik orqasida birpas turgach, kalishni qaznoqchaga yashirib, uyga qaytib kirdi.

— Topshirdingizmi? — deb o‘dag‘ayladi Persikov.

— Topshirdim.

— Tilxatni menga bering.

— Voy, Vladimir Ipatich. Axir rais savodsiz-ku...

— Hoziroq-oq. Darhol. Tilxat. Qo‘limda. Bo‘lishi. Shart. Raisning o‘rniga, mayli bironta savodxon kasofat imzo cheka qolsin.

Marya Stepanovna bunga javoban faqat bosh chayqab, uydan chiqди, chorak soatdan keyin qo‘lida tilxat bilan qaytib keldi.

„Qo‘mita jamg‘armasi uchun prof. Persikovdan 1 (bir) juft kalish olindi. Kolesov“, — deb yozilgan edi tilxatda.

— Bunisi nima?

– Jeton, taqsir.

Persikov jetonni oyoq ostiga olib toptadi, tilxatni bo‘lsa bosma tagiga yashirib qo‘ydi. Keyin xayoliga qandaydir fikr kelib, do‘ng peshonasi tirishdi. Birdan u telefonga otildi va institutga to‘xtovsiz qo‘ng‘iroq qilaverib, axiyri Pankratni topdi va: „Hamma yoq tinchmi?“ – deb so‘radi undan. Pankrat bir nimalar deb o‘kirib berdi, bu o‘kirishidan, hamma yoq tinch-ov, degan ma’noni anglash mumkin edi. Lekin bu javob Persikovga bir daqiqagina taskin berdi. U o‘shshaygancha yana telefonga yopishdi va shunday gaplarni aytdi:

– Menga haligi, nimaydi, Lubyankani bering. Mersi... Gapimni qaysi biringizga aytishim kerak... uyimga kallish kiygan allaqanday nuxxalar tanda qo‘yib qoldi, ha... IV dorilfunun professori Persikov bo‘lamан...

– Go‘shak birdan „shaq“ etib qo‘yildi-yu, suhbat uzildi. Persikov g‘ijirlatgan tishlari orasidan bir nimalar deb so‘-kinib, telefondan uzoqlashdi.

– Choy ichasizmi, Vladimir Ipatich? – deb qo‘rqa-pisa so‘radi xonaga mo‘ralagan Marya Stepanovna.

– Kerak emas menga hech qanaqa choy... g‘o‘ldir-g‘o‘ldir-g‘o‘ldir, ming la’nat hammasiga... Nima balo, jinni-pinni bo‘lganmi o‘zi ular?..

Shundan keyin, oradan atigi o‘n daqiqa vaqt o‘tishi bilan professor o‘z xonasida yangi mehmonlarni qabul qildi. Ular-dan biri miqtidan kelgan, juda ham nazokatli g‘o‘labir odam bo‘lib, egniga odmigina pistoqi rang harbiy french va sirma shim kiygan, qanshariga xuddi billur kapalakni eslatuvchi pensne qo‘ndirgan edi. Umuman, u loklangan etik kiyib olgan farishtani eslatardi. Pakana bo‘yli, qovoq-tumshug‘i osilgan ikkinchi mehmon kishilik kiyimida edi, ammo bu kiyimga u hech qovushmayotgandek ko‘rinardi. Uchinchi mehmon esa o‘zini mutlaqo boshqacha tutdi, u professor-

ning xonasiga kirmay, nimqorong'i yo'lakda qoldi. Lekin shunday bo'lsa ham u tamaki tutuni singib ketgan va yaxshi yoritilgan xonaning hamma joyini o'sha yerdan kuzatib turar edi. Bu uchinchi mehmon ham kishilik kiyimida bo'lib, ko'ziga surmarang shishali pensne taqqan edi.

Xonaga kirgan ikki mehmon tashrifnomani sinchiklab ko'zdan kechirisharkan, besh ming so'm haqida surishti-raverib, kelgan odamning tashqi qiyofasi haqida savol beraverib, Persikovning holi-joniga qo'yishmadi.

– E, men qayoqdan bilay, – deb to'ng'illardi professor, – turqi sovuq bir odam edi. Chala tug'ilgan odamga o'xshardi.

– U shisha ko'z emasmidi? – xirqiroq ovoz bilan so'radi pakana.

– Kim biladi deysiz. Yo'q, yo'q, shisha emas, ko'zlar o'ynab turgan edi.

– Rubinshteyn? – past ovoz bilan savol ma'nosida yuzlandi farishta pakana hamrohiga. Lekin u tumshaygancha „yo'q“ degandek bosh chayqab qo'ydi.

– Rubinshteyn hech qachon tilxatsiz pul bermaydi, – deb to'ng'illadi u, – bu Rubinshteynning ishi emas. Undan yirikrog'i kelganga o'xshaydi.

Kalish voqeasi mehmonlarda juda katta qiziqish uy-g'otdi. „Farishta“ uy qo'mitasi idorasiga qo'ng'iroq qilib, bir-ikki og'iz so'z aytdi: „Davlat siyosiy boshqarmasi uy qo'mitasi kotibi Kolesovni qo'lida kalish bilan darhol professor Persikovning uyiga kelishini talab qiladi“, bir zuman keyin rangi dokadek oqargan Kolesov qo'lida kalish bilan xonaga kirib keldi.

– Vasenka! – deb ohista chaqirdi „Farishta“ yo'lakda o'tirgan uchinchi odamni. U erinibgina o'midan turdi va xonaga shalviragan holda sudralib kirib keldi. Pensnesining surmarang shishalari uning ko'zini butkul to'sib turar edi.

– Nima? – lanjlik bilan so‘radi u.

– Kalishni ko‘r-chi.

Surmarang shisha ortidagi ko‘zlar kalishga nazar tashladi, shunda pensne shishalari ostidan aslo lanj emas, balki o‘qraygan ko‘zlar bir lahzaga qijo boqib, shu zahoti yana so‘ngandek ko‘rindi Persikovga.

Vasenka erinchoqlik bilan javob qildi:

– Nimani gapiroay? Pelenjskovskiyning kalishi bu.

Natijada, uy qo‘mitasi jamg‘armasi bir zumda professor Persikovning sovg‘asidan mahrum bo‘ldi. Kalish gazetaga o‘ralib, ashayoviy dalil sifatida qo‘ltiqqa tiqildi. French kiygan „Farishta“ sevinchdan terisiga sig‘may, professorning qo‘lini mahkam siqdi, hattoki qisqagina nutq ham so‘zladiki, bu nutqning mazmuni taxminan quyidagicha edi: professorning bu raftori yuksak qadrlangay... Professorning ko‘ngli to‘q bo‘lsin... bundan buyon hech kim uni bezovta qilmaydi – na institutda, na uyida... Buning uchun barcha choralar ko‘riladi, u kameralaridan aslo xavotir olmasin...

– Anavi muxbirlarni otib tashlasanglar bo‘lmaydimi? – deb so‘radi Persikov mehmonlarga ko‘zoynagi osha qarar ekan.

Bu savol mehmonlarning dimog‘ini chog‘ qilib yubordi. Nainki sho‘rtumshuq pakana mehmon, hattoki yo‘lakdagi surmarang pensne taqqan odam ham jilmayib qo‘ydi. Lekin „Farishta“ pensne shishalarini yaraqlatib, og‘zining tanobini qochirib, bunday qilish mumkin emasligini tu-shuntirdi.

– Uyimga kelgan qanday badkirdor odam ekan o‘zi?

Bu savolni eshitib, hamma birdan jiddiylashdi, „Farishta“: biron ta chakana firibgar bo‘lsa kerak, hech parvo qilmang, deb mujmal javob berdi.

– Shunga qaramay, grajdanim professor, – dedi u ilova

qilib, – bugun kechqurun bu yerda yuz bergan voqeani qat-tiq sir tutishingizni iltimos qilaman.

Shundan so‘ng mehmonlar jo‘nab ketishdi.

Persikov xonasiga, diagrammalari oldiga qaytib kirdi, lekin baribir, ish bilan mashg‘ul bo‘la olmadi: telefon chirog‘i yonib, bir ayol, yetti xonali uyi bor, xushbichim va ehtirosli beva juvon bilan turmush qurishga xohishingiz qalay, deb so‘radi professordan. Persikov go‘sakka ba-qirib berdi:

– Sizga maslahatim: professor Rossolimonning huzuriga borib davolaning...

U go‘sakni „shaq“ etib qo‘yishi bilan yana telefon jiringladi.

Professor endi biroz hovuridan tushdi, chunki ancha taniqli odam Kreml dan qo‘ng‘iroq qilayotgan edi: u Persikov olib borayotgan ish haqida g‘amxo‘rlik bilan uzoq so‘rab-surishtirdi va nihoyat olimning tajribaxonasi ni kelib ko‘rish niyatida ekanligini aytди.

Persikov telefondan uzoqlasharkan, peshonasini artdi, keyin telefon go‘sagini olib qo‘ydi. Shu zahoti yuqori qavat-dagi uydan dahshatli burg‘u sadosi va Valkiriy larning faryodi eshitildi – movut trestining direktori radiopriyomnikni baralla qo‘yib, Katta teatr dan Vagnerning konsertini eshitayotgan edi. Persikov shiftdan eshitilayotgan faryod va gumbur-gumbur sadolar ostida Marya Stepanovnaga baqirib dedi:

– Men bu badbaxt direktorni sudga beraman, agar o‘sha radiopriyomnigining abjag‘ini chiqarmasam yurgan ekanman, yo‘q, Moskvadan tupkaning tagiga bo‘lsa ham bosh olib ketaman, chunki bu odamlar o‘z oldilariga qanday qilib bo‘lmashin, meni bu uydan quvib chiqarishni maqsad qilib qo‘yganga o‘xshaydi.

U jahl ustida lupasini sindirib qo‘ydi va shu xonasida-gi divanga yotib, mashhur pianinochining Katta teatr dan

olib eshittirilayotgan mayin musiqasini eshitgancha uy-guga ketdi.

Kutilmagan tashriflar ertasi kuni ham davom etdi. Persikov institutga tramvayda borib, ostonada turgan, boshiga modali yashil rang katalak-shlapa kiygan notanish bir grajdanni ko'rdi. U Persikovga boshdan oyoq razm solib qaradi, lekin hech qanday savol bilan murojaat qilmadi, shuning uchun professor ham indamay ichkari kirdi. Ammo institutning dahlizida uni Pankratdan boshqa yana bir katalak-shlapa kiygan odam kutib oldi va odob bilan salom berdi:

— Salom, grajdanin professor.

— Nima istaysiz? — deb alomat savol berdi Persikov Pankrat yordamida paltosini yecharkan. Lekin katalak-shlapa kiygan mehmon, juda muloyim ovoz bilan pichirlab, Persikovning ko'nglini bir zumda tinchitdi-qo'ydi.

— Professor bekorga bezovta bo'lyaptilar, — dedi u, — Kamina, bu yerga sizni aynan o'sha shilqim gazetchilar-dan ihota qilish uchun qo'yilganman... siz, professor, nainki xonangiz eshidigan, shuningdek, derazalardan ham ko'nglingizni to'q qilib, bemalol ishlayverishingiz mumkin. — Notanish odam shunday deb kamzulining yoqasini bir lahzaga ag'darib, professorga allaqanday nishonni ko'rsatdi.

— Hm, bilsam, sizlarda ish juda yaxshi yo'lga qo'yilgan ko'rindi, — deb to'ng'illadi soddadil Persikov, so'ng ilova qildi: — Xo'sh, bu yerda nima ish bilan mashg'ul bo'lasiz?

Bunga javoban katalak-shlapa kiygan odam jilmayib qo'ydi, keyin, meni almashtirishadi, deb izohladi.

Shundan keyin uch kungacha professor juda yaxshi ishladi. Uning oldiga Kremlidan ikki marta kelishdi, bir marta talabalari ham keldi. Persikov ulardan imtihon oldi. Lekin talabalarning hammasi bir xilda imtihondan yiqildi.

Persikovning hech kimni hech qachon imtihondan o'tkazmasligi talabalar uchun endi shunday dahshatli irimga aylangan ediki, bu narsa imtihon topshirgani kelgan tala-balarning chehrasida yaqqol ko'rinish turardi.

– Borib konduktorlikka o'qing. Siz hech qachon zoologiya bilan shug'ullana olmaysiz, – professorning ovozi eshitilardi xonasidan.

– Qattiqqo'lmi deyman? – so'rardи katalak-shlapa kiy-gan odam Pankratdan.

– O, asti so'ramang, – deb javob qilardi Pankrat, – mabodo bitta-yarimtasi odam hodis, imtihondan o'tib qolsa, sho'rlik xonadan qora terga botib gandiraklab chiqadi. Chiqadi-yu, o'zini to'g'ri pivoxonaga uradi.

Professor mana shunday ishlar bilan alahsib, uch kunning qanday o'tib ketganini bilmay qoldi, lekin to'rtinchi kun kelganda, ko'chadan eshitilgan ingichka, chiyildoq ovoz uni yana avvalgi behalovat hayotiga qaytardi.

– Vladimir Ipatich, – deb chiyillagan ovoz eshitildi Gersen ko'chasiga ochilgan derazadan. Ovoz egasining omadi bor ekan: keyingi kunlardagi ishlar Persikovni juda ham toliqtirib qo'ygan edi. Chiyildoq ovoz eshitilgan paytda u qizargan behol va beshavq ko'zlarini qayoqlargadir tikkancha rohat kursida papiros chekib, dam olib o'tirardi. Uning ishslashga ortiq majoli qolmagan edi. Shuning uchun derazadan ko'chaga bir qadar qiziqish bilan qarab, yo'lka-da turgan Alfred Bronskiyni ko'rdi. Professor bir qarashdayoq bu serunvon tashrifnomaga egasini boshidagi cho'qqi shlapa bilan qo'lidagi yondaftaridan tanidi. Bronskiy hurmat va ehtirom bilan deraza tomonga ta'zim qildi.

– Ha, sizmidingiz? – deb so'radi professor.

Uning achchig'lanishga holi qolmagan edi, bil'aks, endi unda, qani, bu yog'i nima bo'larkan, degan qiziqish uyg'ongandi. Professor deraza ortida o'zini Alfred-

dan muhofaza qilingan deb hisoblardi. Ko‘chada mudom hushyor turgan katalak-shlapa shu zahoti Bronskiyning gapiga qulog‘ini ding qildi. Muxbirning chehrasida serxushomad jilva paydo bo‘ldi.

– Bir juft daqiqa vaqtingizni olaman, qimmatli professor, – deb ovozining boricha baqirib gapira boshladi yo‘lakda turgan Bronskiy, – faqat bittagina savolcham bor, zoologiyaga taalluqli. Maylimi bayon qilsam?

– Bayon qiling, – dedi Persikov lo‘nda qilib kinoyaviy ohangda: „Har qalay, bu kasofatda amerikaliklarga xos al-laqanday xususiyat bor“, deya ko‘nglidan o‘tkazdi.

– Tovuqlar bobida siz nima deysiz, qimmatli professor? – deb qichqirdi Bronskiy, qo‘llarini karnay qilib.

Persikov bu savoldan dong qotib qoldi. U deraza rafiga o‘tirdi, keyin yana tushdi-da, qo‘ng‘iroqni bosdi, qo‘lini bigiz qilib, derazaga ishora qilgancha baqirdi:

– Pankrat, anavi yo‘lakda turganni kiritib yubor.

Bronskiy xonaga kirib kelganida, Persikov benihoya xushmuomalalik bilan mehmonga:

– O‘tiring, – deb baqirdi.

Shunda Bronskiy og‘zi qulog‘ida, jilmaygancha aylanuvchi kursiga o‘tirdi.

– Marhamat qilib menga shu narsani tushuntirib bersangiz, – deb gap boshladi Persikov, – siz o‘sha o‘zingizning gazetalarining yozib ham turasizmi?

– Ha, albatta, – ehtirom bilan javob qildi Alfred.

– Unda men tushuna olmadim, siz hatto o‘z ona tilingizda to‘g‘ri gapira olmaysiz-u qanday qilib maqolalar yozyapsiz. „Bir juft daqiqa“ yoki „tovuqlar bobida“ degan so‘zlaringizni qanday tushunish kerak? Siz, nazarimda, „tovuqlar masalasida“ demoqchi bo‘lsangiz kerak?

Bronskiy ehtirom bilan hirlinglab kului:

– Valentin Petrovich tuzatadi.

- Kim u Valentin Petrovich?
- Adabiy bo‘lim mudiri.
- Ha yaxshi. To‘g‘ri-da, men filolog emasman. Keling, o‘sha Petrovichingizni chetga qo‘yib turaylik. Xo‘sh, tovuqlar masalasida sizni aynan nimalar qiziqtiradi?

— Umuman, hamma aytadigan gaplaringiz, professor.

Shunday deb Bronskiy qalam bilan qurollandi. Persikovning ko‘zlarida zafar uchqunlari porladi.

— Siz bu borada menga murojaat qilib yanglishibsiz, men parrandalar sohasida mutaxassis emasman. Bu masala yuzasidan I dorilfunundagi Yemelyan Ivanovich Portugalovga murojaat qilsangiz yaxshi bo‘lardi. Men bu sohani juda kam bilaman...

Bronskiy, qimmatli professor, hazilingizga tushundim, demoqchi bo‘lganday ochiq chehra bilan jilmaydi va yondaftariga: „kamroq hazil“ – deb yozib qo‘ydi.

— Lekin, agar juda ham qiziqayotgan bo‘lsangiz, marhamat, eshititing. Tovuqlar yoxud tojlilar... qirg‘ovullar oilasiga mansub parrandalar zotidandir... – deb baland ovoz bilan gapira boshladi Persikov. U gapisarkan, Bronskiyga emas, balki minglab tinglovchilar turgandek faraz qilingan allaqayoqqa ko‘zini tikkan edi... – Ha, qirg‘ovullar oilasiga mansub bu parrandalarning boshlarida go‘shtdor toj, pastki jag‘lari ostida ikkitadan sirg‘a bo‘ladi... hm... lekin ba’zilarida, bag‘baqa ostida faqat bittadan sirg‘a bo‘lishi ham mumkin... Xo‘sh, yana nimalarni aytsam ekan. Qanotlari kalta va yoysimon. Dumlari o‘rtacha uzunlikda, qisman pog‘onali va hatto tomsimon desam ham bo‘ladi, qanotining o‘rta patlari o‘roqqa o‘xshab qayrilgan... Pankrat, ko‘rgazma xonasidan 705-raqamlı tasvirni buyoqqa olib kel... xo‘rozning qirqma tasvirini... Darvoqe, uni ko‘rishingiz shart emas-a?.. Pankrat, tasvirning keragi yo‘q... Takror aytaman, men mutaxassis emasman, yaxshisi, Portugalovning oldiga boring.

Xo‘o‘sh, shaxsan men yovvoyi tarzda yashovchi tovuqlarning oltita zotini bilaman... hm... Portugalov ko‘proq biladi... Ular Hindistonda, Malayya orollarida bo‘ladi. Masalan, banki xo‘rozi yoki Kazintuni olaylik, bular Himolay tog‘i adirlarida, Hindistonning hamma yerida, Assomda, Birmada yashaydilar... Bigizdumli xo‘roz yoki boshqacha qilib aytganda, Hallus Varius Lombokda, Sumbavada va Floresda uchraydi. Yava orolida esa, Hallus Eneus deb yuritiluvchi g‘oyat ajoyib xo‘roz bor, Hindistonning janubi sharqida benihoya chiroyli Zonnerat xo‘rozini tavsiya qilishlari mumkin... Men sizga uning suratini keyin ko‘rsataman. Endi Seylon oroliga kelsak, u yerda biz Stenli xo‘rozini uchratishimiz mumkinki, bu xo‘roz dunyoning boshqa hech bir yerida yashamaydi.

Bronskiy ko‘zlarini baqraytirib o‘tirarkan, tinmay tiril latib yozardi.

– Yana nimalarni so‘zlab beray?

– Men yana tovuqlar kasali haqida biron nima eshitsam devdim, – ohista pichirlab dedi Alfred.

– Hm, men mutaxassis emasman... siz, yaxshisi, Portugalovdan so‘rang... Lekin, aytishim ham mumkin... masalan, lentasimon gjija, so‘rg‘ich qurtlar, qichima kanasi, temiratki, qush kanasi, tovuq biti yoki patxo‘r burgalar, tovuq vabosi, tomoqdagi shilliq pardanining bo‘g‘ma kasali oqibatida yallig‘lanishi... Pnevkomopoz, sil, tovuq qo‘ti ri... yana ancha-muncha dardlar... (Persikovning ko‘zlaridan yalt-yalt uchqun chaqnardi)... masalan, zaharlanish, quturish dardi, shish, ingliz kasali, sariq kasal, bod. Axorion Shenlyayning teri kasalligi... bu juda alomat kasal. Bu dardga chalingan tovuqlarning tojida mog‘orni eslatuvchi mayda dog‘lar paydo bo‘ladi...

Bronskiy guldor dastro‘moli bilan peshonasidagi terni artdi.

- Ayting-chi, professor, hozirgi yuz bergan ofatga, sizningcha, nima sabab bo‘ldiykin?
- Qanday ofatni aytyapsiz?
- Iye, hali o‘qiganingiz yo‘qmi, professor? — deb ajab-landi Bronskiy va portfelidan g‘ijimlangan „Izvestiya“ gazetasini chiqardi.
- Men gazeta o‘qimayman, — deb javob qildi Persikov va qovog‘ini solib oldi.
- Nega endi o‘qimaysiz, professor? — muloyim ohanda so‘radi Alfred.
- Negaki gazetada qayoqdagi bema’ni narsalarni yozi-shadi, — o‘ylab o‘tirmay shartta javob qildi Persikov.
- Nega unday deysiz, professor? — mayin pichirlab gazetani yoydi Bronskiy.
- Nima u? — deb so‘radi Persikov va hatto o‘rnidan turib ketdi. Endi Bronskiyning ko‘zlarida shodlik uchqunlari ch-aqnay boshladи. U gazeta sahifasining bir boshidan ikkinchi boshigacha yirik harflar bilan yozilgan: „Respublikada tovuq o‘lati“ nomli sarlavha ostiga loklangan tirmog‘i bilan chizib, uni professorga uzatdi.
- Nima-a? — deb so‘radi Persikov ko‘zoynagini peshonasiga ko‘tarib qo‘yarkan...

## VI BOB

### 1928-YILNING IYUNIDA MOSKVA

Shahar charog‘on edi, chiroqlar raqs tushar, dam o‘chib, dam yonardi. Avtobuslarning oq fonuslari, tramvaylarning yashil chiroqlari Teatr maydonini gir aylanib o‘tardi, sobiq „Myur va Meriliz“ ustiga qurilgan o‘ninchchi qavat tepasida rang-barang elektr chiroqlaridan hosil bo‘lgan ayolning og‘zidan rang-barang harflar bitta-bit-tadan otilib chiqib, „ishchi krediti“ degan so‘zlar hosil

bo‘lar edi. Katta teatr ro‘parasida, doira bog‘chadagi suvi turfa rang bo‘lib otilib turgan favvora atrofi odamlar bilan gavjum. Katta teatr tomiga o‘rnatilgan ulkan karnay esa tinmay vag‘illardi:

– Lefortovo veterinariya institutida olib borilgan tovuq o‘latiga qarshi emlash juda yaxshi natija berdi. Tovuqlar o‘limi... miqdori bugungi kun hisobida, ikki baravar kamaydi...

Keyin karnaydan chiqayotgan ovoz ohangi o‘zgardi, bir nima irillaganday bo‘ldi, teatr uzra yashil chiroq shu’lasi dam o‘chib, dam yondi-da, karnay do‘rillagan hazin ovoz bilan gapida davom etdi:

– Tovuq o‘latiga qarshi kurashish uchun sog‘liqni saqlash xalq komissari, yer ishlari xalq komissari, chorva mudiri o‘rtoq Ptaxa-Porosyuk, professorlar – Persikov va Portugalov... hamda o‘rtoq Rabinovichlardan iborat favqu-lodda komissiya tuzildi... Tovuq o‘lati... – derdi karnay, – intervensiyaning yana bir urinishi... – karnay ovozi aks-sado berib, xuddi qashqirdek goh xaxolar, goh ingrardи.

Teatr tor ko‘chasi, Neglinnaya va Lubyanka ko‘chalari oq va binafsharang shu’lalar lentasi bilan yoritilgan, har yer-har yerda chiroqlar porlar, avtomobil signallari quloqni qomatga keltirar, yo‘ldan chang burqsib ko‘tarilardi. Odamlar to‘p-to‘p bo‘lishib, devorlardagi katta-katta taxtalarga yopishtirilgan va reflektorlarning qizil shu’lasi bilan yoritilgan e‘lonlar oldida uymalashardilar:

*„Aholining tovuq go‘shti va tuxumini iste’mol qilishi qat’iyan man qilinadi. Bunday molni bozorga olib chiqib sotishga uringan chakana savdogarlar jinoiy javobgarlikka tortilib, butun mol-mulki musodara qilinadi. Tuxumi bor barcha grajdalar, zudlik bilan o‘z tuxumlarini rayon militsiya bo‘limiga topshirishlari shart.“*

„Ishchi Gazetasi“ redaksiyasining tomiga o‘rnatilgan ekranda tovuqlarning tog‘-toga uyulgan jasadlari, alovat harakat qilib, har yoqqa uchqunlar chaqnatib, rezina ichaklardan shu tovuqlar to‘piga yermoyi purkayotgan och yashil rangdagi o‘t o‘chiruvchilar namoyish qilinardi. Keyin ekranda qip-qizil alanga to‘lqini paydo bo‘ldi, jonsiz tutun burqsib bo‘lak-bo‘laklarga ajrala boshladi, shunda elektr chiroqlaridan „Xodinka maydonida tovuq jasadlarining yondirilishi“ degan alangali yozuv vujudga keldi.

Kuniga ikki marta – tushlik va kechlik paytida tanaffusga chiqib, tungi soat uchgacha savdo qiluvchi magazinlarining ko‘zni qamashtirgudek charog‘on vitrinalari orasida „Tuxumlar. Sifatiga kafolat beriladi“ deb yozilgan va taxtalar bilan taqa-taq berkitib tashlangan oynalar so‘qir tuy-nukka o‘xshab ko‘rinardi. Dam-badam „Moskva sog‘liqni saqlash bo‘limi. Tezyordam“ deb yozilgan mashinalar vahimali chinqirgancha og‘irkarvon avtobuslardan o‘zib ketar, ko‘cha harakatini nazorat qilayotgan militsionerlar yonidan shipillab o‘tardi.

– Yana bittasi palag‘da tuxum yeb zaharlanganga o‘xshaydi, – degan shivirlashlar eshitlardi olomon orasida.

Pyotr rastasi joylashgan yerda yashil va to‘q sariq chiroqlar bilan yoritilgan olamga mashhur „Ampir“ restoranı porlab turar, restoran ichidagi ko‘chma telefonlar o‘rnatilgan stolchalarda likyor to‘kilib dog‘ bo‘lgan karton qog‘ozlarga: „Farmoyishga ko‘ra – quymoq yo‘q. Yangi ustritsalar tirilgan“ deb yozib qo‘yilgan edi.

Xitoy fonuslari miltirab yonayotgan Ermitajda ko‘zni qamashtirgudek yaraqlagan estrada sahnasida kuplet ijro etuvchi artistlar Shrams bilan Karmanchikovlar shoirlardan Ardo bilan Arguyevlar yozgan qo‘shiqlarni ijro etib, o‘yinga tushishardi:

*Oh, oyijon, qandoq qilay  
Endi tuxumsiz?..*

Marhum Vsevolod Meyerxold nomidagi teatr (ma'lumki, u 1927-yilda, Pushkinning „Boris Godunov“ pyesasini sahnalashtirayotgan paytda ustiga havoza qulab halok bo'lgan edi) o'zining turfa rang elektr chiroqlari yordamidagi harakatlanuvchi afishasida yozuvchi Erendorgning „Tovuq o'lati“ nomli pyesasini Meyerxoldning shogirdi, respublikada xizmat ko'rsatgan rejissor Kuxterman tomonidan sahnalashtirilganini xabar qilardi. Teatrning yonidagi Akvarium reklama chiroqlarini tovlantirib, yarim yalang'och ayol badanini ko'z-ko'z qilib, yam-yashil estrada yozuvchi Lenivsevning bugungi kun mavzuyida yozilgan „Tovuq bolalari“ nomli sahnalashtirilgan tomoshasini guldiros qarsaklar ostida namoyish qilardi. Tverskaya ko'chasidan esa ustiga yaltiroq plakatlar o'rnatilgan, tumshug'ining ikki tomoniga fonuschalar osilgan sirk xo'tiklari turnaqator tizilib borardi. Korsh teatrida Rostanning „Shantakler“ pyesasi qayta tiklanayotgan edi.

Gazetafurush bolalar avtomobillar orasida zir yugurib, ovozlarining boricha chinqirishardi:

– Mudhish yerosti topilmasi. Polsha mudhish urushga tayyorlanmoqda... Professor Persikovning mudhish tajribalari...

Sobiq Nikitin sirkining go'ng hidi anqib turgan jigar-rang bilqillagan sahnida rangi murdanikidek oppoq mas-xaraboz Bom katak kiyimi havo bilan shishirilgan baq-baqaloq Bimga berdi:

- Nimaga bunchalik xomushligingni bilaman.
- Nimaga ekan? – chiyillab so'rardи Bim.
- Nimaga desang, yerga ko'mib yashirib qo'ygan tuxumlariningni 15-bo'lim militsiyasi topib oldi.

— Ha-ha-ha-ha, — deb butun sirk shunday xandon tashlab kuldik, bundan odamning eti jimirlab ketar, sirkning ko‘hna gumbazi ostidagi o‘rgumchak inini eslatuvchi trapetsiyalar silkinardi.

— A-ap, — deb ovozlarining boricha chinqirishardi mas-xarabozlar, shunda oyoqlari kelishgan g‘oyatda dilbar ayol chiroli bir oq otqi minib, sirk sahniga otilib chiqardi.

Kutilmaganda dovrug‘i olamga taralib, ruhi ko‘tarilgan Persikov, yolg‘iz o‘zi hech kimga qaramay, hech kimni payqamay, odamlarning turkilariga ham, fohishalarning chorlovchi muloyim ovozlariga ham parvo qilmay, to‘g‘ri maneji yaqinidagi chiroqli soat tomon ketib borardi. U o‘z xayoliga berilib, atrofga qaramay borarkan, birdan eskicha bichimda kiyangan g‘alati bir odamga urilib ketdi: professorning barmoqlari u odamning kamariga osilgan to‘pponchaning dag‘al g‘ilofiga yomon urilgandi.

— Eh, la’natlar bo‘lsin, — deb chiyilladi Persikov. — Ke-chiring.

— Kechirdim, — deb javob qildi bu to‘qnash kelgan odam xunuk ovoz bilan, so‘ng ular bo‘tqadek qaynayotgan olomon orasida, bir amallab bir-birlaridan ajralishdi. Keyin, professor Prechistenkaga — uyiga ketayotib, bu voqeani mutlaqo unutib yubordi.

## VII BOB

### ROKK

Lefortovoda o‘tkazilgan veterinariya emlashlari haqiqatan ham yaxshi samara berdimi, Samarada uyushtirilgan to‘suvchi otryad omilkorlik qildimi, Kaluga va Voronejda tuxum xarid qiluvchilarga nisbatan ko‘rilgan keskin choralar yaxshi natija berdimi, Moskvadagi favqulodda komissiya muvaffaqiyatlari ishladimi — ma’lum emas, lekin shu

narsa aniq ma'lumki, Persikovning Alfred bilan tovuqlar masalasida oxirgi marta uchrashganidan keyin ikki hafta vaqt o'tgach, respublikalar Ittifoqida tovuqlar mutlaqo qirilib bitgan edi. Uyezd shaharlaridagi ba'zi bir hovlilarda sochilib yotgan tovuq patlari kishining xo'rligini keltirardi, kasalxonalarda esa, ham qon aralash ichi ketib, ham qusib yotgan ochopat bemorlarning eng oxirgilar tuzala boshlagan edi. Shukrki, odamlar o'limi butun respublikada mingdan oshmadi. Katta tartibsizliklar ham yuz bermadi. To'g'ri, Volokolamskda bir „payg'ambar“ paydo bo'lib, tovuqlarga o'lat keltirgan komissarlardan boshqa hech kim emas, deb va'z qila boshlagan edi, ammo unchalik e'tibor qozonolmadi. Volokolamsk bozorida xotinlarning qo'lidan tovuqlarini tortib ola boshlagan bir nechta militsionerni do'pposlashdi, yana mahalliy pochta-telegraf bo'limining oynasini sindirishdi. Lekin Volokolamskning uddaburon ma'murlari darhol buning chorasini ko'rishdi, natijada, birinchidan, „payg'ambar“ o'z faoliyatini to'xtatdi, ikkinchidan, telegraf bo'limi derazasiga oyna solindi.

O'lat shimolda Arxangelsk va Syumkin qishlog'iiga borib, o'sha yerda o'z-o'zidan to'xtadi, zero undan u yog'iga boradigan joy yo'q edi: ma'lumki, Oq dengizda tovuqlar yashamasdi. Shuningdek, o'lat sharqda Vladivostokka borib ham taqqa to'xtadi, chunki undan u yog'i okean edi. Uzoq janubda bu ofat O'rdebod, Julfa va Qorabuloqning jazirama dashtlarigacha yetib borib hovuridan tushdi va barham topdi. G'arbda esa rosa Polsha va Ruminiya chegarasiga borganda taqqa to'xtab, hammani hayron qoldirdi. U yoqlarning iqlimi boshqachami yoki qo'shni davlatlar tomonidan ko'rilgan chegaradagi ehtiyyotkorliklari ta'sir etdimi, har holda, o'latning chegaradan nariga o'tmagani aniq. Chet el matbuoti tarixda hech qachon bo'lma-gan bunday o'lat haqida katta shov-shuv ko'tarib, qizg'in

muhokama yurita boshladi, holbuki, sovet respublikalari hukumati hech qanday shov-shuv ko‘tarmay, g‘ayrat-shi-jоat bilan ishlardi. Tovuq o‘latiga qarshi kurashuvchi fav-qulodda komissiya yangi favqulodda uchlik komissiyasi bilan to‘ldirildi, shundan keyin, o‘n olti o‘rtoqdan tashkil topgan bu yangi kollektiv, respublikada tovuqchilik xo‘jaligini barpo qiluvchi va yuksaltiruvchi komissiya deb atala boshladi. „Dobrokur“, ya’ni „Ko‘ngilli tovuqshunoslar“ tashkilotiga asos solinib, unga o‘rtoq Persikov bilan o‘rtoq Portugalovlar faxriy rais etib saylandilar. Gazetalarda bu o‘rtoqlarning portretlari va portretlar ostida „Chet eldan ko‘plab tuxum xarid qilamiz“ va „Janob Yuz tuxum tayyorlash tadbirini barbod qilmoqchi“, degan sarlavhalar paydo bo‘la boshladi. Jurnalist Kolechkin achitib yozgan feleton butun Moskvaga ovoza bo‘ldi. Feleton: „Bizning tuxumimizga ko‘z olaytirmang, janobi Yuz – tuxum o‘zingizda ham bor“, degan so‘zlar bilan tugardi.

Keyingi uch hafta ichida professor Persikov juda qiy-naldi, uning ishi boshidan oshib ketgan edi. Yuz bergen tovuqlar ofati uning faoliyatini izdan chiqarib yuborgan va yelkasiga ikki hissa ko‘proq vazifa yuklagan edi. U har kuni kechqurun allamahalgacha tovuq komissiyasi majlislarida ishlar, vaqtı-vaqtı bilan esa goh Alfred Bronskiy bilan, goh yasama oyoqli baqaloq muxbir bilan uzundan uzoq suhbat qurishga majbur bo‘lardi. Bundan tashqari, u professor Portugalov, privat-dotsent Ivanov hamda Borngartlar bilan birgalikda tovuqlarni yorib, zarrabin ostida o‘lat batsillasi-ni qidirdi, hattoki u uch kun kechqurun o‘tirib, naridan beri „O‘latga chalingan tovuqlarda jigarning o‘zgarishi“ degan kichkina risola ham yozib tashladи.

Persikovning tovuq sohasidagi ishi sustlik bilan bombardi, buning sababi bor edi, albatta – uning miyasi tovuq ofati tufayli hozircha to‘xtab qolgan eng muhim va aso-

siy ish bilan, ya’ni qizil nurning faoliyati bilan band edi. Persikov shundoq ham yarimta bo‘lib qolgan sog‘lig‘ini ishdan chiqarib, vaqt ni uyqu va ovqatlanish hisobiga tejab, ba’zida Prechistenkadagi uyiga ham bormay, shu yerda, institutdagi xonaga qo‘yilgan kleyonka jildli divanda uxlab qolib, kamera va zarrabin oldida kechasi bilan timmay g‘ivirsib chiqardi.

Iyulning oxiriga borib ma’muriyatning qistovlari biroz pasaydi. Yangicha nom olgan komissiyaning ishi to‘g‘ri izga tushdi, shunda Persikovda ham o‘zining to‘xtab qolgan ishiga qaytish imkonи tug‘ildi. Zarrabinlarga yangi preparatlar o‘rnatildi, nur yuborilgan kamerada baliq va qurbaqalar ning uvildiriqlari afsonaviy tezlikda voyaga yeta boshladи. Maxsus buyurtma bo‘yicha ishlangan oynalar Kenigsberg dan aeroplanda olib kelindi va iyulning oxirgi kunlari Iвановning nazorati ostida mexaniklar ikkita yangi katta-katta kamera yasashdi. Bu kameralarda nurning kengligi, boshlanishida – papiro qutisichalik, oxirida – bir metrga yetgan edi. Quvonchdan terisiga sig‘magan Persikov qo‘llarini bir-biriga ishqab, qandaydir mavhum va murakkab tajribaga hozirlik ko‘ra boshladи. Birinchi navbatda, u telefonda maorif xalq komissari bilan kelishib oldi, telefon go‘sagidan vaqillagan ovoz bilan, har qancha yordam kerak bo‘lsa, biz tayyormiz, degan mazmunda g‘oyat muloyim so‘zlar eshitildi, keyin olim, yana telefon orqali oliy komissiya qoshi-dagi chorvachilik bo‘limi mudiri o‘rtoq Ptaxa-Porosyukni so‘radi. Ptaxa Persikovga g‘oyat samimiyl iltifot ko‘rsatdi. Gap chet elliklarning professor Persikovga berayotgan katta buyurtmasi to‘g‘risida borardi. Ptaxa telefonda hozirning o‘zidayoq Berlin bilan Nyu-Yorkka telegramma yuborajagini aytdi. Shundan keyin Kremlдан qo‘ng‘iroq qilishib, Persikovdan hol-ahvol so‘rashdi, salobatli va muloyim bir ovoz, sizga avtomobil kerak emasmi, deb so‘radi.

— Yo‘q, tashakkur. Men tramvayda yurishni afzal ko‘raman, — deb javob qildi Persikov.

— Nega endi? — deb so‘radi notanish ovoz.

Umuman, Persikov bilan hamma yo ehtirom va hayrat bilan, yo go‘dakka yuzlanayotgandek muloyim jilva bilan gaplashardi.

— Tramvay tezroq yuradi, — deb javob qildi Persikov, shundan keyin jarangdor yo‘g‘on ovoz telefon orqali:

— Hay, ixtiyoriningiz, — dedi.

Oradan yana bir hafta o‘tdi, endi Persikov e’tibordan qolayotgan tovuqlar masalasidan tobora ko‘proq uzoqlashib, butun vujudi bilan nurni o‘rganishga kirishdi. Tunnarni bedor o‘tkazgani va qattiq charchaganidan uning kallasi xuddi tiniq va hovol bo‘lib qolgandek ravshan edi. Uning ko‘zi atrofidagi qizil halqalar hech o‘chmas, deyarli har kecha u institutda tunab qolar edi. Bir marta u Prechistenka ko‘chasidagi Sekubuning<sup>1</sup> ulkan zalida o‘zi kashf etgan nur va uning tuxumhujayraga ta’siri haqida ma’ruza qilish uchun zoologik makonini tark etdi. Bu darvishtabiat olimning ulkan safari bo‘ldi. Gulduros qarsaklardan majlislar zalining shiftidan bir nimalar to‘kila boshladi, pishillab yonayotgan yoyli trubkalar Sekubu ahlining qora smoking<sup>2</sup>larini va ayollarning oppoq ko‘ylaklarini yoritardi. Sahnaga o‘rnatilgan minbar yondagi sathi oynaband stolda, kattaligi mushukdek keladigan qurbaqa laganda hansirab, bo‘zarib o‘tirardi. Sahnaga xatlar otishardi. Xatlarning yettitasi ishqiy maktublar bo‘lib, Persikov ularni darhol yirtib tashladi. Sekubu raisi olimni ta’zim qilish uchun sahnaga zo‘rg‘a olib chiqdi. Persikov g‘ijinib-g‘ijinib zalga ta’zim qildi, uning qo‘llari terlab

<sup>1</sup> Syekubu (*gisqartma so‘z*) — Olimlar turmushini yaxshilovchi markaziy komissiya.

<sup>2</sup> Smoking — qaytarma shoyi yoqali qora kastum.

ho'l bo'lgan, qora galstugining tuguni qiyshayib chap qu-log'ining tagiga borib qolgan edi. Uning qarshisida yuzlab za'faron yuzlar va erkaklarning oppoq manishka'lari, xuddi tuman orasidan ko'ringanday g'ira-shira ko'zga tashlanardi, shu payt birdan bir pistoletning sariq g'ilofi lip etib ko'rindi-yu, shu zahoti oq ustun orqasiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Persikov uni elas-elas ko'rdi va shu onning o'zida unutib yubordi. Lekin dokladdan keyin uyga otlanib, qirmizi rang gilam to'shalgan zinadan tushib borayotganda birdan o'zini lohas his qila boshladidi. Ko'z oldi bir lahzaga qorong'ilashib, dahlizdagi porlab turgan qandilni zulmat chulg'agandek bo'ldi, Persikovning yuragi g'ashlanib, ko'ngli aynidi... Dimog'iga kuyindi hidi kirgandek, bo'ynidan shilimshiq, qaynoq qon oqib tushayotgandek bo'ldi... Shunda professor titroq qo'llari bilan zina panjarasini mahkam changallab oldi.

— Ko'nglingiz behuzur bo'lyaptimi, Vladimir Ipatich? — degan hayajonli ovozlar eshitildi hamma yoqdan.

— Yo'q, yo'q, — deb javob qildi Persikov o'zini tutib olarkan, — shunchaki, charchaganman... ha... Mumkin bo'lsa, bir stakan suv bersanglar.

\* \* \*

Avgustning quyosh charaqlagan kuni edi. Lekin quyosh professorning ishiga xalal berardi, shuning uchun deraza pardalari tushirilgan edi. Egiluvchan oyoqli nurqaytargich har xil asboblar va shishalar qalashib yotgan oynavand stolning bir qismiga bir tutam o'tkir shu'la tushib turardi. Butunlay holdan toygan Persikov aylanuvchi kursining suyanchig'iga yastanib papiros chekarkan, charchash oqibatida murdanikidek so'ngan, ammo mamnun ko'zlarib

---

<sup>1</sup> Manishka — Erkaklar ko'ylagining qadama ko'krak qismi.

lan kameraning qiya ochiq eshigiga tutun orasidan tikildi, u yerdaga bir tutam qizil nur xonaning shundoq ham dim va badbo'y havosini oz-ozdan isitardi.

Eshik taqilladi.

– Ha, nima? – deb so'radi Persikov.

Eshik ohista g'iychillab ochilib, Pankrat kirdi. U qo'llarini yoniga tushirdi-da, bu ilohiy zot qarshisida qo'rquvdan bo'zarib shunday dedi:

– U yerda, janob professor, Rokk turipti. Sizni so'rab kelipti.

Olimning chehrasida jilvaga o'xshash bir nishona paydo bo'ldi. U ko'zlarini suzib turib dedi:

– Bu qiziq. Lekin men bandman.

– U kishi, hukumat qog'ozi bilan Kremlidan keldim, deyaptilar.

– Rok qog'oz bilan kelipti? Noyob uyg'unlik, – dedi Persikov va ilova qildi: – Qani, chaqir-chi uni bu yoqqa.

– Xo'p bo'ladi, – deb javob qildi Pankrat va xuddi ilondek „ship“ etib chiqib ketdi.

Bir daqiqadan keyin eshik yana g'iychillab, ostonada bir odam paydo bo'ldi. Persikov aylanuvchi kursini g'ijirlatib mehmon tomonga yelkasi osha o'grildi-da, unga ko'zoynagi ustidan tikilib qoldi. Persikov hayotdan juda uzoq odam edi, uni hech nima qiziqtirmas edi, lekin shunday bo'lishiga qaramay, hozir tashrif buyurgan mehmonning asosiy va eng muhim xususiyatlari uning ko'ziga yalt etib tashlandi. Kelgan odam alomat tarzda eskicha kiyin-gan edi. Uning libosi 1919-yildagi modaga juda ham mos tushgan bo'lardi. 1924-yilda, aniqrog'i, yil boshida, bu kiyim-boshga chidasa bo'lardi, ammo 1928-yilda u mutlaqo zamonga qovushmayotgan edi. Proletariatning eng qoloq qismi, masalan, nonvoylar ham pidjak kiya boshlagan, 1924-yilning oxirlaridayoq modadan qolgan eskicha bi-

chimdag'i kastum-french Moskvada kamdan kam uchray-digan hozirgi paytda, bu mehmon egniga ikki yoqlama tug-malanuvchi kurtka, yashil shim, oyog'iga bog'ichli botinka kiyib, ustidan paytava o'ragan, yoniga esa sariq rangdagi pachoq g'ilofda eski andozadagi beso'naqay pistolet-mauzer osib olgan edi. Uning chehrasi Persikovga, shuning-dek, qolgan hammaga ham juda yoqimsiz bo'lib tuyuldi. Bu odamning bit ko'zlar tevarak-atrofga taajjublanib va ayni paytda qat'iy ishonch bilan boqardi, uning tovoni yassi kalta oyoqlari, men bezbetman, deyotgandek bo'lardi. Us-tarada olingan soqol-mo'yloving o'rni ko'karib ketgan edi. Persikov uni ko'rgan zahoti xo'mrayib oldi. U o'zi o'tirgan kursini jahl bilan g'ijirlatib turib, kelgan odamga endi ko'zoynagi osha emas, balki ko'zoynagi orqali tikildi.

– Qog'oz olib keldingizmi? Qani u? – deb so'radi professor.

Mehmon, chamasi, bu yerda ko'rgan narsalaridan hayratda edi. Umuman, bu odam xijolat bo'lish nimaligini bilmas edi, ammo hozir esankirab qoldi. Uning bit ko'zlar ko'proq shiftga borib tiralgan baland kitob javonda qa-vat-qavat qalashib yotgan kitoblarga, undan keyin, turgan gapki, kameralarga va ulardagi qalin shisha orqali katta-lashib, do'zax o'ti singari miltillab yonayotgan to'q qizil nurga hayrat bilan tikilib qolgan edi. Ninaning uchidek o'tkir nur chiqarayotgan reflektor yonida nimqorong'i joy-da aylanuvchi kursida o'tirgan Persikovning o'zi ham xiyla antiqa va ulug'vor qiyofa kasb etgan edi. Mehmon g'urur aralash ehtirom uchqunlari porlab turgan ko'zlarini olimga qadadi, ammo qog'oz uzatish o'rniga dedi:

- Men Aleksandr Semyonovich Rokk bo'laman.
- Xo'sh? Nima bo'pti?
- Meni namunali „Qizil Nur“ sovxoziiga boshliq etib tayinlashdi, – deb izohladi u.

— Xo'sh?

— Mana, sizning oldingizga maxfiy topshiriq bilan keldim, o'rtoq.

— O, bu qiziq gap. Faqat, mumkin bo'lsa qisqaroq.

Mehmon kamzulining tugmalarini yechib, oliy nav qalil qog'ozga bosilgan buyruqni chiqardi va uni Persikovga uzatdi. Keyin, taklifni kutib o'tirmay, aylanuvchi kursiga o'tirdi.

— Stolni turtmang, — dedi Persikov nafrat bilan.

Mehmon cho'chib ketib yoniga o'girildi, stolning nari-gi boshidagi qorong'i va zax tuynukda qandaydir bir jonzotning o'lik ko'zлari xuddi zumrad toshdek porlab turardi. Bu ko'zlar odamning badanini jimirlatib yuborardi.

Persikov qog'ozni o'qib bo'lgani hamono o'rnidan turib ketib, telefonga tashlandi. Oradan bir lahma vaqt o'tar-o'tmas, go'shakka jig'ibiyroni chiqib, bidirlab gapira boshladi:

— Kechirasiz... Men hech narsaga tushunolmay qoldim... Nega axir? Men... mening roziligidim, maslahatimsiz... Axir u hamma narsani ostin-ustun qilib yuboradi-ku, azbaroyi shifo...

Bu so'zlarni eshitgan mehmonning ko'ngli ranjib, o'tirgan yerida professor tomonga burildi.

— Kechiras-s, — deb gap boshladi u, — men sovxozi rahb...

Lekin Persikov unga ko'rsatkich barmog'ini siltab, gapani davom ettirdi:

— Kechirasiz, men tushunolmay qoldim... Men, baribir, qat'yan qarshiman... Tuxumlar ustida tajriba o'tkazishlariga rozilik berishdan bosh tortaman... To oldin o'zim sinab ko'rmagunimcha...

Telefon go'shagidan kimningdir vaqirlovchi ovozi va nimaningdir to'qillashi eshitildi. U ovozning xuddi go'dak bolani yupatayotgandek ko'ngilchan ekanligi hatto uzoq-dan ham sezilib turardi. Nihoyat, g'azabdan qip-qizarib

ketgan Persikov trubkani „shaq“ etib ildi va telefon yoni-dagi devorga qarab:

– Yetar, qo‘limni yuvib qo‘ltig‘imga urdim, – dedi.

Keyin stolga o‘grilib, u yerda yotgan qog‘ozni oldi-da, uni ko‘zoynagi osha yuqoridan pastga, so‘ng ko‘zoynagi orqali pastdan yuqoriga o‘qib chiqib, birdan:

– Pankrat! – deb chinqirdi.

Pankrat opera sahnasiga o‘ziyurar narvonda ko‘taril-gan artistdek, birdan ostonada paydo bo‘ldi. Persikov unga o‘grilib qaradi-da, baqirib berdi:

– Qorangni o‘chir, Pankrat!

Pankrat ham aslo ajablanmay ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Keyin Persikov mehmon tomonga o‘girilib gapira boshladi:

– Marhamat qilsinlar... Itoat etishga majburman. Menga nima? Uning qizig‘i ham yo‘q men uchun.

Professor mehmonni xafa qilishdan ham ko‘ra, ko‘proq hayron qoldirdi.

– Kechirass, – deb gap boshladi u, – axir siz, o‘rtoq..

– Nega hadeb „o‘rtoq, o‘rtoq“ deyaverasiz?.. – deb to‘ng‘illadi o‘shshaygan Persikov va jim bo‘lib qoldi.

Rokkning chehrasida „Yo tovba“, degan fikr aks etdi.

– Kechi...

– Gap bunday, marhamat qilib eshiting, – deb uning so‘zini bo‘ldi Persikov. – Mana bu yoy shari. Siz okulyarni harakat qildirish yo‘li bilan, – deb Persikov fotografiya apparatiga o‘xshab ketuvchi kameraning qopqog‘ini „shaq“ etib yopdi, – hamda obyektlarni u yoq-bu yoqqa surish oqibatida nur tutamini olishingiz mumkin; mana 1-raqamli obyektiv... bu ko‘zgu 2-raqamli, – Persikov nurni o‘chirib, yana yoqdi, – kameraning mana shu asbest poliga xohlagan narsangizni qo‘yib, nur yordamida tajriba o‘tkazishingiz mumkin. Nihoyatda jaydari ish, shunday emasmi?

Bu bilan Persikov piching otib, o‘z nafratini izhor qilmoxchi edi, ammo porlab turgan bit ko‘zlarini kameraga qadagan mehmon uning niyatini fahmlamadi.

– Faqat ogohlantirib qo‘yay, – deb gapida davom etdi Persikov, – qo‘lni nurga tutish aslo mumkin emas, chunki mening kuzatuvimga qaraganda, bu nur epiteliy<sup>1</sup> to‘qimasini tez o‘shtira boshlaydi... lekin u to‘qimalar zararlimi, yo‘qmi – men hali aniqlaganimcha yo‘q.

Bu gapni eshitgan mehmon shosha-pisha qo‘llarini orqasiga yashirarkan, kepkasini tushirib yubordi va ayni paytda, professorning qo‘llariga nazar tashladi. Persikovning qo‘llarini yod kuydirgan, o‘ng qo‘lining kafti esa bint bilan bog‘langan edi.

– O‘zingiz-chi, professor?

– Siz Kuznetskiy most ko‘chasiga borib Shvabening do‘konidan rezina qo‘lqop sotib olishingiz mumkin, – dedi professor g‘ijinib. – Buning tashvishini qilish endi mening ishim emas.

Shu gapdan keyin Persikov mehmonga xuddi lupa orqali qaraganday tikildi:

– Qayoqdan keldingiz o‘zi? Umuman... nima uchun aynan siz?...

Mana endi Rokk chinakamiga xafa bo‘ldi.

– Kechirass...

– Avvalo, buning nimaligiga tushunib olish kerak, axir... Nega endi siz bu nurga yopishib oldingiz?..

– Chunki bu eng muhim ahamiyatga molik ish...

– A-ha. Eng buyuk deng? Unday bo‘lsa... Pankrat! Pankrat kirdi.

– Shoshma, oldin o‘ylab ko‘ray.

Pankrat itoatkorlik bilan g‘oyib bo‘ldi.

<sup>1</sup>Epitelij – odam, hayvon va o‘simlik a’zolarini sirtdan o‘rab turuvchi to‘qima.

— Men, — dedi professor, — bir narsaga tushunmayapman: bunchalik shoshmashosharlikning va maxfiylikning nima hojati bor?

— Siz, professor, meni halitdan esankiratib qo‘yyapsiz, — deb javob qildi Rokk, — axir o‘zingiz bilasiz-ku: tovuqlar bitta qolmay qirilib ketdi.

— Nima bo‘pti shunga? — deb baqirdi Persikov, — nima, siz ularni bir zumda tiriltirmoqchimisiz? Nega endi kelib-kelib, hali yaxshi o‘rganilmagan nurdan foydalanmoqchisiz buning uchun?

— O‘rtoq professor, — deb javob qildi Rokk, — azbaroyi shifo, meni chalg‘itib yuboryapsiz. Aytdim-ku sizga, biz o‘z mamlakatimizda tovuqchilik xo‘jaligini tiklashimiz kerak deb. Nega desangiz, chet elda biz haqimizda har xil yaramas gaplarni yozib yotishipti. Ha.

— Yozishsa yozishaversin...

— Be, qo‘ysangiz-chi, — deb mavhum javob qildi Rokk va boshini chayqab qo‘ydi.

— Men bir narsani bilmoqchi edim: tuxumdan tovuq o‘stirib chiqarish kimning miyasiga kela qoldi o‘zi...

— Mening miyamga, — deb javob qildi Rokk...

— Ihi... Shunaqa deng... Xo‘sish, nega endi — bilsak bo‘ladimi? Nurning xususiyatlari haqida qayoqdan eshitap qoldingiz?

— Men dokladingizni eshitdim, professor.

— Men hali tuxumlar bilan tajriba o‘tkazganim yo‘q... Endi hozirlanayotgan edim.

— Azbaroyi Xudo, tajriba yaxshi chiqadi, — ishonch va samimiyat bilan dedi birdan Rokk, — siz topgan bu nur shunaqangi zo‘rki, uning yordamida jo‘jalar u yoqda tursin, hatto fillarni ham o‘stirish mumkin.

— Menga qarang, — dedi Persikov, siz zoolog emasmissiz mabodo? Yo‘qmi? Afsus... Sizdan juda dangalchi eks-

perimentator chiqqan bo‘lardi... Ha... lekin siz bu qaltis ishda... muvaffaqiyatsizlikka uchrashingiz mumkin... faqat mening vaqtimni olganingiz qoladi...

– Biz kameralaringizni qaytarib beramiz. Nima deyapsiz?

– Qachon?

– Mana, jo‘jalarning birinchi to‘pini ochirib olay...

– Siz qat’iy ishonch bilan gapiryapsiz. Juda soz, Pankrat.

– Men o‘z odamlarim bilan kelganman, – dedi Rokk, – soqchilarim ham bor...

Shu kuni kechga borib Persikovning kabineti huvullab qoldi... Stollar ustida hech vaqo qolmagan edi. Rokkning odamlari katta kameralarning uchalasini ham olib ketishdi, professorga o‘zi birinchi marta tajriba boshlagan kichkina kamera qoldi.

Iyul oftobi botib, qosh qoraya boshladи, institutni zulmat qamrab, uning yo‘laklaridan oqa boshladи. Kabinetdan bir me’yorda yurgan oyoq tovushi eshitilardi – Persikov chiroqni yoqmay katta xona ichida eshik bilan deraza oralig‘ida u yoqdan bu yoqqa yurayotgan edi... Juda ajabtovur hol: bu oqshom institutdagи odamlarni ham, joni vorlarni ham negadir noxush kayfiyat chulg‘ab olgan edi. Baqalarning bugungi konserti, ayniqsa, mungli edi, ularning qurullahida adovat va tahdid sezilardi. Pankrat yo‘lakma-yo‘lak yugurib kameradan chiqib ketgan sariq ilonni tutishga kirishdi, nihoyat tutib olib, ko‘ziga qaragan edi, uning ko‘zi to‘g‘ri kelgan tomonga bosh olib ketmoq-chiman, deyayotgandek bo‘ldi.

Hamma yoqni zulmat pardasi chulg‘agan paytda Persikovning xonasida qo‘ng‘iroq chalindi. Pankrat shu zahoti ostonada paydo bo‘ldi. U olimning xona o‘rtasida stollardan ko‘z uzmay sho‘ppayib turganini ko‘rib ta-

ajjubda qoldi. U bir yo‘talib qo‘yib, yana shamdek qotib turaverdi.

– Mana, Pankrat, ko‘r, – deb Persikov usti shipshiydam stolni ko‘rsatdi.

Pankrat qo‘rqib ketdi. Qorong‘ida professoring ko‘zi yosha langandek bo‘lib ko‘rindi. Bu hech kutilmagan, dahshatlari hol edi.

– To‘g‘ri, – dedi Pankrat yig‘lamsiragan ovoz bilan va: „Bundan ko‘ra menga baqirib bergenning yaxshi edi“, deb ko‘nglidan o‘tkazdi.

– Mana, ko‘r, – deb takrorladi Persikov, shunda uning lablari, xuddi yaxshi ko‘rgan o‘yinchog‘i shartta tortib olingan go‘daknikidek pir-pir ucha boshladi.

– Bilasanmi, azizim Pankrat, – deb yuzini deraza to-monga o‘girgancha gapini davom ettirdi Persikov, – bundan o‘n besh yil burun meni tashlab ketgan xotinim, operettaga ishga kirgan ekan, mana endi qazo qilipti... Mana shuna-qaplar, tasaddug‘ing ketay, Pankrat... Menga maktub yuborishi shipti...

Baqalar ayanchli qurullahardagi, bu payt professorni zulmat chulg‘ab ola boshladi. Mana u... tun. Moskva... deraza ortida allaqayerlarda oq sharlar yondi... Sarosimaga tushgan Pankratning yuragi siqilib ketdi. U qo‘rqanidan qo‘llarini yoniga tushirib qimir etmay turardi.

– Bora qol, Pankrat, – og‘ir xo‘rsinib dedi professor va qo‘l siltadi, – bor, yotib uxla, azizim, qadrdonim Pankrat.

Tun boshlangan edi. Pankrat kabinetdan negadir oyoq uchida shipillab chiqib ketdi, o‘z hujrasiga otilib kirdi-da, burchakda yotgan latta-puttalar orasidan ozgina ichilgan bir shisha rus arog‘ini oldi. Bir ko‘tarishda bir stakanchasini ichdi. Nonga tuz sepib gazak qildi. Shundan keyin ko‘ngli xiyolGINA yorishib, ko‘zlarida jilva paydo bo‘ldi.

Pankrat, tunda vaqt yarim kechaga borib qolganda g‘ira-shira yoritilgan yo‘lakdagi uzun kursida yalangoyoq o‘tirarkan, chit ko‘ylagi ichiga qo‘lini tiqib ko‘kragini qirtillatib qashigancha, katalak-shlapa kiygan bedor navbat-chiga derdi:

– Bundan ko‘ra o‘ldirgani yaxshiydi, azbaroyi Xudo...  
– Nahot yig‘lagani rost bo‘lsa? – qiziqsinib so‘rardi katalak-shlapa.

– O‘lay agar... rost... – deb ishontirardi Pankrat.  
– Buyuk olim, – deb qo‘shilishardi unga katalak-shlapa, – turgan gap, hech qachon qurbaqa xotin o‘mini bosolmaydi.

– Aslo, – deb ma’qulladi Pankrat.

Keyin o‘ylab turib ilova qildi:

– Men ham xotinimni bu yoqqa chaqirtirib olsammikin, deb o‘ylab yuribman... To‘g‘ri-da, nima qiladi qishloqda sho‘ppayib o‘tirib. Faqat shunisi borki, u qurbaqalarni o‘lgudek yomon ko‘radi...

– Rost aytasan, judayam jirkanch maxluqlar, – deb qo‘shilishdi katalak-shlapa.

Olimning xonasidan „tiq“ etgan tovush eshitilmas edi. Undan keyin, chirog‘i ham o‘chiq edi – yoniq bo‘lganda, eshik ostidagi tirqishdan ko‘rinardi.

## VIII BOB

### **SOVXOZDAGI HODISA**

Pishiqlik oyi – avgust hech yerda Smolensk guberniyasidagidek go‘zal bo‘lmaydi. Ma’lumki, 1928-yilning yozи juda yaxshi kelgan edi: bahorda vaqtida yomg‘ir yog‘gan, quyosh astoydil qizdirgan, natijada, hosil mo‘l bo‘lgan edi... Zamindor Sheremetevning sobiq amlokida olmalar g‘arq pishdi... o‘rmonlar yam-yashil libos kiydi,

chorsи paykallarga bo‘lingan ekinzorlar oltin rangga kirdi. Odamzod tabiat quchog‘ida ancha istarali bo‘lib ketar ekan. Shunga ko‘ra, Aleksandr Semyonovich Rokk ham bu yerda shahardagidek sovuq ko‘rinmasdi. Endi uning egnida bedavo kurtka yo‘q edi. Oftobda qoraygan yuzi qoramag‘izdan kelgan, yoqavayron chit ko‘ylagi ostidan timqora qalin tuk qoplagan ko‘kragi ko‘rinar, egniga qalin bo‘zdan shim kiygan edi. Uning ko‘zлari ham endi besaranjom olazaraklikni tark etib, muloyim boqardi.

Sobiq amloktdor uyining eshigi oldidagi muhtasham ustunlardan biriga yulduz tasviri ostiga „Qizil nur“ sovxozi deb yozilgan lavha qoqilgan edi. Uydan chiqqan Aleksandr Semyonovich pillapoyalardan pildirab tushib, to‘g‘ri kichik yuk mashinasi oldiga bordi: uchta qora kamera soqchilar nazoratida shu avtomobilda olib kelingan edi.

Aleksandr Semyonovich kun bo‘yi o‘z yordamchilari bilan Sheremetevlarning sobiq qishlik bog‘i – gulxonaga kameralarni o‘rnatish bilan ovora bo‘ldi... Kechga yaqin hamma ish qilib bo‘lindi. Oynaband tom ostida sharsimon qalpog‘i sirlangan oq chiroq yondi, kameralarni g‘ishtlar ustiga o‘rnatishdi, shunda kameralarni olib kelgan mexanik yaltiroq murvatlarni to‘qillatib burab ko‘rdi-da, qora qutilar ichidagi azbest polga sirli qizil nurni yo‘naltirdi.

Aleksandr Semyonovichning o‘zi narvonga chiqib elektr simlarini jonkuyarlik bilan tekshirib ko‘rdi.

Ertasi kuni yana o‘sha kichik yuk mashinasi temiryo‘l bekatidan silliq fanerdan yasalib, hamma yog‘iga tamg‘ayorliqlar yopishtirilgan uchta bejirim yashik olib kelib tushirdi; yashiklarning qoraga bo‘yalgan biqiniga oq harflar bilan: „Ehtiyyot bo‘ling: tuxumlar...“ deb yozilgan edi.

– Nega buncha oz yuborishihti? – deb hayron bo‘ldi Aleksandr Semyonovich, lekin fursatni o‘tkazmay shoshqaloqlik bilan tuxum solingenan yashiklarni ocha boshladи.

Yashiklar ham o'sha gulxonada, Aleksandr Semyonovichning o'zi, uning semirib ketgan beso'naqay xotini Manya, Sheremetevlarning sobiq bog'boni, endilikda sovxoziqning universal qorovuli, shu sovxoza istiqomat qiluvchi g'ilay posbon hamda farrosh qiz Dunya ishtirokida ochildi. Bu yer Moskva emasdi, odamlar xuddi bir oila a'zolaridek, do'stona munosabatda odmigina yashashardi. Aleksandr Semyonovich, botayotgan quyoshning oynaband tomda aks eta boshlagan mayin shu'lasi ostida bag'oyat sersavlat va ko'rakam ko'rinyotgan qutilarga mehr bilan boqib, ishboshilik qilardi. Miltig'i eshik kesakisiga suyab qo'yilgan posbon biriktirgichlar va tunuka qoplamlarni ombur bilan qayirib ochardi. Taraq-turuq ovozlar eshitilar... Chang to'kilardi... Oyog'iga shippak kiyib olgan Aleksandr Semyonovich yashiklar atrofida parvona.

— Iltimos, sekinroq, — derdi u posbonga. — Ehtiyyot bo'-ling. Nima, ko'rmayapsizmi — tuxum-ku axir?..

— Hech nima qilmaydi, — deb xirillardi uyezd sarbozi yashik qopqog'ini ko'chirarkan, — mana, hozir...

Qopqoq g'ijirlab ochilar... chang to'kilardi.

Tuxumlar nihoyatda sarishtalik bilan joylashtirilgan edi: yashikning yog'och qopqog'i ostida mumsimon mayin qog'oz, uning tagida namshimgich qog'oz, undan keyin qalin qilib payrahalar, payrahalar ostida qipiqlik bo'lib, mana shu qipiqlar ichidan tuxumlarning bosh qismi ko'rinish turardi.

— Chet elliklar ishni puxta qilishadi-da, — xursand bo'lib derdi Aleksandr Semyonovich qipiqlik kavlarkan, — bizza bunaqa qilisha olmaydi. Manya, ehtiyyot bo'l, sindirib qo'yasan.

— Nima balo, jinni-pinni bo'lganmisan, Aleksandr Semyonovich, — deb javob qilardi xotini, — ja tillamidi... Nima, umrimda tuxum ko'rmabmanmi?.. Vuy... muncha katta bo'lmasa.

— Buni chet el deydilar, — derdi Aleksandr Semyonovich, — tuxumlarni olib stol ustiga terarkan, — bularning oldida mujiklarimizning xashaki tuxumi ip esha olmaydi... Hammasi bramaputra tovug‘ining tuxumi bo‘lsa kerak, azbaroyi shifo. Nemislarniki...

— Rost aytasiz, — deb tasdiqlardi posbon tuxumlarni maroq bilan tomosha qilar ekan.

— Lekin hayronman, nega hammasi iflos-a, — deb o‘ylanib qoldi Aleksandr Semyonovich... — Manya, o‘zing ko‘z-quloq bo‘lib tur. Qolgan tuxumlarni ham stolga olib terishaverishsin, men borib bir telefon qilib ko‘ray.

Aleksandr Semyonovich shunday deb qo‘ng‘iroq qilgani hovlini kesib o‘tib, sovxoz idorasiga yo‘l oldi.

Kechqurun zoologiya institutining xonasida telefon jiringladi. Professor Persikov sochini hurpaytirib apparat ol-diga bordi.

— Xo‘sh? — deb so‘radi u.

— Hozir siz bilan viloyat gaplashmoqchi, — dedi ohista ayol ovozi.

— Xo‘p, eshitaman, — g‘ijinib dedi Persikov telefonning qora og‘ziga...

Go‘sakda bir nima „shiq“ etdi, keyin juda olisdan erkak kishining bezovta ovozi eshitildi:

— Tuxumlarni yuvish kerakmi, professor?

— Nima dedingiz? Nima? Nimani so‘rayapsiz o‘zi? — dedi Persikov zardasi qaynab, — qayoqdansiz?

— Nikolskiydanman. Smolensk guberniyasidan, — deb javob qildi trubka.

— Tushunmadim. Men hech qanday Nikolskiy-Pikolskiyni tanimayman. Kim o‘zi u?

— Rokk, — jiddiy ohangda dedi trubka.

— Qanaqa Rokk? E, ha... sizmisiz... Xo‘sh, nimani so‘-rayapsiz mendan?

— Yuvaylikmi deyapman... Chet eldan menga bir talay tuxum yuborishdi...

— Xo'sh?

— ...Ularning hammasi allambaloga bulg'angan...

— Siz yanglisyapsiz, menimcha... Nega endi ular, sizning ta'biringiz bilan aytsam, „allambaloga bulg'angan“ bo'lishi kerak? To'g'ri, albatta, u yer-bu yerida oz-moz axlat... yoki boshqa biron nima qotib qolgan bo'lishi mumkin...

— Demak, yuvish kerak emas-a?

— Albatta, kerak emas... Nima, siz kameralarga hozirdanoq tuxum qo'ymoqchi bo'lyapsizmi?

— Tuxum qo'yyapman. Ha, — deb javob qildi trubka.

— Hm, — dedi Persikov.

— Xo'p, xayr, — dedi trubka va jim bo'lib qoldi.

— „Xo'p, xayr“, — nafrat bilan takrorladi Persikov privat-dotsent Ivanovga yuzlanib, — bu nusxaning betamizligini ko'rdingizmi, Pyotr Stepanovich?

Ivanov kulib yubordi.

— Iye, o'shamidi? Uning tuxumlardan qanday quymoq pishirishini tasavvur qilyapman.

— A... ax... axir... — xunob bo'lib gapira boshladi Persikov, — o'zingiz bir tasavvur qilib ko'ring-a, Pyotr Stepanovich... xo'p, yaxshi... faraz qilaylik, nur yalang'och baqalar plazmasiga qanday ta'sir qilgan bo'lsa, tovuq tuxuming deyteroplazmasiga ham shunday ta'sir ko'rsatishi mumkindir. Ehtimol, u tuxumlardan jo'ja ochib chiqarar ham. Lekin u jo'jalardan kelgusida qanday tovuqlar yetilishini siz ham, men ham ayta olmaymiz-ku axir... Balki u tovuqlar hech vaqoga yaramas. Balki, ular ikki kundan keyin o'lib qolar. Balki, ularning go'shtini yeb ham bo'lmas. Men o'sha tovuqlarni, masalan, oyoqqa turib yura oladi, deb qanday kafolat bera olaman. Ehtimol, ular tuxumdan

suyaklari mo‘rt bo‘lib chiqishar, – deb Persikov ham qo‘lini paxsa qilib, ham barmoqlarini bir-bir bukkancha qizishib gapirardi.

– Juda to‘g‘ri gapirdingiz, – deb qo‘shilishdi Ivanov.

– Masalan, siz, Pyotr Stepanovich, o‘sha tovuqlarning nasl qoldirishiga kafil bo‘la olasizmi? Kim biladi deysiz, ehtimol, anavi nusxa bepusht tovuqlarni ochirar. Ularni ko‘ppakdek katta qilib o‘sтирар-u, lekin ulardan qiyomatda ham nasl kutib bo‘lmash.

– To‘g‘ri, kafolat berib bo‘lmaydi, – deb qo‘shilishdi Ivanov.

– Yana uning behayoligi, uddaburonligi ortiqcha, – deb Persikov o‘z ko‘nglini o‘zi g‘ash qilardi. – Yana e’tibor bering-a, o‘sha takasaltangga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishni ke-lib-kelib menga yuklashganini aytmaysizmi. – Persikov tajriba o‘tkaziladigan stolga ishora qildi: Rokk olib kelgan qog‘oz o‘sha yerda yotardi. – Axir bu masala yuzasidan o‘zim hali aniq bir fikr ayta olmasam, qanday qilib anavi nodonga aql o‘rgataman?

– Rad etishning iloji bo‘lmaydimi? – deb so‘radi Ivanov.

– Persikov tutaqib ketdi va qog‘ozni olib, uni Ivanova ko‘rsatdi. U xatni o‘qib chiqib istehzo bilan jilmayib qo‘ydi.

– Tushunarli-i... – dedi u ma’nodor qilib.

– Endi, bu yog‘ini eshiting... Men o‘z buyurtmamni ikki oydan beri kutaman, undan hanuz dom-darak yo‘q. Anavi takasaltangga bo‘lsa bir zumda tuxumlar ham yuboriship-ti, boshqa jihatlardan ham har xil yordam ko‘rsatib yoti-shipti...

– Baribir, ming uringani bilan hech nimaning uddasi-dan chiqqa olmaydi, Vladimir Ipatich. Mana ko‘rasiz, oqibat, baribir, kameralaringizni qaytarib berishadi.

— Koshkiydi tezroq qaytarib berishsa, ular mening tajribalarimni to‘xtatib qo‘yishdi.

— Mana shunisi chatoq-da. Menda hamma narsa tayyor.

— Siz skafandrlar oldingizmi?

— Ha, bugun olib kelishdi.

Persikovning biroz ruhi ko‘tarilib, ko‘ngli yorishdi.

— Ihi... unda, menimcha, bunday qilsak. Jarrohlik xonasining eshigini taqataq berkitib tashlash mumkin, derazani bo‘lsa, ochib qo‘yamiz...

— To‘g‘ri, — deb qo‘shilishdi Ivanov.

— Shlemlar uchtami?

— Uchta. Ha.

— Unday bo‘lsa... Siz, albatta, men... talabalardan yana birontasini topishim mumkin... Uchinchi dubulg‘ani o‘shanga beramiz.

— Grinmutni chaqirsa bo‘ladi.

— U qaysi, haligi samandarlar ustida ish olib borayotgan talabami?.. Hm... chakki emas... lekin, shunisi ham borki, bahorgi imtihon paytida u yalangtishlarda suzgich pufak qanday bo‘lishini ayta olmagan edi, — ilova qildi Persikov hanuz kek saqlab.

— Yo‘q, u chakkimas... U yaxshi talaba, — deb himoya qildi Ivanov.

— Endi bir kecha mijja qoqmay chiqishga to‘g‘ri keldi, — deb gapida davom etdi Persikov, — lekin bir iltimos, Pyotr Stepanovich, siz albatta gazni tekshirib ko‘ring, yo‘qsa azbaroyi Xudo, anavi „Dobroxim“ga ishonib bo‘lmaydi. Gaz o‘rniga sassiq bir narsa yuborishlari ham mumkin.

— Yo‘q, yo‘q, — deb Ivanov qo‘l siltadi, — kecha o‘zim tekshirib ko‘rganman. Vijdanan aytish kerak, Vladimir Ipatich, oliy nav gaz yuborishipti.

— Siz uni nimada sinab ko‘rdingiz?

– Jaydari baqalarda. Gazni purkagan hamono o‘lib qolishyapti. Aytganday, Vladimir Ipatich, biz yana bir ish qilsak. Siz Gepeuga xat yozib, elektr revolver so‘rang.

– Men uni ishlata olmayman-da...

– Bu yog‘ini menga qo‘yib bering, – deb javob qildi Ivanov, – biz Klyazmada undan ermakka otgan edik... bitta GPUchi yon qo‘schnim edi... Ajoyib narsa. Bunaqa zo‘r qurob boshqa topilmaydi... Ovoz chiqarmaydi, yuz qadam joydan aniq nishonga tegadi. Bir qarg‘a otgan edik... Menimcha, agar o‘sha revolver bo‘lsa, gazning ham hojati qolmaydi.

– Hm... dono fikr... G‘oyat, – Persikov burchakka borib, telefon trubkasini oldi...

– Menga, haligi... nimaydi... Lubyankani bering...

\* \* \*

Kunlar nihoyatda qizib ketgan edi. Dalalar uzra tiniq va quyuq hovur jimirlab turgani ko‘zga yaqqol tashlanardi. Kechalar esa g‘oyatda ajib, maftunkor, yam-yashil edi. Oy yog‘du sochib, sobiq Sheremetevlar amlokiga shunday tarovat va latofat baxsh etdiki, buni ta’riflash uchun so‘z topilmaydi. Saroy – sovxozi misoli chaqmoqqanddek yarqirar, bog‘da soyalar tebranar, ko‘llar sathi ikki xil rangga kirgan: yarmi qiyalab tushgan oy yog‘dusidan charog‘on, ikkinchi yarmini tubsiz zulmat chulg‘agan edi. Oy nuri tushgan yerda „Izvestiya“ gazetasini bemalol o‘qisa bo‘lardi (faqt shaxmat bo‘limini, mayda harflar bilan terilgаниligi sababli o‘qish mahol edi). Lekin bunday huzurbaxsh tunda, turgan gapki, hech kim „Izvestiya“ni o‘qimas edi... Farrosh qiz Dunya sovxozi orqasidagi daraxtzorda paydo bo‘lib qoldi, tasodifni qarangki, sovxozi shaldiryoq yuk mashinasining haydovchisi ham saldan keyin o‘sha daraxtzorga borib qoldi. Ular u yerga nega borishgan – bizga

ma'lum emas. Xullas, ular qayrag'ochning siyrak soyasi-ga yozilgan shofyorning charm paltosi ustida o'tirishardi. Oshxonada chiroq yonib turar, u yerda ikki polizchi dehqon kechki nonushta qilardi, egniga oq xalat kiygan Rokk xonim esa serustun rovonda to'lin oyga termilgancha xayol surib o'tirardi.

Kechqurun soat o'nda sovxozning orqa tomonidagi Konsovka qishlog'idan kelayotgan tovushlar tindi, shunda bu osuda manzara uzra g'oyat nafis nay navosi yangradi. Bu xushohang navoning daraxtzorlar va Sheremetev saroyi oldidagi mahobatli ustunlar uzra yangrashi mazkur manzaraga nechog'lik munosib ekanligini ifodalashga til ojiz. „Qarg'a Motka“ operasidagi nozik-nihol Liza bilan ehtirosli Polinaning dueti omuxta bo'lib yangrar, uning aks-sadosi eski bo'lishiga qaramay, baribir, benihoya yoqimli va maftunkor hayot sharpasi singari samodagi oy sari uchib ketardi.

– So'nmoqdalar... So'nmoqdalar... – deya nay bulbuligo'yo bo'lib sayrar va entikardi.

Dov-daraxt qimir etmay qoldi, o'rmon parisi singari mahvkor Dunya shofyorning malla tuk o'sgan dag'al va mardona yuziga yuzini qo'yib kuy tinglardi.

– Qurg'ur juda chiroyli chalyapti-da, – dedi shofyor baquvvat qo'li bilan Dunyaning belidan mahkam quchar ekan.

Nayni esa sovxoz mudiri Aleksandr Semyonovich Rokkning o'zi chalayotgan edi, chalgandayam, tan berib aytish kerak, g'oyat zo'r mahorat bilan chalardi. Kezi kelganda shuni e'tirof etish lozimki, nay chalish bir vaqtlar Aleksandr Semyonovichning kasbi bo'lgan. To 1917-yilgacha u maestro Petuxovning dong'i ketgan konsert ansamblida xizmat qilgan bo'lib, bu ansambl har kuni oqshomda Yekaterinoslav shahridagi „Maftunkor Xayollar“ nomli

kinematografning shinamgina dahlizini yoqimli musiqa sadolari bilan to‘ldirar edi. Lekin ko‘pchilik odamlarning kasbi va mavqeyini o‘zgartirib yuborgan buyuk 1917-yil Aleksandr Semyonovichni ham yangi yo‘ldan boshlab ketdi. U „Maftunkor xayollarni“ va uning dahlizidagi yulduzlar tasviri tushirilgan chang bosgan satin pardani tark etdi, nay o‘rniga mahvkor mauzer bilan qurollanib, urush va inqilobning teran ummoniga sho‘ng‘idi. Dolg‘alar uzoq vaqt va bir necha martalab, uni goh Qrimga, goh Moskvaga, goh Turkistonga, goh hattoki, Vladivostokka olib borib tashladi. Aleksandr Semyonovichning kimligini to‘la aniqlash uchun aynan inqilob zarur edi. Oqibat, bu odamning haqiqatan ham buyuk inson ekanligi va, turgan gapki, uning o‘rni „Maftunkor xayollar“ dahlizida emasligi aniqlandi. Uzoq tafsilotlarga berilmay, gapni muxtasar qiladigan bo‘lsak, shuni aytishimiz mumkin: 1927-yilda va 1928-yilning boshida Aleksandr Semyonovich Turkistonda edi; bu payt u, birinchidan, katta bir gazetaga muxbirlik qildi, undan keyin, oliy xo‘jalik komissiyasining mahalliy a’zosi sifatida Turkiston o‘lkasi yerlarini sug‘orishda hayratomuz faoliyat ko‘rsatib, nom qozondi. 1928-yilda Rokk Moskvaga keldi va ko‘rsatgan xizmatlari uchun endi halol dam ola boshladi. Butun umri chekka viloyatlarda o‘tgan, doim eskicha bichimdagи kiyim kiyib yuradigan bu odam bir boobro‘ tashkilotning a’zosi edi va u o‘sha tashkilotning a’zolik pattasini qo‘yin cho‘ntagida faxr bilan olib yuradi. Ana shu tashkilot qoshidagi oliy komissiya Rokkning ko‘rsatgan xizmatlarini qadrlab, unga beg‘alva va faxrli lavozim berdi. Lekin afsus va nadomatlar bo‘lsinki, Respublikaning sho‘ri ekan: Aleksandr Semyonovichning jo‘shqin miyasida hali g‘ayrat so‘nmagan edi, u Moskvada Persikovning kashfiyoti haqida eshitib qoldi, natijada, Tverskaya ko‘chasidagi „Qizil Parij“ mehmonxonasida yashab turgan Aleksandr Semyonovich-

ning miyasida Persikov ixtiro qilgan nur yordamida butun respublikani bir oy ichida tovuqlar bilan ta'minlash g'oya-si tug'ildi. Chorvachilik komissiyasi Rokkning taklifini ko'rib chiqib, ma'qulladi, shundan keyin Rokk qo'lida qalin qog'ozga yozilgan hujjat bilan antiqa fe'lli zoolog olim huzuriga borgan edi...

Oynadek tiniq ko'l, daraxtzorlar va sovxozi bog'i uzra boshlangan qushlar konserti oxirlab qolgan edi. Shu payt birdan nimayam bo'ldi-yu, konsert taqqa to'xtadi. Lekin Konsovskada, allaqachon pinakka ketishlari lozim bo'lgan itlar dabdurustdan baravariga hura boshladilar va hurish bora-bora yalpisiga ayanchli uvlashga aylandi. Bu uvlash tobora avjga minib, poyonsiz dalalar uzra parvoz etdi, keyin bu uvlashga daf'atan ko'l va hovuzlardagi millionlab qurbaqalar jo'r bo'ldi. Bu shu qadar dahshatli manzara edi-ki, hatto bugungi sirli va fusunkor tun bir zumda so'nib xiralashdi.

Aleksandr Semyonovich chalayotgan nayini qo'yib, uy oldidagi ayvonga chiqdi.

– Manya. Eshityapsanmi? La'natni itlarning uvlashini qara... Sen nima deysan, nega bunchalik bezovta bo'lish-yapti ekan-a?

– Men qayoqdan bilay? – deb javob qildi Manya ko'zini osmondagi oyga qadagancha.

– Menga qara, Manechka, yur, yaxshisi borib tuxum-larni ko'zdan kechiramiz, – deb taklif qildi Aleksandr Semyonovich.

– O'lay agar, Aleksandr Semyonovich, o'zing ham tuxum jinnisi, tovuq jinnisi bo'lib qolibsan. Undan ko'ra birozgina dampingni olsang-chi.

– Yo'q, Manechka, kel, bora qolaylik.

Gulxonada shamchiroq quyoshdek porlab turardi. Bu yerga Dunya ham ikki yuzi qirmizi olmadek qizarib, ko'z-

lari shodiyona chaqnab kirib keldi. Aleksandr Semyonovich oynaband kuzatuv qopqoqlarini juda ehtiyotkorlik bilan ochdi. Hammalari kamera ichiga mo‘raladilar. Qirmizi rangdagi hamma yog‘i dog‘-dug‘ tuxumlar toshpaxta ustida bir tekisda saf tortib turardilar, kameralarda sukunat hukm surardi... Shiftdagи 15.000 shamli shamchiroq ohista vishillab yonardi...

Aleksandr Semyonovich goh kameraning yon tomonidagi nazorat teshigidan, goh uning ustidagi havo kiradigan tirqishdan ichkariga mo‘ralarkan:

— Eh, hali shunaqangi jo‘jalar olib chiqarayki, — derdi zavq-shavqqa to‘lib. — Mana ko‘rasizlar... Nima? Ishonmayapsizlarmi?

— Eshitdingizmi, Aleksandr Semyonovich, — dedi Dunya jilmayib turib, — Konsovkadagi mujiklar sizni dajjal deyishyapti. Ularning gapicha, bu tuxumlaringizga jin tekkan mish. Mashina bilan jo‘ja ochirish gunoh, deyishyapti. Ular sizni o‘ldirishmoqchiyam bo‘lishdi.

Aleksandr Semyonovich seskanib ketdi va xotini tomon o‘girildi. Uning rangida qon qolmagan edi.

— Xo‘sh, buni nima desa bo‘ladi? Obbo odamlar-ey. Nima qilsa bo‘ladi ularni? A? Manechka, xalqni yig‘ib, majlis o‘tkazish kerak... Ertaga uyezddan notiqlarni taklif qilaman. Majlisda o‘zim nutq so‘zlayman. Umuman, odamlar bilan ko‘proq ishlashga to‘g‘ri keladi... Bo‘lmasa, yovvoyilashib ketishlari mumkin bu xilvat go‘shada...

— Omi odamlar, — dedi soqchi, u gulxona oldida taxlangan shineli ustida o‘tirardi.

Ertasi kuni sovxoza eng mudhish va o‘ta mavhum voqealar sodir bo‘ldi. Odatda, quyosh chiqishini qushlar ning kuchli va beto‘xtov chug‘ur-chug‘urlari bilan qarshi oladigan daraxtzorlar bugun gung edi. Bu vaziyatni aholi birdan payqadi. Hamma yoq go‘yo momaqaldiroq gumbur-

lashini kutayotganday teran sukunat qo‘ynida, lekin osmon beg‘ubor: momaqaldiroqdan nom-nishon yo‘q edi. Sovxoz ahli orasida tarqalgan mish-mishlar Aleksandr Semyonovichga g‘ayrioddiy va dudmal bo‘lib tuyuldi, xususan, g‘alamisligi va donishmandligi bilan butun Konsovka qishlog‘iga otning qashqasiday tanilgan Echki Bo‘qog‘i laqabli amakining aytganlari hech kurakda turmaydigan gap bo‘ldi. Uning aytishicha, go‘yo jamiki qushlar tong pallasida gala-gala bo‘lishib osmonga ko‘tarilishgan mish va Sheremetevni tark etib, shimol tomondagi allaqayoqlarga uchib ketishgan mish. Bu gap Aleksandr Semyonovichning ta’bini tirriq qildi, bu ham yetmaganday, u Grachevka shahriga kun bo‘yi ovora bo‘lib zo‘rg‘a qo‘ng‘iroq qila oldi. Shahardagilar ikki kundan keyin xalqaro ahvol va Dobrokur masalasi bo‘yicha notiqlar yuborishga va’da qildilar.

Shu kungi oqshom ham ajabtovur hodisalarga mo‘l bo‘ldi. Ertalab daraxtzorlar teran sukutga tolib, odamlarda ko‘ngilsiz shubha uyg‘otgan bo‘lsa, kunduz tush paytida doim sovxozi hovlisida chug‘urlab uymalashuvchi chumchuqlar birdaniga qayoqqadir g‘oyib bo‘lishdi, endi bo‘lsa kechga kelib, Sheremetevkadagi ko‘l jimib qoldi. Bu endi hech aql bovar qilmaydigan mo‘jiza edi; chunki Sheremetevka ko‘lidagi qurbaqalarning quloqni qomatga keltiruvchi qurullahslari har oqshom qirq chaqirim nariga ham eshitilib turardi. Bugun esa barcha qurbaqalar, go‘yo qirilib ketganday sukutda edilar. Ko‘ldan hech qanday tovush eshitilmas, qiyoq o‘tlar qilt etmay turardi. Aleksandr Semyonovich ruhan judayam ezilib ketdi. Odamlar bu hodisalar haqida Aleksandr Semyonovichning orqasidan har xil bo‘lmag‘ur gaplar tarqata boshladilar.

— Azbaroyi Xudo, alomat hol, hech tushunolmayaman, — dedi Aleksandr Semyonovich xotiniga tushlik paytida, — nima sababdan hamma qushlar uchib ketishdiykin?

– Men qayoqdan bilay? – deb javob qildi Manya. – Bal-ki, sen olib kelgan o’sha nurdan zada bo‘lishgandir?

– Tavba, judayam ovsarsan-da, Manya, – dedi Aleksandr Semyonovich qo‘lidagi qoshiqni stol ustiga tashlar-kan, – sen ham xuddi anavi mujiklarga o‘xshaysan. Bunga nurning nima daxli bor?

– Bilmayman. Meni tinch qo‘y.

Kechqurun qosh qorayganda kutilmagan uchinchi vo-nea sodir bo‘ldi – Konsovkadagi itlar yana hura boshladilar. Hurigandayam shunaqa hurishdiki, ularning ham mahzun, ham darg‘azab nolasi oy nuriga g‘arq bo‘lgan dalalar uzra bir zum ham tinmadi.

Shu kuni Aleksandr Semyonovich, ozginagina bo‘lsa ham, yana bir yangilikning shohidi bo‘ldi. Bu – gulxonada yuz bergen yoqimli xabar edi. Kameralarga terilgan, nur ta’sirida qirmizi rangga kirgan tuxumlarning goh unisi, goh bunisi ichidan tinimsiz ravishda „Tiq...tiq...tiq...“ degan tovushlar eshitila boshladi.

Bu tovushlar Aleksandr Semyonovich uchun zafar darakchisi edi. Daraxtzorlarda va ko‘lda sodir bo‘lgan alovat hodisalar shu zahoti butkul unutildi. Hamma gulxona-ga to‘plandi: Manya ham, Dunya ham, qorovul ham; hatto soqchi ham miltig‘ini eshik oldida devorga tirab qo‘yib, kirib keldi.

– Xo‘sh, qalay? Endi nima deysizlar? – deb so‘radi Aleksandr Semyonovich viqor bilan. Hammalari qiziqsinib, quloqlarini birinchi kamera eshigiga tutib ko‘rdilar.

– Tumshuqlari bilan tuxum qobig‘ini to‘qillatishyapti jo‘jalar, – deb gapini davom ettirdi og‘zi qulog‘ida Aleksandr Semyonovich. – Nima, meni jo‘ja ochib chiqarolmaydi, deb o‘ylovinglarmi? Yo‘q, azizlarim. – U, quvonchi ichiga sig‘maganidan, soqchining yelkasiga qoqib qo‘ydi. – Hali shunaqangi jo‘jalarni ochib chiqarayki, ko‘rib, og‘-

zingiz lang ochilib qolsin. Endi bu yog‘iga juda hushyor bo‘l, –deb qat’iy ohangda ilova qildi u. – Tuxumni teshib chiqqa boshlashlari bilan darhol menga xabar qilinglar.

– Xo‘p bo‘ladi, – deb baravariga javob qilishdi qorovul, Dunya va soqchi. „Tiq...tiq...tiq...“ – birinchi kameradagi goh u, goh bu tuxum ichida jonlanish boshlangandi. Darha-qiqat, nur bilan yoritilgan bu yupqa po‘choqlar ichida dun-yoga kelayotgan hayot manzarasi shu qadar qiziqrarli ediki, bu yerga yig‘ilgan jamoa yana ancha vaqtgacha to‘nkarilgan bo‘sh yashiklar ustida o‘tirib, jimirlovchi antiqa chiroq nurida yetilayotgan to‘q qizil tuxumlarni mijja qoqmay kuzatdi. Ular allamahalda uxlagani uy-uylariga tarqalishdi. Bu payt butun sovxozi va uning atrofidagi dalalar oyning och-yashil nuriga g‘arq bo‘lgan edi. Bu tun jumboqli edi, uni hatto dahshatli deyish ham mumkin edi. Bunday deyishimizga, ehtimol, tunning teran sukunatini ahyon-ah-yonda buzib turgan Konsovka qishlog‘idagi itlarning hech qanday asossiz hasratli uvlashi sabab bo‘lgandir. La’nati itlar nimaga bunchalik bezovta bo‘layotgan edi – buni hech kim aytolmasdi.

Ertasi kuni ertalab, Aleksandr Semyonovich shum xabar eshitdi. Soqchi qattiq xijolatda edi: u qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, bir zum ham mijja qoqqanim yo‘q, lekin, Xudo ursin, hech nima sezmadim, deb azza-bazza qasam ichardi.

– Hech tushunolmay qoldim, – deb ta’kidlardagi soqchi, – bu ishda mening zarracha ham aybim yo‘q, o‘rtoq Rokk.

– Rahmat, siz meni juda xursand qildingiz, chin qalbim-dan minnatdorchilik izhor etaman, – deb malomat qilardi unga Aleksandr Semyonovich, – o‘zi sizning xayolingiz qayoqda, o‘rtoq? Sizni bu yerga nima uchun qo‘yishgan? Kuzatish uchun. Bas, shunday ekan aytинг menga, qayoqqa ketdi ular? Axir tuxumdan chiqishibdi-ku. Demak, qochib ketishgan. Demak, siz eshikni ochiq qoldirib, o‘z hoja-

tingiz bilan qayoqqadir ketgansiz. Nima qilib bo'lsayam topasiz jo'jalarni.

— Men hech qayoqqa ketganim yo'q. Nima, men o'z vazifamni bilmas ekanmanmi? — dedi soqchi qattiq xafa bo'lib. — Siz meni bekorga koyiyapsiz, o'rtoq Rokk.

— Bo'lmasa qayoqqa ketdi o'sha jo'jalar?

— Axir men qayoqdan bilay? — dedi soqchi endi jahl bilan, — nima, ularga poyloqchilik qilishim kerakmidi? Men nima uchun qo'yilganman o'zi bu yerga? Kameralarni birov o'marib ketmasligi uchun. Demak, vazifamni halol bajaryapman. Ana, turipti kameralaringiz. Lekin jo'jalaringizning ketidan quvlab tutish, qonun bo'yicha mening vazifamga kirmaydi. Kim bilsin, bu tuxumlariningizdan qanaqa jo'jalar chiqarkin hali. Ehtimol, ularga velosipedda ham quvib yetib bo'lmas.

Aleksandr Semyonovich sal hovuridan tushdi, yana biroz vaqt allanimalar deb to'ng'illab turdi-da, keyin hayron bo'la boshladi. Haqiqatan ham juda ajablanarli hol yuz bergen edi. Eng avval zaryad berilgan birinchi kamerala da aynan nurning tig'i tushib turgan yerdagi ikkita tuxum singan edi. Salgina chetraqqa dumalab chiqqan bitta tuxumning po'chog'i azbestning nur tushib turgan yerida sochilib yotardi.

— Jin ursin, — deb g'o'ldiradi Aleksandr Semyonovich, — derazalar berk, tomni teshib, uchib chiqib ketishmagandir axir.

U boshini ko'tarib, oynaband tomoning bir necha yerida katta-katta tuynuk paydo bo'lganini ko'rdi.

— Voy, qiziqmisiz, Aleksandr Semyonovich, — dedi Dunya ajablanib, — hech zamonda jo'jalar ham ucharkanmi? Ular shu o'rtada bo'lishi kerak... Ma, tu... tu...tu... — deb qichqirarkan, u gulxonaning chang bosgan gultuvaklar uyilgan, allaqanday taxtalar terilgan va axlatlar to'kilgan

burchak-burchaklarini birma-bir ko‘zdan kechira boshladi. Lekin hech yerda hech qanday jo‘ja ko‘rinmadni.

Hamma xodimlar sovxozi hovlisida ikki soatda zir yugurishib, „uchqur“ jo‘jalarni qidirishdi, lekin hech yerdan hech nima topisha olmadi. Butun kun hayajon va vahima bilan o‘tdi. Kameralar soqchisi yoniga yana qorovul ham qo‘yildi. Bu qorovulga, har chorak soatda kameralar darchasini ko‘zdan kechirish va biron gap bo‘lsa, darrov Aleksandr Semyonovichni chaqirish buyurildi. Soqchi esa miltig‘ini tizzalari orasiga olib, eshik oldida xo‘mra-yib o‘tirardi. Aleksandr Semyonovichning bosh qashishga ham vaqt bo‘lmay, tinimsiz yelib-yugurdi, shu sababli u faqat soat ikkiga yaqinlashgandagina tushlik qilgani o‘tirdi. Tushlikdan keyin, bir vaqtlar Sheremetevniki bo‘lgan keng divanga yotib, soya-salqinda bir soatcha mizg‘ib oldi, keyin qotgan nondan tayyorlangan sovxozi kvasini miriqib ichdi-da, gulxonaga yo‘l oldi va u yerda endi hamma narssa batartib ekanligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, ko‘ngli taskin topdi. Keksa qorovul chipta ustiga qorni bilan yotib olib, ko‘zlarini pirpiratgancha birinchi kameraning nazorat oy-nasiga tikilardi. Soqchi eshik oldida sergak turardi.

Yangilik ham bor edi: eng keyin zaryadka qilingan uchinchi kameradagi tuxumlar, go‘yo ichlarida kimdir pi-qillab yig‘layotganday tamshanishar, tomoq taqillatishardi.

— O‘xho‘-o‘, yetilishyapti, — dedi Aleksandr Semyonovich, — mana buni yetilib qoldi desa bo‘ladi. Ko‘rding-mi? — deb qorovulga o‘girildi u.

— Ha, ishimiz zo‘r, — deb javob qildi qorovul bosh chay-qab — uning bu gapini ikki xil ma’noda tushunish mumkin edi.

Aleksandr Semyonovich kameralar oldida biroz vaqt cho‘qqayib o‘tirdi, lekin u borida bironqa ham tuxum ochilmadi, u o‘rnidan turib, uvushgan oyog‘ini uqaladi va:

– Men qo‘rg‘ondan hech qayoqqa ketmayman. Faqat ko‘lga borib cho‘milib kelaman, – dedi. – Agar biron yangilik yuz bersa, darhol chaqiringlar. U zamindor Sheremetev qasriga borib, o‘z yotoqxonasiga kirdi. Bu yerda o‘rin-ko‘rpasi yig‘ishtirilmagan ikkita tor simkara-vot turardi, yerga esa olam-jahon xom olma to‘kilgan, yana bir burchakda bo‘lg‘usi jo‘jalar uchun tayyorlab qo‘yilgan bir to‘p tariq uyilib yotardi. Rokk yelkasiga paxmoq sochiq tashladi, biroz o‘ylab turib, suv bo‘yida dam olib o‘tirganida chalish uchun nayini ham olvoldi. U qasrdan chiqdi, sovxozi hovlisini kesib o‘tib, tolzor ichidan ko‘l tomon keta boshladi. U nayini qo‘ltig‘iga qistirib, sochiqni silkitgancha shaxdam-shaxdam yurib borar edi. Samo o‘zining otash taftini tol novdalari orasidan pag‘a-pag‘a yog‘dirar, badani sirqirab, tezroq suvga sho‘ng‘ishni istardi. Rokkning o‘ng tomonida endi qalin o‘sgan qariqiz o‘tlar boshlandi. Aleksandr Semyonovich bu yerdan o‘ta turib, o‘t ichiga tupurdi. Shuzahoti ayqash-uyqash bo‘lib o‘sgan katta-katta yaproqli qariqiz o‘tlari orasida bir nima shitirladi: go‘yo kimdir yo‘g‘on bir xodani sudraganday bo‘ldi. Yuragida bir lahzagina noxush sanchiq turganini his etgan Aleksandr Semyonovich qariqizzor tomonga taajjub bilan boqdi. Mana ikki kundirki ko‘ldan hech qanday sado chiqmasdi. Shitirlash to‘xtadi, qariqizzor maydonining narigi tomonida ko‘lning jozibali sathi va yechinish xonasi ning kulrang tomi ko‘rindi. Aleksandr Semyonovichning oldidan bir nechta ninachi uchib o‘tdi. U suv ustiga o‘rnatilgan taxtapul tomon endigina burilmoqchi bo‘lgan edi, birdan qariqizzor ichidagi shitirlash yana takrorlandi va bu shitirlashga endi kalta-kalta pishillash jo‘r bo‘ldi – go‘yo moy tomayotganday va parovoz bug‘ chiqarayotganday tuyuldi. Aleksandr Semyonovich hushyor tortib,

qalin o'sgan yovvoyi o'tlar orasiga tikilib qaray boshladi. Shu payt Rokk xotinining:

— Aleksandr Semyonovich, — deb chaqirgan ovozi yangradi va ayolning oq koftasi bir lahzagagina lip etib ko'rini, g'oyib bo'ldi, so'ng yana, endi malinazorda ko'rindi. — Shoshma, men ham boraman cho'milgani.

Manya ko'l tomon shoshib kelardi, lekin Aleksandr Semyonovich unga hech nima deb javob qilmadi, chunki butun diqqati qariqizzorga qaratilgan edi. Shu payt och-sariq va och-bo'zrang bir xoda Rokkning ko'zi oldida o'tlar orasidan yuqoriga ko'tarila boshladi. Aleksandr Semyonovichga bu xoda go'yo allaqanday shilimshiq sarg'ish dog'lar bilan qoplanguandek ko'rindi. Xoda bilanglab-bilanglab harakat qilgancha shu qadar yuqoriga ko'tarildiki, shu yerda qiyshayib-mayishib o'sgan tol daraxtidan ham balandlab ketdi... Keyin bu xodanining bosh qismi bukilib, biroz egildi. Aleksandr Semyonovichning boshi uzra ko'tarilgan bu xoda bo'yining balandligi bilan Moskva ko'chalaridagi simyog'ochga o'xshab ketardi. Lekin bu oddiy simyog'ochlardan ikki hissa yo'g'onroq va badanini qoplagan tangachasimon bezaklar tufayli ancha chiroyliroq ko'rindi. Aleksandr Semyonovich hali hech nimaga tushunmasa ham, halitdan vujudi dag'-dag' qaltrib, bu qo'rqinchli xoda boshiga qaradi, qaradi-yu, yuragi bir necha soniyagacha tamoman urishdan to'xtab qoldi. Nazarida, avgust oyining shu jazirama kunida birdaniga qattiqsov uq turganday, ko'z oldi esa tamomila xiralashganday bo'ldi. Xodanining eng tepasi — bosh ekan. Bu dumaloq-sarg'ish xolli och jiigarrang bosh yalpoq va cho'zinchoq edi. Qovog'i yo'qsov uq va qiyiq ko'zlar boshning ustki qismiga joylashgan bo'lib, bu ko'zlarda g'ayritabiiy nafrat o'ti yonardi. Bu bosh go'yo havoni cho'qigandek harakat qildi va butun gavdasi bilan birga cho'kib, qariqiz-

zor ichida g'oyib bo'ldi, shapaloq yaproqlar uzra faqat bir juft ko'z qoldi, bu ko'zlar mijja qoqmay Aleksandr Semyonovichga tikilib turaverdi. Yaproqlar orasidan ko'rinish turgan ko'zlar shu qadar chiroyli ediki, butun vujudini yopishqoq sovuq ter bosgan Aleksandr Semyonovich faqat uchtagina so'z ayta oldi; hech aql bovar qilmaydigan bu so'zlarni faqat dahshatdan esi og'ib qolgan odamgina aytishi mumkin edi:

– Bu qanaqa maynavozchilik...

Keyin birdan esiga ilon o'ynatuvchi sehrgarlar tushdi... ha...ha... Hindiston... chipta savat va surat... Sehr-jodu.

Shu payt yana xodaning boshi va tanasi havoga ko'tarila boshladи. Aleksandr Semyonovich nayni labiga qo'yib, uni pufladi va har soniyada entika-entika „Yevgeniy Onegin“ operasidan vals kuyini chala boshladи. Yashil yaproqlar orasidan boqib turgan ko'zlarda operaga qarshi nafrat alangasi yondi. Ana shunda Manyaning:

– Nima balo, esingni yedingmi, nega jazirama oftobda nay chalyapsan? – degan quvnoq ovozi eshitildi va Aleksandr Semyonovich ko'z qiri bilan o'ng tomonga qarab, oq bir sharpani ko'rди.

So'ng benihoya iztirobli chinqiriq butun sovxozni boshiga ko'tardi va aks sado bo'lib, tevarak-atrofga yo-yildi, vals kuyi esa xuddi oyog'i singan qushday dikanglay boshladи. Yashil barglar orasidan tikilib turgan yalpoqbosh hamla qildi, uning ko'zları Aleksandr Semyonovichni holi qoldirib, nigohini boshqa tomonga qaratdi. Bo'yi taxminan o'n besh gaz keladigan, yo'g'onligi odam gavdasidan qolishmaydigan ilon (ha, bu ilon edi) qariqizzor ichidan xuddi prujinadek otilib chiqdi. Uning shamoliga so'qmoq yo'ldan to'zon ko'tarildi, vals taqqa to'xtadi. Ilon sovxoz rahbari yonidan shuvullab o'tib, to'g'ri so'qmoq yo'ldagi oq kofta tomon otildi.

Shundan keyin bo‘lgan dahshatli manzarani Rokk o‘z ko‘zi bilan aniq ko‘rdi: Manyaning rangi za’faron bo‘lib, keyin oppoq oqardi, uning soch tolalari boshi uzra xuddi ingichka simlar misol yarim gazga tikkaydi. Ilon og‘zini ochgan edi, og‘zidan sanchqiga o‘xhash bir nima otilib chiqdi va hushidan ketib so‘qmoqdagi tuproqqa yiqila boshlagan Manyaning yelkasidan ilib olib, yerdan bir gaz yuqoriga ko‘tardi. Shunda Manya yana bir marta jon talvasasida faryod soldi. Ilon to‘lg‘anib, o‘n besh gazli vintga aylandi, dumini likillatib, so‘qmoqdagi changdan quyun ko‘tardi va Manyani tegirmon toshiday ezib, majaqlay boshladi. Ayoldan endi boshqa hech qanday nido chiqmadi. Rokk uning suyaklari qisir-qisir sinayotganini eshitdi. Shu payt Manyaning boshi yerdan juda balandga ko‘tarildi – u go‘yo erkalanayotganday yuzini ilonning yuziga qo‘ygan edi. Manyaning og‘zidan qon varaqlab oqdi, singan qo‘li dikkaydi va uning har bitta tirnog‘i ostidan qon tizillab otilla boshladi. Keyin ilon chakagini qisirlatib og‘zini katta ochdi va shu ochiq og‘zini birvarakayiga Manyaning boshiga kiydirdi-da, ayolning gavdasini xuddi qo‘lqopga tiqilayotgan qo‘ldek asta-asta ichiga torta boshladi. Ilon jahannam olovini eslatuvchi o‘tli nafasini chor yoqqa ufurardi – bu otash nafas Rokkning yuziga ham kelib urildi, uning dumi Rokkni sal bo‘lmasa so‘qmoq yo‘ldan uchirib yuborayozdi. Ana shu payt uning sochlari birvarakayiga oqarib ketdi: moylangan etik kabi tim qora sochli boshining avval chap pallasi, keyin o‘ng pallasi xuddi kumush suvi yuritilgandek zumda oqardi-qoldi. Nihoyat, Rokk bu ajal nafasidan ko‘ngli behuzur bo‘lib, o‘zini so‘qmoqdan chetga oldi va ko‘z oldi qorong‘ilashib, jonholatdagи hayqirig‘i bilan hamma yoqni larzaga keltirgancha, boshi og‘gan tomonga yugurib ketdi...

## IX BOB

### JONLI BO‘TQA

Davlat siyosiy boshqarmasining Dugino bekatidagi va-kili Sh. Shchukin juda dovyurak odam edi. U o‘ylanib tu-rib, mallasoch o‘rtog‘i Polaytisga shunday dedi:

– Nima deysan, boramizmi? A? Bo‘pti, olib kel motot-siklni, – so‘ng biroz sukutga tolib, eshak-kursida o‘tirgan odamga o‘girildi, – nayni qo‘yib qo‘ying endi.

Lekin Dugino GPUsi binosidagi eshakda dag‘-dag‘ qaltri-ab o‘tirgan sochi oppoq oqargan odam qo‘lidagi nayni stolga qo‘ymay, yum-yum yig‘lay boshladi. Shunda Shchukin ham, Polaytis ham, nayni tortib olish lozim, degan qarorga kelishdi. Lekin u odamning barmoqlari nayga xuddi pay-vand qilingandek yopishib qolgan edi. Sirk pahlavoni singari baquvvat Shchukin uning har qaysi barmog‘ini bittama-bitta qayirib, naydan ajratdi. Keyin nayni stolga qo‘yishdi.

Bu voqeа Manya o‘lgan kunning ertasiga ertalab qu-yosh endi charaqlab chiqqan paytda yuz berayotgan edi.

– Biz bilan borasiz, – dedi Shchukin Aleksandr Sem-yonovichga, – qayerda nima bo‘lganini ko‘rsatishingiz kerak. – Lekin Rokk dahshatga tushib, o‘zini undan olib qochdi va ko‘ziga qo‘rqinchli sharpalar ko‘rinayotgandek yuzini qo‘llari bilan berkitib oldi.

– Baribir, ko‘rsatishingiz kerak, – dedi qat’iy ohangda Polaytis ham.

– Yo‘q, tinch qo‘y uni. Ahvolini ko‘ryapsan-ku.

– Meni Moskvaga jo‘natinglar, – yig‘lab iltimos qildi Aleksandr Semyonovich.

– Nima, sovxozagа butunlay qaytib bormoqchi emas-misiz?

Rokk javob berish o‘rniga yana qo‘llari bilan yuzini qop-ladi, yana ko‘zidan dahshat yoshlari tirqirab oqa boshladi.

— Ha yaxshi, — dedi Shchukin keskin ohangda, — haqiqatan ham juda nochor ahvoldasiz... Ko'rib turibman. Hozir bu yerdan tezyurar poyezd o'tadi, shu poyezdda jo'naysiz.

Bekat qorovuli Aleksandr Semyonovichga suv tutdi, u siri ko'chib qolgan ko'k krujka chetiga tishini takillatib urib suv icha boshladidi. Bu payt Shchukin bilan Polaytis kengash o'tkazishdi. Polaytisning farazi bo'yicha, umuman, hech qanday voqeа sodir bo'limgan, shunchaki Rokk ruhiy kasallikka chalingan-u, ko'ziga dahshatli sharpalar ko'ringan. Ammo Shchukin, hozirgi paytda Grachevka shahrida tomosha ko'rsatayotgan sirkdan bo'g'ma ilon qo'chganiga shama qildi. Ikki vakilning pichir-pichir taxminlarini eshitib qolgan Rokk o'rnidan turdi. Endi biroz o'ziga kelgan bu odam muqaddas kitobda madh etilgan payg'ambardek qo'llarini yoyib dedi:

— Qulq solinglar. Menga qaranglar. Nega gapimga ishonmaysizlar? Uni o'z ko'zim bilan ko'rdim axir. Bo'lmasa mening xotinim qayoqqa ketdi?

Shchukin sukutga toldi, jiddiylashdi va darhol Gra-chevkaga qandaydir mazmunda telegramma yubordi. Uning farmoyishi bo'yicha, uchinchi vakil Aleksandr Semyonovichdan bir qadam ham nari jilmay, unga ko'z-qulq bo'lib turdi. Rokkni shu vakil Moskvaga kuzatib borishi lozim edi. Shchukin bilan Polaytis esa ekspeditsiyaga hozirlik ko'ra boshlashdi. Ularda faqat bittagina elektr revolver bor edi, lekin shuning o'zi ham yaxshigina himoya quroli bo'la olardi. 27-yilda chiqarilgan, yaqindan jang qilishga moslangan bu ellikotar revolver Fransiya texnikasining faxri bo'lib, yuz metr masofadagi nishonni urishi, urganda ham diametri ikki metr bo'lgan maydondagi jamiki jonzotni yer tishlatishi muqarrar edi. Xullas, bu qurol bilan mo'ljalga tekkizishdan, tekkizmaslik qiyin edi. Shchukin yaraqlab turgan elektr to'pponchani taqqi, Polay-

tis bo'lsa, 25 o'qli oddiy pulemyotchani beliga osib, yana, ehtiyot shart, o'q to'ldirilgan oboymalar ham oldi. Keyin ular hali shudring ko'tarilmagan ertalabki salqinda tosh yo'ldan sovxozi tomon yo'l olishdi. Mototsikl bekat bilan sovxozi oralig'idagi yigirma chaqirim masofani chorak soatda bosib o'tdi (Rokk esa har qadamda hushidan ketgudek qo'rqib, dam-badam yo'l yoqasidagi o'tlar orasiga yashirinib tun bo'yi yurgan edi), quyosh xiyla ko'tarilib endi qizdira boshlaganida, ular Ton daryosi bo'yidagi tepalikda, yam-yashil daraxtlar orasidan mo'ralab turgan, kiraverishida muhtasham ustunlari bo'lган qordek oppoq qasrni ko'rishdi. Tevarak-atrof suv quygandek jimjit edi. Vakillar sovxoza yetay deb qolishganida, aravasiga qandaydir qoplar ortib imillab borayotgan bir aravakash dehqonning yonidan g'izillab o'tib, uni orqada qoldirib ketishdi. Mototsikl ko'priordan o'tgach, Polaytis biron kimsani chaqirish niyatida signal berdi. Lekin agar Konsovka qishlog'idan eshitilayotgan bitta-yarimta itning jon-jahd bilan vovullashi hisobga olinmasa, boshqa hech yerdan, hech qanday tovush eshitilmadi. Mototsikl yurishi sekinlatib, ikki yonida ikki sherning ko'karib ketgan tosh haykali bo'lган darvoza oldiga yaqinlashdi. Oyoqlariga sariq charm qo'nj kiygan, changga botgan vakillar yerga tushishdi va mashinani darvoza panjarasiga zanjir-band qilib qulflab, o'zлari qo'rg'onga kirishdi. Bu yerda hukm surayotgan sukunat ularni vahimaga soldi.

— Hoy, kim bor? — deb baqirdi Shchukin baralla ovoz bilan.

Lekin uning do'rillagan ovoziga hech kim javob bermadi. Vakillar tobora ko'proq taajjubga tushib, qo'rg'oni ayylanib chiqishdi. Polaytis qovog'ini soldi. Shchukin oq-sariq qoshlarini astoydil chimirgancha atrofga jiddiy nazar tashlay boshladidi. Ular yopiq derazadan oshxonaga

mo'ralashdi: u yerda hech kim yo'q edi, ammo hamma yoqda singan chinni idishlarning oppoq parchalari sochilib yotardi.

— Bilasanmi, chindan ham bu yerda bir gap bo'lganga o'xshaydi. Ko'ryapman. Falokat yuz bergan, — dedi Polaytis.

— Hoy, kim bor?! Javob beringlar?! — deb qichqirdi Shchukin, lekin unga oshxonaniga shiftidan kelgan aks-sadogina javob bo'ldi.

— Tavba, — deb po'ng'illardi Shchukin. — Axir o'sha ilon hammani birvarakayiga yutib yubormagandir. Yo qo-chib ketishdimikin. Yur, uyga kiramiz.

Sobiq zamindor qasrining eshigi lang ochiq, ichi bo'mbo'sh edi. Vakillar hatto boloxonaga ham chiqib-tushishdi, hamma eshiklarni bir-bir taqillatib ochib ko'rishdi, lekin hech zog'ni uchratishmadi, keyin huvullab yotgan dahlizdan yana hovliga chiqishdi.

— Aylanib o'tib, qishlik bog'ga kirib ko'ramiz, — deb taklif kiritdi Shchukin, — hamma yoqni ko'zdan kechiramiz, undan keyin sim qoqsak ham bo'ladi.

Vakillar g'isht terilgan yo'lkadan yurib, to'garak gulzor yonidan o'tishdi-da, ichkari hovliga kirishdi, uni tik kesib o'tib, qishlik gulxonaning yaraqlagan oynalariga yaqin borishdi.

— Shoshma-chi, — dedi pichirlab Shchukin va beliga taqqan revolverni oldi. Polaytis ham hushyor tortib, pulemyotchani qo'liga oldi. Gulxonadan va uning orqasidan quloqni batang qiluvchi juda g'alati tovush eshitilardi. Qayerdadir xuddi parovoz pishqirayotgandek edi. Vish-sh... Vish-sh... s-s-s-s... — deb pishqirardi butun gulxona.

— Etiyot bo'l, — deb pichirladi Shchukin, so'ng ikki vakil gulxona oynasi oldiga oyoq uchida yurib borib, ichkariga qarashdi.

Shu zahoti Polaytis o‘zini orqaga tashladi, uning yuzi dokadek oqarib ketgan edi. Shchukin og‘zini ochgancha qo‘lida revolver bilan serrayib qoldi.

Butun gulxona qurt tushgan bo‘tqaga o‘xshardi. Bahaybat ilonlar dam buralib, dam cho‘zilib, dam kulcha bo‘lib vishillashib, boshlarini goh har yoqqa tiqib, goh sarak-sarak qilib gulxona ichida sudralib yurishardi. Hamma yoqda sochilib yotgan tuxum po‘choqlari ilonlar ostida qisirlab sinardi. Shiftda yonib turgan kattakon sharsimon elektr chirog‘i butun gulxonani xuddi kinematograf chirog‘i singari ajib bir tarzda yoritardi. Yerda ulkan fotoapparatni eslatuvchi uchta qora yashik turardi. Ulardan ikkitasi joyidan qo‘zg‘atilgan, qiyshayib o‘chib qolgan, uchinchisida nozikkina to‘q qizil nur yonib turardi. Katta-kichik ilonlar elektr simlariga, deraza romlariga tirmashib, oynaband tomdagi tuynuk orqali tashqariga o‘rmalab chiqardilar. Sharsimon elektr chirog‘ida bir necha gaz uzunlikdagi tim qora chipor ilon osilib yotar, uning boshi chiroq ostida xuddi soat kapgiri misol chayqalardi. Ilonlarning vishillashiga allaqanday shaqildoqlar jo‘r bo‘lardi, gulxonadan ko‘lmak suvning hidiga o‘xhash badbo‘y chirindi hidi kelardi. Vakillarning ko‘ziga bu yerda yana changga qorishib, sochilib yotgan oppoq tuxumlar va kameralar yaqinida qilt etmay yotgan bahaybat uzunoyoq qush hamda eshik oldida miltig‘i bilan yonma-yon cho‘zilib yotgan kulrang kiyimli odamning jasadi ko‘ringanday bo‘ldi.

— Qoch, — deb baqirdi Shchukin va chap qo‘li bilan Polaytisning ko‘kragidan itarib, o‘ng qo‘lidagi revolverni ko‘targancha orqaga tisarila boshladi. U gulxona oldida ko‘kish chaqmoq chaqib, to‘qqiz martacha pishillatib o‘q uzishga ulgurdi. Bu pishillash nihoyatda qattiq eshitildi, shunda Shchukin otgan o‘qlarga javoban butun gulxona dahshatli harakatga keldi va ilonlar barcha tuynuk va tir-

qishlardan yassi boshlarini chiqara boshladilar. Gumburlagan o‘q ovozi shu zahoti butun sovxoza yoyilib, shu’lasi devorlarda aks eta boshladи. Polaytis orqasiga tisarilarkan, pulemyotchasiдан tinmay o‘q uzardi; o‘qlar: chax, chax, chax, shuv... degan ovoz chiqarardi. Shu payt Polaytis o‘z orqasida g‘oyat g‘ayritabiiy to‘rt oyoqli bir maxluqning sharpasini eshitib, birdan chalqanchasiga yiqilarkan, jonholatda chinqirib yubordi. Juda bahaybat kaltakesakni eslatuvchi yashil-jigarrang tusli, kattakon cho‘zinchoq tumshuqli, maymoqoyoq, dumi taroqsimon bu maxluq omborxonanorqasidan chiqib kelib, Polaytisning oyog‘idan g‘archcha tishlab, uni yerga yiqitgan edi.

— Yordam ber, — deb chinqirdi Polaytis, lekin shu zahoti uning chap qo‘li maxluqning og‘zida qisirlab sindi, o‘ng qo‘lini ko‘tarishga qancha urinmasin, foyda bermadi, revolver ushlagan bu qo‘l yerda sudrala boshladи. Shchukin ovoz kelgan tomonga yalt etib qaradi-yu, esankirab qoldi. U bir marta o‘q uzdi, lekin o‘rtog‘ini o‘ldirib qo‘yishdan qo‘rqib, ancha chetroqni mo‘ljalga oldi. Ikkinchи o‘qni u gulxona tomonga qarata otdi. Chunki u yerda g‘ujg‘on o‘ynayotgan mayda ilonlar orasidan xirsday keladigan bir ilonning sap-sariq bahaybat yalpoq boshi ko‘tarilgan va butun gavdasi bilan gulxonadan otilib chiqib, Shchukin tomon tashlangan edi. Ikkinchи o‘q bilan u mana shu ulkan ilonni otib o‘ldirgan edi. Endi u yana chalajon Polaytisni og‘ziga tishlab olgan timsohni o‘ldirishga shaylanib, bu yovuz gazandaning qayerini poylab otsa do‘stiga ziyon yetkazmasligini o‘ylab girdikapalak bo‘lardi. Nihoyat u gazandani otdi. Elektr revolver atrofga nim yashil shu’la taratib ikki marta paqilladi, shunda timsoh bir irg‘ib, og‘zidan Polaytisni tushirib yubordi va uzala tushib jon berdi. Sog‘lom o‘ng oyog‘ini yerga tirab, singan chap oyog‘ini sudrab emaklayotgan Polaytisning yengidan va

og‘zidan varaq-varaq qon kelardi. Uning ko‘z nuri so‘na boshlagan edi.

– Shchukin... qoch, – deb g‘o‘ldirardi u piq-piq yig‘-larkan.

Shchukin gulxona tomonga qaratib ketma-ket o‘q uzbeki, gulxonaning bir nechta oynasi chil-chil sindi. Lekin uning orqasidagi yerto‘la derazasidan bilanglab chiqqan, mahobatli prujinani eslatuvchi zarg‘aldoqrang ilon butun hovlini o‘zining o‘n besh gazli gavdasi bilan qopladi va shu ondayoq Shchukinning oyog‘ini chirmab, uni yerga gursullatib urdi, yaltiroq revolver Shchukinning qo‘lidan ancha nariga uchib ketdi. Shchukin ovozining boricha baqirib yubordi, keyin nafasi bo‘g‘ila boshladni, chunki jonli prujina uning kallasinigina ochiq qoldirib, butun gavdasini o‘rab olgandi. Prujinaning boshi Shchukinning kallasi atrofidan bir marta aylanib o‘tgan edi, kallaning terisi shilindi, boshchanoq qisirlab majaqlana boshladni. Shundan keyin sovxozda boshqa biron marta ham o‘q ovozi eshitilmadi. Hamma yoqni vishillovchi mudhish tovush bosib ketdi. Bu tovushga javoban juda olisdan, Konsovka tomondan shamol uvullagan ovozni uchirib olib keldi, lekin bu itning uvullahimi yo odam uvullayaptimi – endi aniqlab bo‘lmashdi.

## X BOB

### FOJIA

„Izvestiya“ning sharsimon chiroqlardan charog‘on tungi tahrir sho‘basida gazeta chiqaruvchi baqaloq muharrir quyma stol ustida gazetaning „Respublikalar Ittifoqi bo‘ylab“ degan mavzudagi telegrammalar terilgan ikkinchi sahifasini tayyorlardi. Shu payt ko‘zi bir grankaga tushdi-yu, unga pensne orqali tikilib, birdan xaxolab kulib

yubordi, atrofiga korrektorlar bilan sahifalovchini chaqirib, hammaga o'sha grankani ko'rsatdi. Nam qog'ozning tas-madek ingichka yeriga quyidagi so'zlar chop etilgan edi:

*„Smolensk guberniyasi, Grachevka uyezdi. Bu yerdagi kattaligi otdek keladigan va otga o'xshab tepinadigan tovuq paydo bo'lgan. Uning dumi o'rnidan burjuy xonimlar taqadigan pat o'sib chiqqan“.*

Harf teruvchilar buni o'qib xandon tashlab kulishdi.

– Bir zamonlar, – dedi gazeta chiqaruvchi huzur qilib hiringlab, – Vanya Sitin<sup>1</sup>ning „Russkoye Slovo“ gazetasida ishlagan paytimda muxbirlar shu qadar ko'p ichishardiki, ko'zlariga pashsha fil bo'lib ko'rinardi, endi bo'lsa tovuq tuyaqushdek bo'lib ko'ringuncha ichishganga o'xshaydi.

Harf teruvchilar xaxolab kulishardi.

– Gapingiz rost, tuyaqush bo'lishi kerak, – dedi sahifalovchi, – nima deysiz, joylashtiraveraylikmi, Ivan Voni-fatevich?

– Nima, jinni bo'lганmisan, – deb javob qildi gazeta chiqaruvchi, – hayronman, kotib qanday o'tkazib yubordiy-kin bu – kayfi taraq odam yuborgan telegrammani.

– Ko'riniib turipti: maishat zo'r bo'lganga o'xshay-di, – deb qo'shilishdi harf teruvchilar, sahifalovchi ham tuyaqush haqidagi xabarni stoldan olib tashladi.

Shuning uchun, ertasi kuni „Izvestiya“, odatdagidek bir olam qiziqarli materiallar bilan, ammo Grachevka tuyaqushi haqidagi ma'lumotsiz bosilib chiqdi. „Izvestiya“ gazetasini muntazam ravishda o'qib boruvchi privat-dotsent Ivanov o'z kabinetida gazetani ko'zdan kechirib bo'lib, taxladi va bir esnab qo'yib, qiziqarli hech nima

<sup>1</sup> Sitin I. D. (1851–1934) – mashhur rus noshiri.

yo‘q, deb oq xalatini kiya boshladi. Birozdan so‘ng uning xonasida isitkichlar yondi, qurbaqalar qurullay boshladi. Professor Persikovning xonasida esa to‘s-to‘polon edi. Pankrat qo‘llarini yoniga tushirib, yurak hovuchlab turardi.

— Tushundim.... xo‘p bo‘ladi, — derdi u.

Persikov uning qo‘liga surg‘uch bilan muhrlangan paket tutqazarkan, dedi:

— Sen chorvachilik bo‘limiga borib, to‘g‘ri bo‘lim mudiri Ptaxanining oldiga kirasan, shartta uning yuziga, siz cho‘chqasiz, deb aytasan. Buni men, ya’ni professor Persikov aytdi, deysan-da, paketni qo‘liga berasan.

— „Oson bo‘pti-da, ja“... — deb ko‘nglidan o‘tkazdi rangi dokadek oqargan Pankrat va qo‘lida paket bilan chiqib ketdi.

Persikov xunob edi.

— Qanday bema’nilik, — deb g‘ingshirdi u qo‘lpaypoq kiygan qo‘llarini bir-biriga ishqab xona ichida u yoqdan bu yoqqa tanda qo‘yar ekan, — bu meni va umuman, zoologiyani betamizlarcha tahqirlashdir. Anavi la’nati tovuq tuxumlarini rosa tashib yotishipti, men bo‘lsam ikki oydan beri kutgan narsamni ololmayman. Nima, Amerika shunchalik uzoqmi-a? Qachon qarasang it egasini tanimaydi, doim tartibsizlik, — shundan keyin u barmoqlarini bukib sanay boshladi: ularni tutishga... hay, ko‘pi bilan o‘n kun ketsin, ha, yaxshi — o‘n besh kun... boring ana, yigirma kun ketsin, okean ustidan uchib o‘tishga ikki kun, Londondan Berlingacha bir kun... Berlindan bizgacha olti soat... axir, bu ko‘z ko‘rib qulqoq eshitmagan bema’nilik-ku...

U jahl bilan telefonga tashlanib, qayoqqadir qo‘ng‘iroq qila boshladi.

Uning xonasida allaqanday sirli va xatarli tajriba o‘tkazish uchun hamma narsa taxt edi, bu yerda eshik tirqishlariga yopishtirish uchun tilim-tilim qilib qirqilgan

qog‘ozlar, g‘avvoslarning naychali shlemlari va biqiniga „Dobroxim“ tegilmasin“ deb yozilib, yozuv ostiga odam bosh chanog‘i bilan chalishtirilgan ikki suyakning tasviri tushirilgan qog‘oz yopishtirilgan, simobdek yaraqlovchi bir nechta ballon turardi.

Professor faqat uch soatlardan keyin hovuridan tushib, ikir-chikir ishlar bilan shug‘ullana boshladı. U institutda har kuni kech soat o‘n birgacha ishlar, shuning uchun tashqarida sodir bo‘layotgan voqealardan mutlaqo bexabar edi. Moskva-da og‘izdan og‘izga o‘tib yurgan allaqanday ilonlar haqidagi bema’ni mish-mishlardan ham, kechki og‘zaki gazetada ovoza qilingan juda g‘alati telegrammadan ham u bexabar edi, chunki dotsent Ivanov badiiy teatrqa, „Shoh Fyodor Ivanovich“ spektaklini ko‘rgani ketgandi, shunga ko‘ra bu yangiliklarni professorga hech kim yetkazmagan edi.

Persikov Prechistenkadagi uyiga yarim kechada borib, uxlagini yotdi, uyqu oldidan Londondan kelgan ingliz tilidagi „Zoologiya axborotnomasi“ jurnalidagi bir maqolani o‘qidi. U uxbab qoldi, shuningdek, yarim tungacha bedor bo‘lgan butun Moskva ham uyquga ketdi; faqat Tver ko‘chasidagi<sup>1</sup> mahobatli kulrang bino – „Izvestiya“ gazetasining tahrir shu‘basi uyg‘oq edi; bu binoning hovlisiga o‘rnatilgan rotatsiya mashinasining guvullashidan butun bino zirillardi. Gazeta chiqaruvchining xonasi alg‘ov-dalg‘ov, to‘s-to‘polon edi. G‘azabdan uning ko‘zlariga qon to‘lgan, kimdan alamini olishni bilmay, hammaga quturgan itday tashlanar, murojaat qilgan odamni bo‘ralab so‘kib berardi. Sahifalovchi uning orqasidan qolmay ergashib yurarkan, og‘zidan gup-gup vino hidi kelardi:

– Ha, nima bo‘pti shunga, Ivan Vonificatevich, kuyumang, ertalab shoshilinch ravishda gazetaning ilova soni-

<sup>1</sup> Tver ko‘chasi – Moskvaning markaziy ko‘chasi.

ni bosib chiqarish mumkin. Axir gazeta mashinaga tushib ketgan, uni qaytarib olmaymiz-ku.

Harf teruvchilar uylariga ketmay, bosmaxonada ga-la-gala bo‘lib yurishar, to‘planishib, kun bo‘yi uzluk-siz oqib kelayotgan va har chorak soat sayin tobora xunukroq, dahshatliroq mazmun kasb etayotgan tele-grammalarni o‘qirdilar. Alfred Bronskiyning cho‘qqi shlapasi charog‘on yoritilgan bosmaxonaning goh u, goh bu yerida lip-lip ko‘rinib qolar, baqaloq muxbir ham, yasama oyog‘ini g‘ijirlatib, oqsoqlanib dam u, dam bu yerdan o‘tib qolar edi. Binoga kiraverishdagi eshik tin-may qars-qars ochilib yopilar, mahalliy muxbirlar butun tun to‘xtovsiz kelib turishardi. Bosmaxonadagi o‘n ikki-ta telefonning hammasi to‘xtovsiz jiringlar, shunga ko‘ra telefon stansiyasi har bir sirli signalga beixtiyor „band“, „band“, deb javob qilar, apparatlar oldida navbatchilik qilayotgan bedor telefonchi qizlarning qulqlari telefon karnaychilarining uzluksiz du-dulashidan qomatga kelgan edi...

Harf teruvchilar yasamaoyoq baqaloq odamni o‘rab olishdi.

– Aeroplandan gaz purkashga to‘g‘ri keladi, – derdi bu uzoqqa suzuvchi kema kapitani.

– Ha, boshqa iloj qolmadni, – deb javob qilishardi harf teruvchilar, – axir bu nima degan gap. – Shu gapdan keyin butun bosmaxonani boshlariga ko‘tarib bo‘ralab so‘kish boshlanardi.

– Otib tashlash kerak o‘scha Persikovni, – deb chiyillar-di kimdir.

– Persikovning nima daxli bor bunga, – deb javob qilihardi olomon orasidan, – otish lozim bo‘lsa, sovxozdagi anavi kasofatni otish kerak.

– Soqchi qo‘yishi lozim edi, – deb qichqirdi kimdir.

– Ehtimol, o'sha tuxum deb o'ylaganlari mutlaqo tuxum emasdир.

Rotatsion mashina g'altaklarining guvullashidan butun bosmaxona zirillar va go'yo bu ko'rimsiz shumshuk bino boshdan oyoq elektr yong'inida lov-lov yonayotgandek bo'lib tuyulardi.

Tong yorishgandan keyin ham „yong'in“ to'xtamadi. Aksincha, elektr chiroqlari o'chirilgan bo'lishiga qaramay, ish yana zo'raydi. Bosmaxonaning asfalt yotqizilgan hovlisiga dam-badam goh mototsikl, goh avtomobillar kelib turdi. Endi butun Moskva uyg'ongan, gazetalarning oq sahifalari xuddi qushlar galasidek shaharning hamma yog'ini burkab olgan edi. Gazeta varaqlari hammaning qo'lida shitirlardi, soat ertalabki o'n birga borib, gazetafurushlarda bitta ham gazeta qolmadi, vaholanki, bu oyda „Izvestiya“ bir yarim million nusxada bosilayotgan edi.

Professor Persikov Prechistenkadan institutga avtobusda keldi. Bu yerda uni xushxabar kutayotgan edi. Dahlizza atrofiga pishiq qilib tunuka tasmalar qoqilgan uchta yog'och yashik turardi; yashiklarning hamma yog'iga nemis tilida yozilgan yorliqlar yopishtirilgan bo'lib, ularning ustiga bo'r bilan: „Ehtiyot bo'ling – tuxumlar“, deb yozib qo'yilgan edi.

Professor quvonchdan terisiga sig'may ketdi.

– Xayriyat-e, – deb qichqirib yubordi u. – Pankrat, qani, darhol yashiklarni buz, lekin ehtiyot bo'l, tag'in tuxumlarni sindirib qo'yma. Xonamga olib kir bularni.

Pankrat shu zahoti buyruqni bajardi, chorak soatdan keyin professorning qipiqlik va qog'oz parchalari sochilgan xonasidan ovozi jaranglab eshitila boshladи.

– Nima bu, meni mayna qilishyaptimi, – deb chiyillardi professor dam mushtlarini do'laytirib, dam qo'lida tuxumi aylantirib ko'rarkan, – odam emas, hayvon ekan ana-

vi Ptاخа. Meni mazax qilishlariga yo‘l qo‘ymayman. Bu nima o‘zi, Pankrat?

– Tuxum, taqsir, – deb javob qildi Pankrat mung‘ayib.

– Tovuq tuxumi, tushunyapsanmi, tovuqni, padari-ga ming la’nat. Boshimga uramanmi bu tuxumlarni. Buni anavi sovxozdagi ablahga yuborishsin.

Persikov burchakdagi telefon oldiga yugurib bordi, lekin qo‘ng‘iroq qilishga ulgurmadi.

– Vladimir Ipatich! Vladimir Ipatich! – institut yo‘lagida Ivanovning ovozi yangradi.

Persikov yuzini telefonдан o‘girdi, Pankrat privat-dotsentga yo‘l berib, tez o‘zini chetga oldi. Ivanov o‘zining jentlmenlik odatiga zid o‘larоq, qanshariga surilgan kulrang shlapasini yechmay, qo‘lida gazeta bilan kabinetga otlib kirdi.

– Yangilikdan xabaringiz bormi, Vladimir Ipatich? – deb chinqirdi u Persikovning yuzi oldida „Shoshilinch ilova son“ degan yozuvi bo‘lgan gazeta varaqasini silkitarkan: varaq o‘rtasidagi rangli surat ko‘zga yaqqol tashlanib turardi.

Lekin Persikov dotsentning gapiga quloq solmay:

– Yo‘q, siz eshititing ularning kirdikorini, – deb ba-qirardi, – ular tovuq tuxumi bilan meni ajablantirmoqchi bo‘lishipti. Anavi Ptاخа g‘irt ahmoq odam ekan, buni qarang.

Ivanov mutlaqo esankirab qoldi. U qopqog‘i ochilgan yashiklarga, so‘ng gazeta varaqasiga ko‘zlari kosasidan chiqib ketgudek bo‘lib hayrat bilan tikildi.

– Gap bu yoqda ekan-da, – deb g‘o‘ldiradi u nihoyat hansirab nafas olarkan – endi tushundim.... Yo‘q, Vladimir Ipatich, siz mana buni ko‘ring, – deb u gazetani shosha-pisha yoydi-da, qaltirayotgan barmoqlari bilan rangli suratga ishora qildi. Suratda surkalib ketgan yashil rang ichi-

da hamma yog‘i sarg‘ish xol-xol dog‘lar bilan qoplangan zarg‘aldoqrang dahshatli ilonning xuddi o‘to‘chiruvchilar shlangi kabi to‘lg‘anayotgani tasvirlangan edi. Surat te-padan, pastlab va sekinlab uchgan yengil uchar mashi-nadan turib ehtiyyotkorlik bilan olingan edi, – sizningcha, bu nima, Vladimir Ipatich?

Persikov ko‘zoynagini peshonasiga qo‘ndirdi, keyin yana ko‘ziga tutib, suratga tikildi-da, hayratga kelib dedi:

– Yo tovba... Axir bu... anakonda – suvda yashovchi bo‘g‘ma ilon-ku...

Ivanov shlapasini yechib tashlab, stulga o‘tirdi va har bir so‘zini stolga musht urib turib ayta boshladi:

– Vladimir Ipatich, bu anakonda Smolensk guberniya-sida. O‘ta mudhish voqea yuz bergan. Tushunyapsizmi, anavi ablah tuxumlardan tovuqlarni emas, ilonlarni ochirib chiqargan, e’tibor bering-a, bu ilonlar ham xudi qurbaqalarga o‘xshab, o‘z navbatida, nodir tuxumlar qo‘ygan.

– Nima, nima? – dedi Persikov, uning yuzi cho‘g‘dek qizarib ketdi... – Hazillashyapsiz, Petr Stepanovich... Qa-yoqdan olipti?

Ivanov bir lahzaga lol bo‘lib qoldi, keyin tilga kirib, barmog‘i bilan qopqog‘i ochilgan yashikka ishora qilib:

– Mana bu yoqdan, – dedi. U yerda sariq qipiqlik orasidan tuxumlar oppoq boshlarini chiqarib terilib turardi.

– Nima-a?!. – deb chinqirib yubordi voqeaga endi tu-shuna boshlagan Persikov.

Ivanov ikkala mushtini silkib, qat‘iy ishonch bilan baqirib gapirdi:

– Gapimga ishonavering. Ular sizning buyurtma-niz – ilon va tuyaqushlarning tuxumlarini sovxoza-yuborishgan-u, tovuq tuxumlarini yanglishib sizga jo-natishgan...

— Yo qudratingdan... yo qudratingdan, — deb takrorladi Persikov va rangi ko‘karib ketib, aylanuvchi kursiga o‘tirib qoldi.

Eshik oldida turgan Pankratning rangi quv o‘chib, mutlaqo esankirib, gung bo‘lib qolgandi. Ivanov dik etib turib ketdi va gazeta varaqasini olib, undagi yozuvning tagiga o‘tkir tirnog‘i bilan chizarkan, professorning qulog‘iga baqirib dedi:

— Mana, endi onalarini ko‘rishadi... Endi nima bo‘lishini men hatto tasavvur ham qila olmayapman. Vladimir Ipatich, buni qarang, — dedi u chinqirib va g‘ijimlangan varaqadan ko‘ziga tushgan satrlarni ovoz chiqarib o‘qiy boshladi... — Ilonlar yo‘l-yo‘lakay behisob tuxum qo‘yib... gala-gala bo‘lib Moxaysk tomon kelishmoqda. Tuxumlar Duxovo uyezdida ham topilgan... Timsohlar va tuyaqushlar paydo bo‘ldi. Maxsus topshiriq olgan qismlar... hamda davlat boshqarmasi otryadlari Vyazma yaqinidaga o‘rmonga o‘t qo‘yib ilonlarning yo‘lini to‘sish bilan shaharda ko‘tarilgan vahimaga barham berishdi...

Ikki yuzi dam ko‘karib, dam bo‘zarib tovlanayotgan Persikov, ko‘zlarini telblarcha olazarak qilib o‘rnidan turib ketdi va entikib-entikib baqira boshladi:

— Anakonda... anakonda... suvda yashovchi bo‘g‘ma ilon. Yo Xudoyo tovba. — Ivanov ham, Pankrat ham hali hech qachon professorni bunday ahvolda ko‘rmagan edilar.

Professor bir siltashda bo‘ynidan galstugini yulib oldi, ko‘ylagining tugmalarini uzib yubordi, falaj odamlarday qizarib ketib, xiralashgan ko‘zлari ma’nisiz boqib, gandiraklagancha xonadan otilib chiqib ketdi. Institut gumbazlari ostida uning faryodi jarangladi:

— Anakonda... anakonda... — deb guldirardi aks-sado.

— Ushla professorni, — deb chinqirdi Ivanov qo‘rqqani dan bir joyda pitirlab turgan Pankratga. — Suv ber unga... u sakta bo‘ldi.

## XI BOB

## JANG VA O'LIM

Tungi Moskva elektr shu'lalaridan g'oyat charog'on edi. Shahardagi jamiki chiroqlar yongan, barcha uylarning hamma xonalarida chiroqlarning qalpoqlari olib tashlanib, yoqib qo'yilgan edi. To'rt million aholisi bo'lgan Moskvaning bironta ham kvartirasida, agar hech nimaning fahmiga yetmaydigan go'daklarni hisobga olinmasa, bironta ham odam uxlamasdi. Kvartiralarda odamlar palapartish ye-yishar, ichishar, bir nimalar deb baqirishar, barcha uylarning hamma qavatlaridagi derazalaridan vahimaga tushib ahti burishgan odamlar dam-badam boshlarini chiqarib, projektorlarning har tomonga yo'naltirilgan shu'lalaridan bo'lak-bo'lak bo'lib ko'rinishotgan osmonga tikilishardi. Osmonda g'uj-g'uj shu'lalar paydar-pay porlar va rangpar nurlarini Moskva ustiga yog'dirguncha, asta so'nib g'o-yib bo'lardilar. Osmondan aeroplanning bo'g'iq ovozini eslatuvchi mudhish guvullash muttasil eshitilib turardi. Hammadan ham Tverskaya-Yamskaya ko'chasi dahshatli edi. Aleksandr vokzaliga har o'n daqiqada har xil (turli dajradagi passajir vagonlari, yuk tashuvchi, hattoki sisternali) vagonlardan tarkib topgan poyezdlar kelib turar edi; bu poyezdlarning hamma yog'iga dahshatdan esi og'ib qolgan odamlar kanadek yopishib olgan edilar. Keyin bu odamlar bir-birlarini bosib-yanchib, avtobuslarga, tramvaylarning tomlarigacha chiqishar, Tverskaya-Yamskaya ko'chasi bo'ylab xuddi quyuq bo'tqadek oqib borishardi. Vokzalda dam-badam olomon boshi uzra tasir-tusur o'q ovozlari eshitilib turardi, harbiy qism askarlari Smolensk guberniyasidan temiryo'l izi bo'ylab Moskvaga telbalarcha yugurib kelayotgan odamlarni o'q otib to'xtatayotgan edilar. Vokzalda lahma sayin derazalarning oynalari chirs-chirs sinar, barcha

parovozlar tinimsiz faryod qilardi. Hamma ko‘chalarda oyoq ostida plakatlar toptalib yotardi, aynan shu plakatlar devorlarga ham yopishtirilib, nurqaytargichlarning o‘tkir qirmizi shu’lasi bilan yoritilgan edi. Ularning mazmuni hammaga ayon edi, shu bois ularni hech kim o‘qimasdi. Bu plakatlar, Moskvada harbiy holat e‘lon qilinganini bildirar, ularda vahima ko‘targan odamlarning jazoga tortilajagi, shuningdek, Smolensk guberniyasiga qizil qo‘shinning gaz bilan qurollangan otryadlari uzliksiz ravishda jo‘nab keta-yotgani xabar qilingan edi. Ammo bu plakatlar ham suronli tunga barham bera olmasdi. Shoshgan odamlar uylarida chinni idishlarni, gultuvaklarni qo‘llaridan tushirib sindirishar, har tomonga zir yugurishar, allaqanday tugunlarni dam yechib, dam yana bog‘lashar, jomadonlarini ochib-yopishar va Kalanchevskaya maydoniga, Yaroslavskiy yoki Nikolay vokzaliga borib olish maqsadida jon-jahdlari bilan harakat qilardilar. Lekin afsuski, shimoliy va sharqiy yo‘nalishdagi vokzallarni piyoda askarlarning zich-zich saflari o‘rab olgan, chunki ustiga tog‘-tog‘ qilib yashiklar ortgan, yashiklar ustiga cho‘qqi shlemlar kiyib, miltiqlarining nayzalarini xuddi tipratikandek har tomonga tar-vaqaylatgan askar yigitlar o‘tirgan mahobatli yuk mashinalari vazmin-vazmin tebranib, zanjirlarini sharaqlatib, moliya xalq komissariyatining yerto‘lalarida saqlangan oltin tangalarni, shuningdek, „Ehtiyot qiling. Tretyakov galereyasi“, degan yozuvlari bo‘lgan bahaybat yashiklarni olib ketar edilar. Mashinalar vag‘illab, Moskvaning hamma yog‘ida yeldek uchar edi.

Osmoni falakda, juda balandda olisdagi yong‘inning aks etgan shu’lasi jimirlar, to‘xtovsiz gumbirlayotgan zambaraklarning sadosi avgustning zulmat tunini larzaga kel-tirardi.

Tong otishiga yaqin qolganda, bironta ham chirog‘ini

o‘chirmagan bedor Moskvada uning yog‘och to‘sinlar<sup>1</sup> yotqizilgan Tver ko‘chasi bo‘ylab, pastdan yuqoriga, yo‘lda to‘qnash kelgan jamiki odamlarni eshik bo‘sag‘alariga, magazinlarning peshtaxtalariga qapishtirib va buning nati-jasida, peshtaxta oynalarini sindirib, ko‘p ming kishilik otliq qo‘sishin dukur-dukur o‘tdi. Suvoriylarning qirmizirang qaytarma qalpoqlari kulrang yelkalarida yelpinar, nayzalarining uchi osmonga qadalgan edi. O‘zini har yoqqa urib, ayyuhannos solayotgan, sarosimaga tushgan olomon saf-saf bo‘lib bostirib kelayotgan bu ulkan qo‘sinni ko‘rgan hamono birdan ruhlanib ketgandek bo‘ldi. Yo‘lkalarda tur-gan xalq ichidan umidvor na’ralar, hayqiriqlar eshitildi.

— Yashasin otliq qo‘sinihimiz, — deb chinqirardi jazava-si tutgan ayollar.

— Yashasin, — deb ularga jo‘r bo‘lardi erkaklar.

— Bosib ketishadi... Voy, bosib ketishadi... — deb chiyil-lagan ovoz eshitilardi allaqayoqdan.

— Yordam beringlar, — deb baqirishardi yo‘lkada tur-ganlar.

Bu odamlar otliqlarga quti-quti papiroslar, tanga pul-lar, hatto soatlarini ota boshladilar, ba’zi ayollar o‘z jon-larini xavf ostiga qo‘yib, yo‘l o‘rtasiga yugurib chiqishar, otliqlarning uzangisidan ushlab olib, uni o‘pishar, ot bilan yonma-yon borishardi. Ot tuyoqlarining uzlusiz dukur-dukuri ostida ba’zan vzvod komandirlarining — Jilovlar tor-tilsin, — degan ovozi eshitilib qolardi.

Qayerdandir sho‘x va o‘ynoqi qo‘sishq eshitilar edi, elektr reklamalarning beqaror shu’iasi qirmizi qalpoqlarini qiyshaytirib, kiyib saf-saf bo‘lib o‘tayotgan suvoriylarni yoritardi. Dam-badam suvoriylar safi uzilib, orqasiga bal-on osilgan, yelkasidan naycha turtib chiqib turgan boshi-

<sup>1</sup> Rossiya ko‘chalariga avval tosh yo asfalt o‘rniga yog‘och to‘sinlar yot-qizilgan.

ga chodir yopingan, ammo yuzi ochiq antiqa qiyofalar ot ustida o‘tardilar. Ular ortidan xuddi o‘to‘chiruvchilarning aravalalarida bo‘lgandek uzun shlanglari bo‘lgan ulkan sisernali mashinalar va o‘rmalovchi g‘ildirakka o‘rnatilgan, ingichkagina tuynukchasidan boshqa hamma yog‘i yopiq og‘ir tanklar o‘z zalvori bilan ko‘chaga yotqizilgan g‘o‘lalarni majaqlab o‘tardi. Shuningdek, hamma tomoni zirhlangan, minorasidan karnaychalar chiqib turgan, biqiniga oq bo‘yoq bilan bosh chanoqning rasmi tushirilib, tagiga „Gaz“, „Dobroxim“ degan yozuvlar yozilgan avtomobillar ham suvoriylar safi orasidan o‘tardilar.

– Bizni bu ofatdan qutqaringlar, birodarlar, – deb baqirishardi yo‘lkada turganlar, – qirib tashlanglar gazandalarni... Moskvani xalos etinglar.

– E onasini... ko‘rsatamiz... – degan ovozlar eshitilardi saflardan. Charog‘on tunda papiro qutilari uchar, irshaygan suvoriylarning oppoq tishlari yaraqlab ko‘rinardi. Safdan yurakni ezuvchi bo‘g‘iq qo‘shiq eshitilardi.

*Gazandani yanchamiz...*

*Tuz ham, motka ham, sallot*

*Bir lahzada bo‘lar mot...*

Mana shu olag‘ovur olomon va bo‘tqasimon qo‘shin uzra ustma-ust „ura“ sadolari yangradi, chunki bu qo‘sining eng oldida hamma suvoriylar singari qirmizi rang qaytarma qalpoq kiygan, bundan o‘n yil burun afsonaviy qahramonga aylangan, endilikda ancha keksayib, sochlari oqargan qo‘shin qo‘mondoni ot minib borayotgani haqida ovoza tarqalgan edi. Olomon qichqirar, „ura... ura“ sadolari endi sarosimaga tushgan qalblarga biroz taskin berib, osmoni falakka ko‘tarilardi...

Institut g‘ira-shira yoritilgan. Tashqarida yuz berayotgan voqealar bu yerga onda-sonda elas-elas eshitilardi. Bir

marta, maneji yaqinidagi elektr soat ostida tasir-tusur o‘q ovozlari eshitildi – Volxonkadagi bir xonadonni o‘marmoqchi bo‘lgan kafando‘zlarni shu yerning o‘zidayoq otib tashlashgan edi. Bu atrofda mashinalar harakati siyrak, lekin vokzallar yaqinida mashinalar qalashib ketgandi. Professorning xonasida faqat bitta chiroq stol ustini xiragina yoritib turardi. Persikov boshini qo‘liga qo‘ygancha sukutga tolib o‘tirardi. Uning boshi atrofini tutun qatlam-qatlam bo‘lib o‘rab olgan. Yashikdagi nur o‘chgan. Terrariylarda qurbaqalardan sado chiqmas, chunki ular uyquga ketgan edilar. Professor ishlamasdi ham, o‘qimasdi ham. Uning chap tirsagi yonida, bir chekkada oqshomgi telegrammlar chop qilingan ingichka varaqqa yotardi. Varaqada, butun Smolenskni yong‘in qamrab olgani, Mojaysk o‘rmonining har bir qadami zambaraklardan o‘qqa tutilib, u yerdagi hamma zax jarliklarga qo‘yib ketilgan to‘p-to‘p timsoh tuxumlarini qiyratayotgani yozilgan edi. Bundan tashqari, Vyazma bo‘sag‘asida aeroplanlar eskadrilyasi samarali ishlab, butun uyezdga gaz purkab chiqqani, lekin bu tomonlarda odamlarning taxliya<sup>1</sup> tartibiga yaxshi rioya qilmay, to‘da-to‘da bo‘lib, goh u, goh bu tomonga zir yugurganlari va bu bilan o‘z boshlarini baloga giriftor qilib, juda ko‘p talafot bergenlari, undan tashqari, Kavkazdan kelgan alohida otliq diviziyaning Mojaysk yo‘nalishida tuyaqush galalari bilan jang qilib, ularni bitta qo‘ymay qirib tashlashgani, tog‘-tog‘ uyilgan tuxumlarini yanchib olamshumul g‘alabaga erishilgani va ayni paytda diviziyaning o‘zi juda oz talafot ko‘rgani haqida xabar qilingan edi. Yana hukumat bayonoti ham chop qilingan edi. „Gazandalar ni poytaxtdan ikki yuz chaqirim naridagi g‘ovda to‘xtatib qolish imkonini bo‘lmagan taqdirda, butun poytaxt tartib bi-

<sup>1</sup> Taxliya – evakuatsiya.

*lan taxliya etilajak, – deb yozilgan edi bayonotda. – Ishchilar va xizmatchilar tinchlik saqlashlari shart. Hukumat Smolensk voqeasini poytaxtda takrorlanmasligi uchun eng keskin choralarни qo'llayajak. Zero Smolensk guberniyasiga bir necha mingta ajdarsifat ilonning dabdurustdan bostirib kelishi oqibatida sarosimaga tushgan xalq hamma yerda uylardagi pechlarni yoniq holda qoldirib, parokanda bo'lib qocha boshlagan va bu hol butun shaharda yong'in ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Lekin shuni ham aytish kerakki, Moskva aholisini kamida yarim yil boqishga yetadigan oziq-ovqat g'amlangan. Basharti qizil qo'shin va aeroplan eskadrilyalari ilonlar hujumini to'xtatib qola olmasa-yu, ular bilan poytaxt ko'chalarida jang qilish xavfi tug'ilgudek bo'lsa, bunday holda bosh qo'mondon qoshida tuzilgan kengash uylarni zirxlar bilan ixota qilishning shoshilinch choralarini ko'radi".*

Professor bu gaplarning birontasini ham o'qimadi, u nursiz ko'zlarini bir nuqtaga qadab ustma-ust chekar edi. Institutda undan boshqa faqat ikki kishi – Pankrat bilan mudom yum-yum yig'layotgan Marya Stepanovna bor edi; ro'zg'or sohibasi mana uch kechadirki mijja qoqmay vaqtini professoring xonasida o'tkazardi, chunki olim o'zining o'chib qolgan yagona yashagini tashlab ketishni xohlamasdi. Endi Marya Stepanovna xonaning nimqorong'i burchagida turgan kleyonka bilan sirilgan divanga joylashgan va professorga choy qaynatish uchun sepoya gaz gorelkasiga qo'yilgan choynakka tikilgancha g'amgin xayolga berilib jim o'tirardi. Institut sukutga tolган shu damda hamma falokat birdaniga yuz berdi.

Ko'chadan qulqoni qomatga keltiruvchi jaholatli baqiriq-chaqiriqlar eshitildi, Marya Stepanovna sapchib o'rnidan turib ketib, chinqirib yubordi. Tashqarida fonuslar lipillay boshladi, dahlizdan Pankratning ovozi eshitildi.

Professor bu shovqinga uncha parvo qilmadi. U bir zuma-ga boshini ko'tarib: „Rosa quturishyapti... endi men nima qildim“, – deb g'o'ldiradi. Keyin vujudi yana karaxt bo'lib qoldi. Ammo bu karaxtlik shu ondayoq buzildi. Institutning Gersen ko'chasiga ochiluvchi tunuka bilan sirlangan gumbur eshigini jon-jahd bilan taraqlata boshlashdi, devorlar larzaga keldi. Keyin qo'shni xonadagi hamma yog'i oynadan yasalgan stol „chirs“ etib sindi. Shu payt professor xonasi derazasining oynasi jaranglab, chil-chil sindi-yu, bu yerga uchib kirgan kattakon kulrang tosh shisha stolni kul-kul qildi. Terrariylarda qurbaqalar cho'chib ketib jonholatda qurullay boshlashdi. Marya Stepanovna o'zini qo'yarga joy topa olmay, chinqirgancha professoring oldiga yugurib kelib, uning qo'lidan mahkam ushlab oldi.

– Qoching, Vladimir Ipatich, qochib qoling, – deb baqirdi ayol. Professor aylanuvchi kursidan turib, qaddini rostladi va barmog'ini ilgak qilib bukkancha javob qilar ekan, ko'zлari bir lahzagina porlab ketdiki, Persikov avvalulari, ruhi ko'tarilgan paytda shunday nigoh bilan boqardi.

– Hech qayoqqa ketmayman, – dedi u, – g'irt bema'nilik bu... ular telba odamlardek nima qilayotganlarini o'zлari ham bilishmayapti... Mabodo butun Moskva telba bo'Igan bo'lsa, unda men qayoqqa ham boraman. Undan keyin, il-timos, chinqirishni bas qiling. Bu to's-to'polonga mening nima aloqam bor? Pankrat, – deb chaqirdi u qo'ng'iroq tugmasini bosarkan.

Chamasi, u Pankratga, tashqarida bo'layotgan tartibsizlikka barham ber, deb buyurmoqchi bo'Igandir, chunki u shovqin-suronni hech ham xush ko'rmas edi. Lekin dahlizdagи Pankratning qo'lidan endi hech ish kelmay qolgan edi. Institut eshigi taraqlab ochilgandagina boyagi gursullashlar to'xtadi, shunda uzoqdan paq-paq o'q ovozlari eshitildi, so'ng butun institut binosi do'pir-do'pir oyoq to-

vushlaridan, baqiriq-chaqiriqlardan, oynalarning chil-chil sinishidan larzaga keldi. Marya Stepanovna Persikovning yengiga yopishib, uni qayoqqadir torta boshladi, lekin professor qo'lini tortib olib, qaddini rostladi va egnidagi oq xalati bilan yo'lakka chiqdi.

– Xo'sh? – dedi u. Shu payt eshik lang ochilib, qizil uqali chap yengida yulduz tasviri bo'lgan bir harbiyning yelkasi ko'rindi. U orqasi bilan tisarilib kelarkan, eshikka qarata o'q uzardi, chunki darg'azab olomon tanbalangan eshikni itarib ochishga urinayotgan edi. Keyin bu harbiy odam qocha boshladi va Persikovning yonidan yugurib o'tarkan, baqirdi:

– Professor, qochib qoling, qo'limdan boshqa hech ish kelmaydi. Uning bu gapiga javoban Marya Stepanovna chiyillab yubordi. Harbiy odam, misoli oq haykaldek qotib turgan Persikovning yonidan shipillab o'tdi-yu, ilonizi qop-qorong'i yo'laklardan institutning narigi boshiga yugurib ketib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Odamlar shovqin-suron bilan eshikni qarsillatib ochib bostirib kirishdi.

– Ur uni. O'ldir...

– O'ldir bu kasofat jodugarni.

– Sen chiqarib yuborgansan ilonlarni.

Institut yo'laklarini badqahr basharalar, yoqavayron ko'ylaklar bosib ketdi, kimdir o'q uzdi. Havoda tayoqlar silkina boshladi. Persikov biroz orqaga tisarilib, o'z xonasi eshigini yuziga yopdi (ichkarida qo'rquvdan dag"-dag" tit-rayotgan Marya Stepanovna yerda cho'kka tushib o'tirardi) va xochga chormix qilingandek qo'llarini yoydi... U olomonning xonaga kirishini istamay, jaholat bilan baqirib berdi:

– O'taketgan telbalik bu... sizlar vahshiy hayvonlarga o'xshaysiz. Nima istaysiz o'zi? – dedi va: – Daf bo'linglar bu yerdan, – deb chinqirdi. So'ng har galgidek keskin va tanish ovoz bilan qichqirdi: – Pankrat, hayda manavilarni.

Lekin Pankrat endi hech kimni hayday olmas edi. U dahlizda boshi majaqlanib, kiyimlari tilka-pora bo'lib, olomonning oyog'i ostida toptalib o'lib yotardi, ko'chada o'q uzayotgan militsiyaga parvo qilmay eshikdan yopirilib kirayotgan olomonning yangi-yangi to'dalari sho'rlik Pankratning jasadini bosib-yanchib o'tardilar. Kamzuli dabdala bo'lgan, manishkasi yirtilib qiyshayib ketgan, maymunga o'xshash maymoqoyoq pakana odam shartta oldinga otilib chiqib, Persikovga yaqinlashdi va professorning boshiga tayoq bilan kuchining boricha tushirib, uni ikki pallaga ajratib yubordi. Persikov bir chayqalib ketib yonboshiga yiqilarkan, og'zidan chiqqan oxirgi so'zlar shu bo'ldi:

— Pankrat... Pankrat...

Hech qanday gunohi bo'limgan Marya Stepanovnani xonada o'ldirib, jasadini tilka-tilka qilib tashlashdi, nuri o'chib qolgan kamerani dabdala qilishdi, terrariylarni vayron qilishib, parokanda qurbaqalarni bosib-yanchib tashlashdi, oynaband stollarni, nurqaytargichlarni chilchil sindirishdi. Bir soatdan keyin butun institut alanga olib yona boshladi, institut oldida odamlarning jasdлari har xil alfovza yotar, elektr revolverlar bilan qurollangan militsionerlar saf tortib jasdлarni qo'riqlar, o't o'chirish avtomobillari vodoprovod jo'mraklaridan suv so'rib olib, institutning hamma derazalaridan gurullab otilib chiqayotgan alangaga purkardilar.

## XII BOB

### **AYOZ XUDOSI MASHINA MINIB KELDI**

1928-yil avgustining 19-dan 20-kuniga o'tar kechasi birdan hatto tub joyli qariyalar ham hech qachon ko'rmangan favqulodda sovuq tushdi. Bu sovuq ikki kecha-kun-

duz minus 18 darajadan pasaymay turdi. Qahr-u g‘azabga to‘lgan Moskva barcha eshik va derazalarini taqa-taq yopib oldi. Poytaxtni va uning atrofidagi bepoyon yerlarni 28-yilning mash’um halokatidan shu ayoz qutqarib qolganini aholi faqat uch kundan keyin tushundi. Mojaysk bo‘sag‘asida askarlarining to‘rtidan uch qismi nobud bo‘lgan otliq qo‘sishin butunlay holdan toydi, Moskvaga yarim doira shaklida uch tomondan – g‘arbdan, janubi g‘arbdan va janubdan bostirib kelayotgan jirkanch sudraluvchilarni to‘xtatishga gaz purkovchi eskadrilyalarning qurbi yetmay qoldi.

Bu gazandalarni faqat ayoz qiyratdi. Jirkanch maxluqlar galasi ikki kecha-kunduz davom etgan 18 darajali sovuqqa dosh bera olmadi, avgustning 24–25 kunlarida, sovuq zaminda va havoda zax va namlik qoldirib, daraxtlarning yam-yashil yaproqlarini qoraytirib, qovjiratib, ni-hoyat pasaydi, endi jang qiladigan hech zog‘ qolmagan, falokat barham topgan edi.

O‘rmonlar, dalalar, poyonsiz botqoqlarda hanuz rangbarang tuxumlar uyilib yotar, ularning aksariyati juda aloomat, ularda g‘aroyib ko‘rinishda suratga olingan, bedarak yo‘qolgan Rokk ularni bir vaqtlar „allambalo“ deb aytgan edi. Lekin endi bu tuxumlar mutlaqo bezarar edi. Ular o‘lik edi; pushtlari nobud bo‘lgandi.

Gersen ko‘chasida dahoning nazorati ostida kashf etilgan sirli nuring ta’siri bilan dunyoga kelgan timsohlar va ilonlarning behisob jasadlari yana uzoq vaqtgacha poyoni yo‘q dala-dashtlarda irib-chirib yotdi, endi ular xavfli emasdi, issiq tropik o‘lkalarning sassiq botqoqlarida yashovchi joni nozik bu maxluqlar ikki kun ichida butkul qirilib bitdi va uchta guberniyaga qarashli behudud maydonni badbo‘y o‘laksalarga qalashtirib tashladi.

Gazandalar va odamlarning jasadlari ko‘milmay qol-

ganligi oqibatida xalq orasida yuqumli kasalliklar keng tarqaldi, aksariyat odamlarning boshi kasaldan chiqmay qoldi, qo'shin yana uzoq vaqt uyezdma-uyezd kezib yurdi, lekin endi u gaz bilan emas, balki sapyorlik aslahalari, kerosin to'ldirilgan sisternalar va shlanglar bilan qurollanib, yer yuzini najaslardan poklay boshladi. Pokladi ham. Bu ishlar 29-yilning bahoriga borib tugadi.

29-yilning bahorida esa Moskvada yana shod-u xurramlik boshlanib, poytaxt yana turfa rang chiroqlar bilan charog'on bo'ldi, yana ko'chalarda mashinalar viz-viz qatnay boshladi va Iso jomesi gumbazi uzra o'roq oy xuddi ingichka ipga osilgandek qalqib turdi, 28-yilning avgustida yonib ketgan ikki qavatli institut binosi o'rni-ga esa yangi zoologiya saroyi qurilib, unga privat-dotsent Ivanov mudir etib tayinlandi. Persikov endi yo'q edi. Hech kim uning qat'iyat bilan bukilgan barmog'ini biron marta bo'lsin ko'z oldiga keltirmadi ham, uning g'ijir-lovchi, vaqirlayotgandek tuyuluvchi ovozini boshqa eshitmadi ham. 1928-yilda kashf etilgan nur va uning oqibatida yuz bergen falokat butun dunyoda yana uzoq vaqt shov-shuv bo'ldi, bu haqda ko'p yozishdi, lekin bora-bora professor Vladimir Ipatich Persikovning o'zi aprel oqshomida kashf qilgan qizil nur qanday o'chgan bo'lsa, olimning nomi ham asta tumanga burkanib, oxiri mutlaqo odamlar xotirasidan o'chib ketdi. Garchi nazokatli jentlmen, endilikda shtatga o'tgan professor Pyotr Stepanovich Ivanov o'sha nurni qaytatdan olishga juda ko'p uringan bo'lsa ham, harakatlari samara bermadi. Birinchi kamera Persikov o'ldirilgan tunda quturgan olomon tomonidan majaqlab tashlangan edi. Qolgan uchta kamera Nikolsk uyezdidagi „Qizil nur“ sovxoziда eskadrilyaning gazandalarga qarshi olib borgan birinchi jangi paytidayoq yonib ketgan edi, ularni qayta tiklab bo'lmasdi. Oynalar-

ni ko‘zgu qaytargan nur tutamlari bilan uyg‘unlashtirish qanchalik oddiy bo‘lib tuyulmasin, Ivanovning astoydil harakat qilishiga qaramay, ularni ikkinchi marta bir-biriga birlashtirishning iloji bo‘lmadi. Chamasi, bu ishni ro‘-yobga chiqarish uchun olim bo‘lishdan tashqari, dunyoda faqat bitta odam – marhum professor Vladimir Ipatevich Persikovgina bilgan yana qandaydir maxsus bir narsani bilish zarur edi.

---

## MUNDARIJA

Nashriyotdan ..... 3

### IVAN BUNIN

Styopa. <i>Ortiqboy Abdullaev tarjimasi</i> .....	5
Qo‘nalg‘a. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	12
Bahorda – Iudeyada. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	22
Iltifotli ishtirok. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	28
Qotil. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	35
Odamxo‘r. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	37
Ko‘zyoshlar. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	38
Sarmoya. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	39
Dumli yulduz. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	40
Shaqirlagan qovurg‘a. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	41
Buva. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	42
Arafa. <i>Dildorxon Aliyeva tarjimasi</i> .....	44

MIXAIL BULGAKOV

**KASOFAT TUXUMLAR**

*Qodir Mirmuhamedov tarjimasi*

I BOB .....	45
II BOB.....	51
III BOB .....	58
IV BOB .....	63
V BOB .....	73
VI BOB .....	91
VII BOB.....	95
VIII BOB .....	109
IX BOB .....	130
X BOB .....	136
XI BOB .....	145
XII BOB.....	153

*Adabiy-badiiy nashr*

IVAN BUNIN

## SARMOYA

*Qissa va hikoyalar*

Tarjimon:  
Qodir MIRMUHAMEDOV va b.

„Ziyo nashr“ nashriyoti  
Toshkent – 2020

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo 'rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Nasiba Ergasheva</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
13.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 <sup>1/32</sup>.  
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 98–20.  
Buyurtma raqami 420-20.

„Ziyo nashr“  
Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

**Bunin, Ivan.**

B 95

**Sarmoya.** [Matn]: qissa va hikoyalar / Ivan Bunin; tarjimonlar:  
Qodir Mirmuhamedov va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. –  
160 b.

ISBN 978-9943-6340-9-1

**UO'K: 821.161.1-3**

**KBK 84(2Ros)**

IVAN BUNIN

18

MOYA



ZIYO NASHR



[t.me/zyonashr](https://t.me/zyonashr)



[fb.com/zoyo.nashr](https://fb.com/zoyo.nashr)



[zyonashr@mail.ru](mailto:zyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-6340-9-1

9 789943 634091